DAVLAT VA HUQUQ ASOSLARI

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining
9-sinfi uchun darslik

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi
vazirligi nashrga tavsiya etgan

Yangi nashr



9

Toshkent – 2024

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

M U N D A R I J A

I BOB. KONSTITUTSIYA VA HUQUQIY DAVLAT

1-dars. Konstitutsiya – davlatning asosiy qonuni ... 6
2-dars. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinishi ... 10
3-dars. Huquqiy davlatda konstitutsiyaning o‘rni ... 13
4-dars. Konstitutsiyaning asosiy prinsiplari. Davlat suvereniteti ... 16
5-dars. Xalq hokimiyatchiligining konstitutsiyaviy asoslari ... 20
6-dars. O‘zbekiston Respublikasida konstitutsiya va qonunning ustunligi ... 23
7-dars. O‘zbekiston Respublikasining tashqi siyosati ... 29
8-dars. Ijodiy faoliyat ... 35
9-dars. Nazorat ishi ... 36

II BOB. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FUQAROLIGI

10-dars. O‘zbekiston Respublikasida fuqarolikning umumiy qoidalari ... 38
11-dars. Fuqarolarning shaxsini tasdiqlovchi hujjatlar ... 41
12-dars. O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligini tugatish va tiklash asoslari ... 43
13-dars. Chet elda yashovchi vatandoshlar bilan munosabatlarni saqlash va rivojlantirish ... 46
14–15-dars. Ijodiy faoliyat ... 49
16-dars. Nazorat ishi ... 52

III BOB. INSON VA FUQAROLARNING ASOSIY HUQUQLARI, ERKINLIKLARI VA BURCHLARI

17-dars. Inson va fuqarolarning asosiy huquq va erkinliklari ... 54
18-dars. Shaxsiy huquq va erkinliklar ... 56
19-dars. Siyosiy huquqlar ... 60
20-dars. Iqtisodiy va madaniy huquqlar ... 66
21-dars. Ijtimoiy huquqlar ... 71
22-dars. Ekologik huquqlar ... 77
23-dars. Inson huquq va erkinliklarining kafolatlanishi ... 82
24-dars. O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining konstitutsiyaviy burchlari ... 87
25-dars. Ijodiy faoliyat ... 91
26-dars. Nazorat ishi ... 92

IV BOB. FUQAROLIK JAMIYATI VA DAVLAT HOKIMIYATI

27-dars. Jamiyat va shaxs. Fuqarolik jamiyati ... 94
28-dars. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi ... 100
29-dars. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti ... 106
30-dars. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi ... 111
31-dars. Mahalliy davlat hokimiyati ... 114
32-dars. O‘zbekiston Respublikasining sud hokimiyati ... 117
33-dars. Ijodiy faoliyat ... 121
34-dars. Nazorat ishi ... 122

AZIZ O‘QUVCHI!

Faqat huquqiy davlat sharoitidagina insonning hayoti, erkinligi, sha’ni, qadr-qimmatini to‘liq ta’minlash, tom ma’noda xalqparvar boshqaruv tizimini shakllantirish mumkin.

Shavkat Mirziyoyev

Huquq dunyosiga sayohatga tayyormisiz?

Konstitutsiyaviy huquq dunyosiga sayohat qilish avvaliga siz uchun zerikarli va murakkab bo‘lib tuyulishi mumkin. Lekin aslida unday emas! Tasavvur qiling-a, siz odamlarning huquqlari va erkinliklarini himoya qiladigan superqahramonsiz. Sizning asosiy kuchingiz Konstitutsiya, davlatimizning asosiy qonunini bilishdadir.

Ushbu darslik qiziqarli sayohatda sizning yordamchingiz bo‘ladi.

Siz kitob orqali:

- ✓ konstitutsiya nima va nega har birimiz uchun muhimligini;
- ✓ konstitutsiya sizga qanday huquq va erkinliklarni kafolatlashini;
- ✓ o‘z huquqlaringizni himoyalash va agar ular buzilsa, nima qilish kerakligini;
- ✓ davlat hokimiyati organlarining vakolatlarini;
- ✓ qanday qilib faol fuqaro sifatida mamlakat hayotiga daxldor bo‘lish mumkinligini bilib olasiz.

Darslikni o‘zlashtirish asnosida siz qiyin huquqiy vaziyatlardan chiqish yo‘llarini o‘rganasiz. Shuningdek, bahs-munozaralarda o‘z nuqtayi nazaringizni himoya qila oladigan ishtirokchiga aylanasiz.

Sizni odamlar orasida adolat va tenglik uchun kurashning muhimligini anglash va bu yo‘lda faol ishtirok etishga undovchi qiziqarli sarguzasht kutmoqda. Huquq bu – faqat qonunlar va qoidalar majmui emas, balki har birimizning kundalik hayotimizda ro‘y beradigan voqealarni shakllantiruvchi, adolatli jamiyat taraqqiyoti yo‘lidagi asosiy vositadir.

Ushbu darslikni o‘rganish natijasida 2023-yil 30-aprelda yangi tahrirda qabul qilingan Konstitutsiyamiz bilan yaqindan tanishasiz. Huquqiy ong nima ekani va uni qanday rivojlantirish mumkinligini o‘rganasiz. Bu esa to‘g‘ri qarorlar qabul qilish va huquqiy muammolarga yechim topishda sizga yordam beradi.

O‘z huquqlaringiz bilan bir qatorda, boshqalarning huquqlariga ham hurmat bilan yondashishning muhimligini tushunasiz. Jamiyatda har birimizning o‘zaro mas’uliyatimiz borligini anglay olasiz.

Mavzularni o‘zlashtirish orqali tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirasiz, bu esa sizga turli huquqiy masalalar va vaziyatlarni chuqurroq tahlil qilish va ularning yechimlarini topishda yordam beradi.

Sizni bu muhim va qiziqarli jarayonda qo‘llab-quvvatlash uchun bir qator interaktiv mashqlar, hayotiy misollar va qiziqarli ma’lumotlar taqdim etilgan. Ular o‘rganish jarayonini yanada samarali va yodda qolarli qiladi. Keling, ushbu yangi bilim va tajribalar olamiga birga qadam tashlaylik. Sizni nafaqat huquqiy bilimlar, balki o‘zingiz va atrofingizdagi dunyoni yangicha huquqiy nazar bilan ko‘rish imkoniyati ham kutmoqda.

Bilim – kuch ekanini unutmang! O‘zingiz va boshqalarning huquqlarini himoya qilish uchun bilimlaringizdan foydalaning.

Mualliflar jamoasi

I BOB.

KONSTITUTSIYA VA HUQUQIY DAVLAT



1-DARS. KONSTITUTSIYA – DAVLATNING ASOSIY QONUNI

Konstitutsiya men hech qachon tark etmaydigan yo‘riqnomadir.
Jorj Vashington

Bilib olasiz

Konstitutsiya tushunchasi.
Konstitutsiya – qonunchilik asosi.
Konstitutsiya turlari.
O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining tuzilishi va vazifalari.

Konstitutsiya tushunchasi

Yodda tuting!

“Konstitutsiya” lotincha *constitutio* so‘zidan olingan bo‘lib, *tuzilish, tuzuk, belgilash, tartib o‘rnatish* degan ma’nolarni anglatadi. “Konstitutsiya” atamasi ilk bor Qadimgi Rim davlati qonunchiligida ishlatilgan. Konstitutsiya davlatning eng asosiy qonunlari jam bo‘lgan muhim hujjatdir.

Bugungi zamonaviy demokratik davlatni asosiy qonun – konstitutsiyasiz tasavvur qilish juda mushkul. Konstitutsiya – insoniyatning jamiyat hayotini tartibga solishga qaratilgan eng muhim tarixiy kashfiyotlaridan biri sifatida hozirgi davrga qadar xizmat qilmoqda.

Konstitutsiya fuqarolarning asosiy huquqlari va burchlarini, shaxs, jamiyat va davlat o‘rtasidagi munosabatlarni, jamiyat va davlat tuzilishini, davlat hokimiyati va boshqaruv organlarini tuzish tartibi hamda ularning ish faoliyati asosiy prinsiplari va vakolatlarini belgilab beradi.

Konstitutsiya davlatlar vujudga kelgan davrlardan ancha kech paydo bo‘ldi. Demak, davlatlar tarixan konstitutsiyasiz faoliyat yuritgan. Konstitutsiyalarning paydo bo‘lishiga bir qancha omillar o‘z ta’sirini o‘tkazgan. Insonlarning huquq va erkinliklarini qonunlarda mustahkamlash hamda davlat va inson o‘rtasidagi munosabatlarni huquqiy tartibga solish ularni alohida qonunlar orqali belgilash zaruratini vujudga keltirdi.



AQSH konstitutsiyasining qabul qilinishi

Dunyo tarixidagi dastlabki konstitutsiya 1787-yilgi AQSH konstitutsiyasidir. Dastavval AQSH konstitutsiyasida hokimiyatlar bo‘linishi: qonunchilik, ijro, sud hokimiyatini tashkil etish prinsiplari va tartibi, federatsiya subyektlari huquqlari belgilangan edi. Keyinchalik inson va fuqaro huquqlariga oid qo‘shimchalar kiritildi. Shundan so‘ng Polsha va Fransiyada ham konstitutsiyalar qabul qilindi. Bugungi kunda jahondagi 200 dan ortiq davlatlarda o‘z konstitutsiyasi amal qiladi.

Barcha qonunlar, kodekslar, qarorlar va farmonlar konstitutsiya negizida va unga muvofiq tarzda qabul qilinadi. Bu esa davlatning har bir me’yoriy hujjati konstitutsiyaga mos kelishi shart ekanini anglatadi. Konstitutsiya jamiyat hayotining barcha sohalariga, siyosiy, iqtisodiy, ma’naviy-axloqiy, maishiy, mehnat faoliyati, shaxsiy hayot va boshqalarga ta’sir o‘tkazadi.

Konstitutsiya – qonunchilik asosi

Konstitutsiya butun huquqiy tizimning asosi bo‘lib xizmat qiladi, negaki huquqning rivojlanishi konstitutsiyadan boshlanadi, aynan uning o‘zi boshqa barcha qonunlar va normativ-huquqiy hujjatlarga hayot baxsh etadi. Konstitutsiyaning oliy yuridik kuchi ham mana shun-

O‘ZBEKISTON QONUNCHILIK TIZIMI

- **O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi**
- **O‘zbekiston Respublikasining qonunlari**
- **Oliy Majlisi palatalarining qarorlari**
- **O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari**
- **Vazirlar Mahkamasining qarorlari**
- **Vazirliklar va idoralarning buyruqlari hamda qarorlari**
- **Mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari**

da namoyon bo‘ladi. Qolgan barcha huquqiy hujjatlar asosiy qonun – konstitutsiyadan kelib chiqadi va unga muvofiq bo‘lishi kerak.

Huquq tizimini piramida ko‘rinishida tasavvur qilib ko‘ring. Konstitutsiya ana shu piramida cho‘qqisida turadi, desak, uning cho‘qqisidan eng quyi qismigacha qonunlar, kodekslar, farmonlar, qarorlar va boshqa barcha normativ hujjatlar joy olganini ko‘rasiz. Konstitutsiyaga oid bilimlar, uning mazmuni, rivojlanish tarixi, konstitutsiya turlari haqidagi to‘liq ma’lumotlar Konstitutsiyaviy huquqda o‘rganiladi.

Konstitutsiyaviy huquq normalari qolgan barcha yuridik normalar, huquqning har bir tarmog‘i, har qaysi qonun va qonunosti hujjatining poydevori sanaladi. Shuning uchun ham konstitutsiyaviy huquq har bir mamlakat milliy huquq tizimida yetakchi mavqeyga ega. Konstitutsiyaviy huquqning asosiy manbayi – konstitutsiya. Ammo konstitutsiyaviy huquq faqat konstitutsiyadan iborat bo‘lmaydi. Boshqa qonunchilik va me’yoriy-huquqiy hujjatlar ham huquqning ana shu tarmog‘i manbalari hisoblanadi.

Konstitutsiya turlari

Zamonaviy dunyoda 200 dan ortiq davlatlar mavjud va ularning deyarli har biri o‘z konstitutsiyasiga ega. Turli davlatlarning konstitutsiyalari bir qancha sabablarga ko‘ra bir-biridan farq qiladi. Konstitutsiyalar turli davr va sharoitlarda vujudga kelgani sababli ularning turlari ham xilma-xildir.

Konstitutsiyalarning shakli, qabul qilinishi, amal qilishi va o‘zgartirish tartibi kabi jihatlariga ko‘ra quyidagi turlari mavjud.

Ifoda qilish shakliga ko‘ra, konstitutsiyalar “yozilgan” va “yozilmagan” konstitutsiyalarga bo‘linadi. Yozilgan konstitutsiya alohida tartibda qabul qilingan, yagona hujjat sifatida e’tirof etiladi **(AQSH, Fransiya).** Ba’zi davlatlarda konstitutsiyalar yagona hujjat shaklida qabul qilinmaydi, turli munosabatlarni tartibga soluvchi qonunlar qabul qilingan bo‘lib, ularning yig‘indisi ham konstitutsiya hisoblanadi **(Buyuk Britaniya, Yangi Zelandiya).**

Qabul qilinish tartibiga ko‘ra, hadya qilingan konstitutsiya o‘z davlati uchun monarx tomonidan hadya qilinadi. Bunda konstitutsiya davlat rahbarining (yuqori ijro etuvchi hokimiyat organi) akti bilan kuchga kiradi (**Qatar** va **Yaponiya**). Xalq konstitutsiyasi referendum **(O‘zbekiston Konstitutsiyasining yangi tahriri),** parlament, faqat konstitutsiyani qabul qilish uchun tuzilgan oliy hokimiyat organi tomonidan qabul qilinishi mumkin.



O‘zgartirish kiritish tartibiga ko‘ra, konstitutsiya “yumshoq” va “qattiq” konstitutsiyalarga bo‘linadi. “Yumshoq”

Konstitutsiya turlari

O‘zgartirish kiritish tartibiga ko‘ra:
“Yumshoq” va “Qattiq” konstitutsiya

Ifoda qilish shakliga ko‘ra:
Yozilgan konstitutsiya va yozilmagan konstitutsiya

Davlat boshqaruv shakliga ko‘ra:
Monarxiya va respublika konstitutsiyalari

Qabul qilinish tartibiga ko‘ra:
Hadya qilingan konstitutsiya va xalq konstitutsiyasi

Davlat tuzilishi shakliga ko‘ra:
Federal va unitar konstitutsiyalar

konstitutsiya bu – davlatning oddiy qonunlari kabi qabul qilingan va o‘zgartiriladigan asosiy qonundir. “Qattiq” konstitutsiya bu – tegishli mamlakatning oddiy qonunlariga qaraganda ancha murakkab tarzda qabul qilinadigan va o‘zgartiriladigan asosiy qonun. Masalan, AQSH konstitutsiyasi qabul qilinganiga 200 yildan oshgan bo‘lsa ham, unga 27 ta o‘zgartirish kiritilgan xolos.

Davlat boshqaruv shakliga ko‘ra, konstitutsiyalar monarxiya va respublika turlariga bo‘linadi. Monarxiya konstitutsiyalari – monarx hokimiyati konstitutsiya bilan cheklangan boshqaruv shakliga ega mamlakatlarda o‘rnatiladi **(Ispaniya, Yaponiya, Shvetsiya)**. Respublika konstitutsiyalari boshqaruvning respublika shakliga ega mamlakatlarda amal qiladi **(Fransiya, Germaniya, AQSH)**.

Davlat tuzilishi shakliga ko‘ra, konstitutsiyalar federal va unitar turlarga bo‘linadi. Federal konstitutsiya federal davlatni shakllantirish tamoyillarini belgilaydi, federatsiyaning alohida subyektlarini yagona ittifoqqa birlashtirish, federatsiya subyektlari huquqiy maqomi, shuningdek, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati organlarining shakllanishi va faoliyatini tartibga soladi **(AQSH, Hindiston, Germaniya, Rossiya)**. Unitar davlat konstitutsiyalari sifatida butun davlat uchun yagona konstitutsiyalarni misol qilish mumkin **(Fransiya, Italiya)**.

Ko‘rinib turibdiki, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi ifoda qilish shakliga ko‘ra, yozilgan; qabul qilinish tartibiga ko‘ra, xalq tomonidan qabul qilingan; o‘zgartirish kiritish tartibiga ko‘ra “qattiq”; davlat boshqaruv shakliga ko‘ra, respublika; davlat tuzilishi shakliga ko‘ra, unitar davlat konstitutsiyasi hisoblanadi.


Davlatning asosiy qonuni sifatida Konstitutsiya o‘ziga xos tuzilishga ega. Konstitutsiyaning tuzilishi boshqa qonunlardan farqli ravishda Konstitutsiya normalarining maqsad va vazifalariga hamda ahamiyatiga qarab mantiqiy ketma ketlikda joylashadi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining tuzilishi va vazifalari



Muqaddima Konstitutsiyamizning mafkuraviy kirish qismidir. Konstitutsiya muqaddimasi xalqning orzu-intilishlarini ifodalaydi, umuminsoniy va milliy qadriyatlarni o‘zida aks ettiradi. Muqaddimadagi qoida va g‘oyalar keyinchalik konstitutsiya normalarida u yoki bu shaklda, ko‘rinishda o‘z o‘rnini topadi. Muqaddima **“O‘zbekistonning yagona xalqi”** tushunchasi bilan boshlanib, bu orqali xalqimizning yagona va bo‘linmasligiga urg‘u berilgan.

Konstitutsiyaning **birinchi bo‘limi “Asosiy prinsiplar”** deb nomlanib, “Davlat suvereniteti”, “Xalq hokimiyatchiligi”, “Konstitutsiya va qonunning ustunligi”, “Tashqi siyosat” boblariga ajratilgan. Konstitutsiyaning dastlabki bo‘limidagi prinsiplar



davlat va jamiyat hayotining ustunlari hisoblanadi. Chunki ushbu bo‘limda davlatning boshqaruv va tuzilish shakli, davlat suvereniteti xususiyatlari belgilangan.

Konstitutsiyaning **ikkinchi bo‘limi “Inson va fuqaroning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari”** deb nomlanadi**.** Mazkur bo‘limda davlat va fuqaro bir-biriga nisbatan huquq va burchlar orqali o‘zaro bog‘liqligi, inson va fuqarolarning shaxsiy huquq va erkinliklari (yashash huquqi), fuqarolik masalalari, siyosiy (saylov huquqi), iqtisodiy (mulkdor bo‘lish huquqi), ijtimoiy (ta’lim olish, mehnat qilish), madaniy va ekologik huquqlar hamda huquq va erkinliklar kafolatlari, fuqarolarning burchlari belgilangan.

Konstitutsiyaning **uchinchi bo‘limi “Jamiyat va shaxs”** deb nomlangan. Unda jamiyatning iqtisodiy negizlari, fuqarolik jamiyati institutlari, oila, bolalar va yoshlarga oid masalalar hamda ommaviy axborot vositalarining huquqiy asoslari mustahkamlangan.

To‘rtinchi bo‘lim “Ma’muriy-hududiy va davlat tuzilishi” deb nomlangan, unda O‘zbekistonning ma’muriy-hududiy tuzilishi hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasining huquqiy holati alohida boblarda belgilangan.

“Davlat hokimiyatining tashkil etilishi” deb nomlangan Konstitutsiyaning eng katta **beshinchi bo‘limi** “O‘zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi”, “O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti”, “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi”, “Mahalliy davlat hokimiyati asoslari. Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari”, “Saylov tizimi”, “Sud hokimiyati”, “Advokatura”, “Prokuratura”, “Moliya, pul va bank tizimi” hamda “Mudofaa va xavfsizlik” kabi boblarni o‘z ichiga olgan.

So‘nggi oltinchi bo‘lim esa Konstitutsiyani o‘zgartirish tartibiga bag‘ishlangan.

Yodda tuting!

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi muqaddima, 6 bo‘lim, 27 bob va 155 moddadan iborat.

Savol va topshiriqlar

1. Qadimgi davlatlarda qonunlar mavjud bo‘lsa-da, yaxlit asosiy qonun – konstitutsiyaning yaratilishiga bo‘lgan zarurat nimadan iborat edi?
2. Jahonda qabul qilingan dastlabki konstitutsiyalar va ularning tarixiy ahamiyati qanday?
3. Konstitutsiyaning mazmun-mohiyatini nimalar belgilaydi?
4. Konstitutsiyani boshqa qonunlardan farqli ravishda nima uchun asosiy qonun deyiladi?
5. Konstitutsiyaning muqaddimasi va uning keyingi normalari o‘rtasida qanday bog‘liqlik mavjud?

Mustaqil ish uchun topshiriq

Konstitutsiya turlari bo‘yicha jadval yarating. Jadvalning chap tomoniga konstitutsiya turlari, o‘ng tomoniga esa ularga mos keladigan davlatlarni yozing.

2-DARS. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASINING QABUL QILINISHI

Barcha jamoalar uchun umumiy va doimiy konstitutsiya yaratish imkonsiz, har bir avlod o‘z konstitutsiyasini yaratish huquqiga ega.

Tomas Jefferson

Bilib olasiz

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yaratilishi.
Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinishi.
Konstitutsiyaga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish tartibi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yaratilishi



Yodda tuting!

1992-yil 8-dekabrda Oliy Kengashning XI sessiyasida loyiha ma’qullandi va O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qilindi. Mustaqil O‘zbekistonning Konstitutsiyasi shu tarzda amalga kiritildi. 8-dekabr – O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qilingan kun, umumxalq bayrami deb e’lon qilindi. 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi muqaddima, 6 bo‘lim, 26 bob va 128 moddadan iborat bo‘lgan.

Davlat mustaqilligi uchun qo‘yilgan asosiy qadam sifatida e’tirof etiladigan, 1990-yil 20-iyunda qabul qilingan Mustaqillik deklaratsiyasi yangi konstitutsiyani yaratish uchun asos bo‘ldi. Deklaratsiya qabul qilingan Oliy Kengash sessiyasida yangi konstitutsiya ishlab chiqish zarurati haqida xulosaga kelindi hamda konstitutsiya loyihasini tayyorlash uchun 64 kishidan iborat komissiya tuzildi. Konstitutsiya loyihasida jahonda umume’tirof etilgan prinsiplar va g‘oyalarga amal qilish bilan birga, unda o‘zbek xalqining davlatchiligi, ajdodlarimiz g‘oyalari, qadriyatlarimiz o‘z ifodasini topishiga alohida e’tibor berildi.

Konstitutsiya loyihasining umumxalq muhokamasi uch oy davom etdi. Umumxalq muhokamasi jarayonida kelib tushgan 6 000 ta taklif asosida loyihaga 80 dan ortiq tuzatishlar kiritildi.

Keng umumxalq muhokamasi davomida bildirilgan ko‘plab takliflar inobatga olingan holda komissiya tomonidan tayyorlangan Konstitutsiya loyihasi Oliy Kengash muhokamasiga qo‘yildi.

Mustaqil davlatning Konstitutsiyasi – davlatning asosiy qonuni sifatida fuqarolarning huquq va erkinliklarini mustahkamlab, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati organlari faoliyati asoslarini belgiladi.

Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinishi

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar insonning sha’ni, qadr-qimmati, huquq va erkinliklari bundan buyon barcha sohalarda ustuvor ahamiyat kasb etishini qat’i qoidaga aylantirish, bir so‘z bilan aytganda, bugungi islohotlarning bosh tamoyili bo‘lgan “Inson – jamiyat – davlat” yondashuvini Konstitutsiyamizning mazmun-mohiyatiga chuqur singdirishni taqozo etdi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, 2022-yil 20-may kuni Oliy Majlis palatalarining qo‘shma qarori bilan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish



yuzasidan takliflarni shakllantirish va tashkiliy chora-tadbirlarni amalga oshirish bo‘yicha Konstitutsiyaviy komissiya tashkil etildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Konstitutsiyaviy komissiya a’zolari bilan uchrashuvdagi nutqida: “Bosh maqsadimiz – har bir yurtdoshimiz ushbu hujjatni mening Konstitutsiyam deb faxrlanadigan mukammal darajaga olib chiqishdir”, deb ta’kidlagan edi.

2023-yilning 30-aprel kuni “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy qonuni loyihasi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi referendumi o‘tkazildi va yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz bevosita fuqarolarimiz tomonidan qabul qilindi.

Konstitutsiyaning dastlabki 1-moddasida **O‘zbekiston – suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy, dunyoviy davlat** ekani qat’i belgilab qo‘yildi.

Huquqiy davlat huquq ustuvorligi ta’minlangan, inson va fuqarolarning huquq va erkinliklari kafolatlangan, qonunlar oldida barcha teng va hisobdor bo‘lgan, hech kim qonundan ustun turmaydigan davlatdir.

Ijtimoiy davlat har bir inson uchun farovon turmush darajasi, xususan, sifatli ta’lim, kafolatli tibbiy xizmat, munosib mehnat sharoiti va adolatli ish haqi, pensiya va nafaqalar, uy-joyli bo‘lish sharoiti mavjud bo‘lgan, hech bir fuqaro o‘z muammolari bilan yolg‘iz qolmaydigan adolatli davlatdir.

Dunyoviy davlat diniy tashkilot va birlashmalar davlatdan hamda davlat hokimiyati dindan ajratilgan, davlat boshqaruvi diniy qoidalar bilan emas, balki Konstitutsiya va qonun hujjatlari bilan tartibga solinadigan davlat hisoblanadi.



Yangilangan Konstitutsiyamizning eng muhim jihatlari shaxsiy huquq va erkinliklar, iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar borasidagi normalar qariyb **3,5 baravarga ko‘paydi.**

Eng muhim o‘zgarishlar qatorida ta’lim sohasiga oid normalar yanada ko‘paydi. Masalan, davlatning o‘qituvchilarning sha’ni va qadr-qimmatini himoya qilishi, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy jihatdan o‘sishi to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilishi mustahkamlandi (52-modda).

“Yangilangan konstitutsiya – chinakam xalq konstitutsiyasi”

- Yangi tahrirdagi Konstitutsiya tariximizda bevosita xalq tomonidan qabul qilinib, to‘g‘ridan to‘g‘ri amalga kiritilgan birinchi hujjat bo‘ldi.
- Referendumga chiqarilishidan oldin konstitutsiya loyihasi bo‘yicha 220 mingdan ortiq takliflar kelib tushdi.

Yangi tahrirdagi konstitutsiyada moddalar soni 128 tadan 155 taga oshdi. Asosiy qonun matni qariyb 65 foizga yangilandi.

Konstitutsiyaga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish tartibi

Konstitutsiyamizda uning barqarorligini ta’minlash, unga tez-tez o‘zgartirishlar kiritilishining oldini olishga qaratilgan himoya choralari nazarda tutilgan. Mazkur qoidalar Konstitutsiyaning **VI bo‘limida** bayon etilgan bo‘lib, unda o‘zgartirishlar kiritish tartibi va shartlari keltirilgan.

154-moddaga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar tegishincha O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatlari va Senati a’zolari umumiy sonining kamida uchdan ikki qismidan iborat ko‘pchiligi tomonidan qabul qilingan konstitutsiyaviy qonun yoki O‘zbekiston Respublikasining referendumi bilan kiritiladi.


Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tegishli taklif kiritilganidan keyin **olti oy mobaynida** Konstitutsiyaga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida keng va har taraflama muhokamani hisobga olgan holda konstitutsiyaviy qonun qabul qilishi mumkin.

Agar O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Konstitutsiyani o‘zgartirish to‘g‘risidagi taklifni rad etsa, taklif **bir yil o‘tganidan keyingina qayta kiritilishi mumkin.**

Xulosa qilish mumkinki, Konstitutsiyaga o‘zgartirish va qo‘shimchalar, birinchidan, Oliy Majlis palatalari tomonidan, ikkinchidan, referendum orqali bevosita xalqning o‘zi tomonidan kiritilishi mumkin.

2023-yilning 30-aprel kuni yangi tahrirdagi Konstitutsiya qabul qilingunga qadar O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga 16 marta o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilgan. Ularning asosiy qismi davlat boshqaruvi, Prezident, hukumat va saylov tizimi bilan bog‘liq o‘zgarishlar edi.

Tariximizda birinchi marotaba **2023-yilning 30-aprel kuni “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to‘g‘risida”gi** O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy qonunini xalqimizning o‘zi qabul qildi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizdagi yangi qoidalar va o‘zgarishlarning asosiy qismi inson huquqlari bilan bog‘liq.



Savol va topshiriqlar

1. O‘zbekiston Konstitutsiyasining yaratilishiga qanday sabablar ta’sir qildi?
2. Konstitutsiyaning yaratilishi va uning yangilanishida xalqimizning roli qanday?
3. Konstitutsiyani ishlab chiqishda milliy qadriyatlar qay darajada e’tiborga olingan?
4. Konstitutsiyaga nima uchun o‘zgartirish, qo‘shimchalar kiritiladi, buning tartibi qanday?

Mustaqil ish uchun topshiriq

Jadval yarating. Jadvalning chap tomoniga Konstitutsiyamizdagi eng muhim inson huquqlari va erkinliklari nomlarini yozing, jadvalning o‘ng tomonida esa ularning mazmunini bayon qiling.

3-DARS. HUQUQIY DAVLATDA KONSTITUTSIYANING O‘RNI

Davlatning vazifasi insonlarni baxt-saodatga olib borishdir,
bu esa ilm va yaxshi axloq yordamida qo‘lga kiritiladi.

Abu Nasr Forobiy

Bilib olasiz

Huquqiy davlat va uning belgilari.
Huquqiy davlat va huquqiy madaniyat.
Huquqiy davlatda konstitutsiyaning ustunligi.

Huquqiy davlat va uning belgilari

Huquqiy davlat bu – huquq ustuvorligi ta’minlangan, inson va fuqarolarning huquq va erkinliklari kafolatlangan, hokimiyatni amalga oshirishda (bevosita yoki vakillar orqali) xalqning ishtiroki ta’minlanuvchi davlatdir.



Huquqiy davlatda davlat organlarining, mansabdor shaxslarning faoliyati faqat konstitutsiya hamda qonun hujjatlari asosida amalga oshiriladi. Konstitutsiya qoidalari davlat organlari faoliyati va insonlar hayotida to‘g‘ridan to‘g‘ri qo‘llanadi. Huquqiy davlatda qonun talablari barchaga birdek tatbiq etiladi. Barcha davlat organlari va mansabdor shaxslar, fuqarolar va fuqarolik jamiyati institutlari qonunlarga bo‘ysunadi. Huquqiy davlat to‘g‘risidagi nazariyalar har qanday demokratik davlat intilishi kerak bo‘lgan namuna vazifasini o‘taydi.

Huquqiy davlatda inson va uning manfaatlari davlatning diqqat markazida turadi. Inson va davlat o‘rtasidagi munosabatlarda *inson manfaatlari* ustuvor bo‘ladi.

HUQUQIY DAVLATNING BELGILARI

- Qonun ustuvorligi
- Hokimiyat tizimining qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati tarmoqlariga bo‘linishi
- Hokimiyat tarmoqlarining o‘zaro muvozanati va bir-birini tiyib turishi
- Fuqaro va davlatning huquq va burchlar orqali o‘zaro bog‘liqligi va mas’ulligi
- Inson huquq va erkinliklarining kafolatlanishi, ularni hech kim buzmasligi
- Sud tizimi mustaqilligi

Huquqiy davlat va huquqiy madaniyat



Huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatining muhim mezonlaridan biri jamiyatda aholi huquqiy ongi va madaniyati darajasining yuksakligi hisoblanadi. O‘zbekistonda mustaqillikning ilk yillaridan ushbu masalaga alohida e’tibor qaratildi. Aholining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish masalalari davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi.

Shu o‘rinda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning quyidagi fikrlarini keltirib o‘tish maqsadga muvofiq: ***“Biz jamiyatimizda shunday huquqiy madaniyatni shakllantirishimiz kerakki, unga muvofiq konstitutsiya va qonunlarga amal qilish, boshqalarning huquq va erkinliklari, sha’ni va qadr-qimmatini hurmat qilish majburiyat emas, balki kundalik qoida va odatga aylanishi shart”***.

Huquqiy ong qonunchilik va undagi huquqiy normalar, muayyan huquqiy munosabatlarda huquqiy normalarni amalga oshirish bo‘yicha davlat idoralari, fuqarolar va boshqa shaxslarning faoliyati, qonunni buzishga qarshi kurashish kabi turli munosabatlarni ifoda etadi.

Qonunni bilmaslik javobgarlikdan ozod etmaydi! Barcha fuqarolar mavjud qonunlarni yoddan bilmasligi mumkin, lekin o‘z huquq va manfaatlariga aloqador va kundalik hayotida har kuni foydalanadigan qonun hujjatlarini bilmaslik huquqiy ong yetarli darajada emasligidan dalolat beradi. Ko‘rinib turibdiki, mamlakatimizda huquqiy davlatni barpo etishda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishning o‘rni beqiyos.

Biroq ba’zi holatlarda jamiyatda huquqiy nigilizm va huquqiy madaniyatsizlik kabi noxush holatlar uchrab turadi. Bunda qonunlar buziladi yoki ijro etilmaydi. Xulosa qilishimiz mumkinki, ularni bartaraf etmasdan turib huquqiy davlat g‘oyasini ro‘yobga chiqarish mumkin emas.

Inson huquq va erkinliklariga hurmat munosabatini shakllantirish, aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda fuqarolarning huquqiy savodxonligi darajasini oshirish maqsadida qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-yanvardagi “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonida jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish konsepsiyasi tasdiqlandi.

Yodda tuting!

Huquqiy ong – kishilarning qonunlar va boshqa huquqiy hodisalar haqidagi bilimlari, tasavvurlari yig‘indisi.

Huquqiy madaniyat – kishilarning huquqiy bilim darajasi, huquqqa nisbatan ongli munosabati, huquqni hurmat qilishi va unga rioya qilishi.

Huquqiy nigilizm – huquqqa, qonunlarga salbiy, ularni inkor qiluvchi, hurmatsiz munosabatda bo‘lish.

Huquqiy madaniyatga ega shaxs

- Qonun normalarini muayyan darajada biladi
- Ijobiy huquqiy ong egasi bo‘ladi
- Huquqni hurmat qilishga asoslangan xulq-atvorga ega bo‘ladi

Huquqiy davlatda konstitutsiyaning ustunligi

Yodda tuting!

Huquq ustuvorligi (“Rule of law”) – davlat va mansabdor shaxslarning, fuqarolar va birlashmalarining faoliyati huquq bilan bog‘liqligi, huquqqa mos holda amalga oshirilishidir.

Huquqiy davlatning eng muhim belgilaridan biri konstitutsiya va qonun ustunligidir.

Konstitutsiya va qonun ustuvorligi barcha davlat hokimiyati organlari faoliyatida konstitutsiya, qonunlar oliy yuridik kuchga egaligi, ularning hokimiyat chiqaradigan boshqa qonun hujjatlaridan ustunligi hisoblanadi. Qonun ustuvorligi jamiyatda demokratiya va qonunchilik ta’minlanishiga xizmat qiluvchi tamoyildir.

Mamlakatimizda demokratik huquqiy davlat barpo etishning bosh mezoni konstitutsiya va qonun ustuvorligini ta’minlashdir. Davlatni huquqiy deb atash uchun qonun ustunligi bilan birga chinakam huquq ustuvorligi ham talab etiladi. Huquq ustuvorligi prinsipi barcha normativ-huquqiy hujjatlar (shu jumladan, konstitutsiya) va davlat hokimiyati organlari faoliyati tabiiy huquq nazariyasiga tayanadi, inson huquqlari va manfaatlarini ta’minlash va himoya qilishni talab qiladi.

Huquqiy davlat insonning qadr-qimmati, erkinligi va huquqlarini himoya qilishga qaratilgan, qonunlar oldida barcha teng va hisobdor bo‘lgan, hech kim qonundan ustun turmaydigan davlatdir.

Bugun O‘zbekistonda insonparvar, adolatli, erkin va xalqchil bo‘lgan huquqiy davlat qurish maqsad qilingan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2022-yil 20-iyunda Konstitutsiyaviy komissiya a’zolari bilan uchrashuvda: **“Faqat huquqiy davlat sharoitidagina insonning hayoti, erkinligi, sha’ni, qadr-qimmatini to‘liq ta’minlash, tom ma’noda xalqparvar boshqaruv tizimini shakllantirish mumkin”**, deb ta’kidlagan edi.

Yangi tahrirdagi konstitutsiyamizning 1-moddasida “O‘zbekiston – huquqiy davlat” deb ko‘rsatib qo‘yildi. Asosiy qonunda O‘zbekiston huquqiy davlat ekanini alohida belgilash davlat o‘z faoliyatini, jamiyat va fuqarolar yashash tarzini faqat konstitutsiya va qonunlarga ko‘ra yo‘lga qo‘yishiga asos yaratadi.

Yangilangan konstitutsiyamizning normalarida ham huquqiy davlat prinsipini ro‘yobga chiqarishga qaratilgan asoslar va kafolatlar mustahkamlandi. Birinchidan, konstitutsiyaning oliy yuridik kuchga egaligi hamda uning to‘g‘ridan to‘g‘ri amal qilishi belgilandi. Ikkinchidan, inson bilan davlat organlarining o‘zaro munosabatlarida yuzaga keladigan qonunchilikdagi barcha qarama-qarshiliklar va noaniqliklar inson foydasiga talqin qilinishi mustahkamlandi.

O‘zbekiston huquqiy davlat deb belgilanishi barchaning qonun oldida tengligini va qonundan hech kim ustun emasligini ta’minlash, insonlar ongiga qonunlarga hurmat va itoat etib yashash lozimligini singdirishga asos bo‘ladi.

Savol va topshiriqlar

1. Huquqiy davlat va huquqiy bo‘lmagan davlat o‘rtasida qanday farqlar mavjud?
2. Huquqiy madaniyatga ega shaxsda qanday sifatlar bo‘lishi lozim?
3. Qonun ustunligi va huquq ustuvorligi tushunchalari o‘rtasida qanday farq bor?
4. Konstitutsiyamizning qaysi normalarida huquqiy davlat tamoyiliga oid qoidalar o‘z ifodasini topgan?

Mustaqil ish uchun topshiriq

Huquqiy nigilizm jamiyat taraqqiyotiga jiddiy xavf tug‘diruvchi hamda huquqiy ong va huquqiy madaniyatning yuksalishiga to‘siq bo‘luvchi salbiy hodisalardan biridir. Jamiyatda yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, huquqiy savodxonlikni oshirishning qanday yo‘llari mavjudligini sinfdoshlaringiz bilan muhokama qiling.

4-DARS. KONSTITUTSIYANING ASOSIY PRINSIPLARI. DAVLAT SUVERENITETI

Suverenitet – davlatning mutlaq va doimiy hokimiyatidir.
Jan Boden

Bilib olasiz

Davlat suvereniteti tushunchasi.
O‘zbekiston Respublikasining davlat boshqaruvi va tuzilishi shakli.
O‘zbekistonning davlat tili, davlat ramzlari.

Davlat suvereniteti tushunchasi



Jan Boden
(1530 –1596),
fransiyalik
huquqshunos olim

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining birinchi bo‘limi **“Asosiy prinsiplar”** deb nomlanadi. Unda davlat va konstitutsiyaviy tuzumning bosh tamoyillari belgilangan. Mazkur bo‘limning dastlabki bobi “Davlat suvereniteti” deb nomlanadi hamda 6 ta moddani o‘z ichiga oladi.

Suverenitet so‘zi fransuzcha “souverainete” – “oliy hokimiyat” degan ma’noni beradi. Suverenitet tushunchasi fransiyalik huquqshunos olim Jan Boden tomonidan kiritilgan hamda barcha xalqlar davlatchiligida mustaqillik ma’nosida ishlatiladi va xalqaro ahamiyat kasb etadi. Davlat suvereniteti hokimiyatni amalga oshirishda, bu borada yuzaga keluvchi muammolarni hal etishda nafaqat mamlakat ichkarisida, balki tashqarisida ham boshqa davlatlardan to‘la-to‘kis mustaqillikni anglatadi.

Davlatning belgilaridan biri uning suvereniteti hisoblanadi. Davlat suverenitetining quyidagi asosiy prinsiplari mavjud:

- ✓ *davlat hududi hamda chegaralarining daxlsizligi va bo‘linmasligi;*
- ✓ *mustaqil ichki va tashqi siyosat;*
- ✓ *xalqaro huquqning asosiy prinsiplarini e’tirof etish va hurmat qilish;*
- ✓ *davlat tili;*
- ✓ *o‘z taraqqiyot yo‘lini, davlat ramzlarini tanlashdagi mustaqillik va hokazo.*

Yodda tuting!

O‘zbekiston – boshqaruvning respublika shakliga ega bo‘lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat.

Davlatning “O‘zbekiston Respublikasi” va “O‘zbekiston” degan nomlari bir ma’noni anglatadi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 1-modda

1991-yil 31-avgustda O‘zbekiston SSR Oliy Kengashining navbatdan tashqari VI sessiyasida respublikamiz mustaqil davlat deb e’lon qilindi. Ushbu sessiyada “O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risida”gi qonun qabul qilindi. U O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qilingan 1992-yil 8-dekabrga qadar asosiy qonun vazifasini bajardi.

Asosiy prinsiplar

- ✓ Davlat suvereniteti
- ✓ Xalq hokimiyatchiligi
- ✓ Konstitutsiya va qonunning ustunligi
- ✓ Mustaqil tashqi siyosat



BMT va O‘zbekiston bayrog‘i

Yodda tuting!

Davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qiladi. Davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas’uldirlar.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 2-modda

Davlat mustaqilligiga erishilishi O‘zbekistonga mustaqil taraqqiyot yo‘liga qadam qo‘yish, jahon hamjamiyatiga xalqaro munosabatlarning to‘la huquqli subyekti sifatida kirish imkonini berdi.

Davlatning xalq manfaatlariga xizmat qilishiga erishish demokratik jamiyat qurishda eng muhim shartdir. Davlatning eng birinchi vazifasi xalq irodasini ifoda etish, xalq manfaatlarini himoya qilish va unga xizmat qilishdir. Bu esa barcha davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas’ul ekanini bildiradi.

O‘zbekiston Respublikasining davlat boshqaruvi va tuzilishi shakli

Respublika boshqaruv shakli deganda davlat hokimiyatining oliy organlarini tashkil etish hamda ushbu organlarning o‘zaro va aholi bilan bo‘lgan munosabatlari tizimi tushuniladi. “Respublika” atamasi lotinchadan olingan bo‘lib, “umumxalq ishi” degan ma’noni bildiradi. BMT a’zolaridan 150 ga yaqin davlat o‘z nomida respublika boshqaruv shakliga egaligini mustahkamlagan.

Konstitutsiyamizning 1-moddasida **O‘zbekiston respublika boshqaruv shaklidagi davlat** ekani belgilangan. O‘zbekistonda respublika boshqaruv shakli hokimiyatning barcha oliy organlari saylovlar yoki vakillik organlari tomonidan shakllanishida namoyon bo‘ladi. Konstitutsiyamizga ko‘ra, qonun chiqaruvchi organ – Oliy Majlis ham, davlat boshlig‘i Prezident ham fuqarolar tomonidan saylanadi. Ijro etuvchi hokimiyat – Vazirlar Mahkamasi esa birlamchi vakillik organlari tomonidan shakllantiriladi. Bunda O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti davlat boshlig‘i hisoblanib, u davlat hokimiyati organlarining kelishilgan holda faoliyat yuritishini hamda hamkorligini ta’minlaydi.

Xulosa qilish mumkinki, davlat boshqaruvining respublika shakli xalq hokimiyatchiligining ifodasi bo‘lib, fuqarolarning konstitutsiyada kafolatlangan tabiiy huquqlari ta’minlanadi, ularning jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o‘z vakillari orqali ishtirok etish, so‘z erkinligi, saylov, sudga shikoyat qilish kabi huquq va erkinliklaridan foydalanishi, shuningdek, davlat organlarining faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratiladi.

Boshqaruvning respublika shakliga xos bo‘lgan belgilar

- ✓ Davlat boshlig‘i va oliy hokimiyat organlari vakillarining saylovlar orqali shakllantirilishi.
- ✓ Saylab qo‘yiladigan organlarning saylovchilar oldida javobgarligi, ularning muayyan muddatga saylanishi va tayinlanishi.
- ✓ Davlat hokimiyati davlat boshlig‘i nomidan emas, balki xalq nomidan amalga oshirilishi.
- ✓ Fuqarolar huquqlarining davlat tomonidan himoya qilinishi, davlat va shaxs o‘rtasida o‘zaro mas’ullikning mavjudligi.



O‘zbekiston va Qoraqalpog‘iston bayrog‘i

Har qanday davlatning asosiy belgisi uning aholisi yashab turgan hudud mavjud ekanidir.

Davlat tuzilishi shakli joylardagi hokimiyat organlarining markaziy hokimiyat organlari bilan o‘zaro munosabatlarini belgilab beruvchi, siyosiy va hududiy jihatdan tashkil etilishidir. Jahondagi aksariyat mamlakatlar davlat tuzilishining unitar shakliga egadir. Bu holda davlat hududi ma’muriy hududlarga (viloyatlar, tumanlar va hokazolarga), ya’ni davlatchilikka ega bo‘lmagan, balki boshqaruv qulay bo‘lishi uchun mavjud bo‘lgan qismlarga taqsimlanadi.

Unitar davlat yagona davlat bo‘lib, uning alohida ma’muriy-hududiy birliklari bir xildagi huquqlarga ega, butun davlat hududida yagona konstitutsiya, yagona hukumat va yagona qonun hujjatlari amal qiladi.

O‘zbekiston Respublikasida davlat tuzilishining unitar shakli o‘rnatilgan. Respublikamizda davlatning unitar shakliga xos barcha belgilar mavjud. Konstitutsiyaga muvofiq (83-modda), O‘zbekiston Respublikasi viloyatlar, tumanlar, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar, ovullar, shuningdek, Qoraqalpog‘iston Respublikasidan iborat.

O‘zbekiston Respublikasi ma’muriy-hududiy tuzilishining o‘ziga xosligi uning tarkibida tumanlar, shaharlar, shaharchalar va ovullardan tashkil topgan suveren Qoraqalpog‘iston Respublikasining mavjud ekanidir.

Yodda tuting!

O‘zbekiston Respublikasi o‘zining milliy-davlat va ma’muriy-hududiy tuzilishini, davlat hokimiyati organlarining tizimini belgilaydi, ichki va tashqi siyosatini amalga oshiradi.

O‘zbekistonning davlat chegarasi va hududi daxlsiz va bo‘linmasdir.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 3-modda

Qoraqalpog‘iston Respublikasi O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga zid bo‘lmagan o‘z Konstitutsiyasiga egadir. Qoraqalpog‘iston Respublikasining fuqarosi ayni vaqtda O‘zbekiston Respublikasining fuqarosi hisoblanadi.

O‘zbekistonning davlat tili, davlat ramzlari

Til muloqot vositasi hamda millatni aniqlashdagi asosiy belgi-xususiyatdir. Davlat tili rasmiy til bo‘lib, ish yuritish, ta’lim olib borish shu tilda amalga oshiriladi.

Mustaqillik uchun birinchi huquqiy qadamlardan biri o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilishi hisoblanadi. 1989-yil 21-oktyabrda “Davlat tili to‘g‘risida”gi qonun qabul qilinib, o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berildi. Bu Sobiq Ittifoq davrida mustaqillik uchun, suverenitet uchun qilingan eng katta harakat edi. Shu paytdan boshlab o‘zbek tili rivojlanishining yangi bosqichi boshlandi.

Shu tariqa, dastlab O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi qonun, keyinchalik O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida davlat tili haqidagi qoidalar mustahkamlangan.

“O‘zbekiston Respublikasining davlat tili haqida”gi qonunida belgilanganidek, o‘zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi mamlakat hududida

Yodda tuting!

O‘zbekiston Respublikasining davlat tili o‘zbek tilidir.

O‘zbekiston Respublikasi o‘z hududida istiqomat qiluvchi millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va an’analari hurmat qilinishini ta’minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 4-modda

Yodda tuting!

O‘zbekiston Respublikasi qonun bilan tasdiqlanadigan o‘z davlat ramzlari – bayrog‘i, gerbi va madhiyasiga ega.

Davlat ramzlari davlat himoyasidadir.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 5-modda



yashovchi millat va elatlarning o‘z ona tilini qo‘llashdan iborat konstitutsiyaviy huquqlariga monelik qilmaydi. O‘zbekiston Respublikasida davlat tilini o‘rganish uchun barcha fuqarolarga shart-sharoit yaratiladi hamda uning hududida yashovchi millatlar va elatlarning tillariga izzat-hurmat bilan munosabatda bo‘lish ta’minlanadi.

Davlat ramzlari har bir davlat mustaqilligining tarixan shakllangan, eng muhim belgilari sifatida uning suverenitetini yaqqol tasdiqlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi ham o‘z oliy davlat hokimiyati tomonidan belgilangan va konstitutsiyada mustahkamlangan davlat ramzlari – bayrog‘i, gerbi va madhiyasiga ega.

Xalqimizning g‘ururi, iftixori bo‘lgan bu ramzlarda tariximiz, boy ma’naviy-madaniy merosimiz, milliy urf-odat hamda an’analarimiz, buyuk maqsad, ezgu orzu-intilishlarimiz o‘z ifodasini topgan.

1991-yil 18-noyabrda “O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘i to‘g‘risida”gi qonun, 1992-yil 2-iyulda “O‘zbekiston Respublikasining Davlat gerbi to‘g‘risida”gi qonun, 1992-yil 10-dekabrda “O‘zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi to‘g‘risida”gi qonun qabul qilindi.

Davlat ramzlariga nisbatan hurmatsizlik qilganlik uchun javobgarlik mavjud. Har bir shaxs davlat ramzlarini hurmat qilishi shart!

Davlat ramzlari O‘zbekiston mustaqil respublika sifatida xalqaro huquqning teng huquqli subyekti ekanini ifodalab turadi. Ayniqsa, BMT binosining oldida bayrog‘imizning hilpirashini ko‘rganda yoki xalqaro sport musobaqalarida vatandoshlarimizning yutuqlari sharafiga bayrog‘imiz ko‘tarilib, madhiyamiz yangraganda har birimizning qalbimizda g‘urur-iftixor uyg‘onadi.

Savol va topshiriqlar

1. O‘zbekiston qachon mustaqil suveren davlat maqomiga ega bo‘ldi?
2. O‘zbekiston Respublikasi mustaqil suveren davlat sifatida qanday xalqaro tashkilotlarga a’zo hisoblanadi?
3. Jahon mamlakatlaridan misollar keltirgan holda monarxiya va respublika boshqaruv shaklining farqli jihatlarini sanang.
4. O‘zbekiston Respublikasi davlat tuzilishi va uning o‘ziga xosligini tushuntiring.
5. Davlat mustaqilligi va davlat ramzlari o‘rtasida qanday bog‘liqlik mavjud?

Mustaqil ish uchun topshiriq

Davlat tuzilishi shakliga oid jadval yarating. Jadvalning chap qismiga unitar davlatning belgilari va jahondagi unitar davlatlarni yozing. Jadvalning o‘ng qismiga O‘zbekistonning davlat tuzilishi shakli belgilarini yozing hamda uning o‘ziga xosligini muhokama qiling.

5-DARS. XALQ HOKIMIYATCHILIGINING KONSTITUTSIYAVIY ASOSLARI

Xalq demokratiyada ko‘pchilikni tashkil etishi sababli, ko‘pchilikning qarori hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Arastu

Bilib olasiz

Demokratiya – xalq hokimiyatchiligi.
Davlat hokimiyati bo‘linishi prinsipi.
Demokratik huquq va erkinliklar Konstitutsiya himoyasida.



Xalq hokimiyatchiligi atamasi ***demokratiya*** (yunoncha *demos* – xalq, *kratos* – hokimiyat) so‘zining aynan tarjimasidir. Ilk bor Qadimgi Yunonistonda qo‘llangan bu tushuncha butun jahonga keng tarqaldi.

Demokratiya – xalq hokimiyatchiligi

Konstitutsiyamizning 1-moddasiga ko‘ra, **O‘zbekiston demokratik respublika** hisoblanadi. **Demokratik respublika** – xalq davlat hokimiyatining **birdan bir manbayi bo‘lgan,** davlat **xalq irodasini ifoda etadigan,** fuqarolar jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda **bevosita hamda o‘z vakillari orqali ishtirok etish huquqi** bilan ta’minlangan, davlat hokimiyatining oliy organlari saylov yo‘li bilan shakllantiriladigan davlat hisoblanadi.

Xalq davlat hokimiyatining birdan bir manbayi degan norma nafaqat oliy hokimiyat, balki barcha darajadagi hokimiyat organlari xalqqa tegishli ekanini, ularning tashkil etilishi va faoliyat yuritishi, sodda qilib aytganda, mavjudligi faqat va faqat xalqdan kelib chiqishi, xalqqa xizmat qilishini aniq belgilab bermoqda. Shuning uchun ham “Xalq hokimiyatchiligi” bobi konstitutsiyaning asosiy prinsiplari bo‘limida joylashtirilgan.

Davlat miqyosidagi muammolarni hal etishda xalqning bevosita ishtiroki referendumda, ya’ni mamlakat siyosiy hayotining eng muhim masalalari yuzasidan o‘tkaziladigan umumxalq muhokamasida va bevosita ovoz berishda qatnashishi orqali namoyon bo‘ladi.

Xalq nomidan faqat u saylagan Prezident, Oliy Majlis ish olib borishi mumkin. Davlat qaror qabul qilishi uchun jamoatchilik fikrini bilishi zarur bo‘lib qolganda konstitutsiya, qonunlarning loyihalari umumxalq muhokamasiga qo‘yilishi yoki davlat va jamiyat hayotiga oid muhim qarorlar qabul qilish maqsadida referendum o‘tkazilishi mumkin. Masalan, 2023-yil 30-aprelda yurtimizda “**O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to‘g‘risida”**gi O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy qonuni loyihasi bo‘yicha referendum o‘tkazildi. Referendumda ishtirok etgan fuqarolarning ko‘pchiligi (referendumda ovoz berishda ishtirok etgan fuqarolarning 90,21 foizi) mazkur masalaga ijobiy javob berdilar.

DEMOKRATIYA

- Saylab qo‘yiladigan hokimiyat organlarida ishtirok etish
- Fuqarolarning davlatni boshqarishda ishtirok etishi
- Hammaning va har kimning qonun oldida tengligi
- Inson huquq va erkinliklari muhofazasining kafolatlangan mexanizmi mavjudligi
- Inson farovonligi va manfaatlari xususida davlat g‘amxo‘rligi

DEMOKRATIYANING IKKI SHAKLI

Bilvosita, ya’ni vakillik demokratiyasi. Xalq suveren huquqlaridan foydalanib, o‘zi saylab qo‘ygan vakillari (deputatlar va senatorlar) orqali davlat ishlarini amalga oshiradi.

Bevosita, ya’ni to‘g‘ridan to‘g‘ri demokratiya. Xalq davlat ishlarini vakillarsiz o‘zi hal qiladi (saylov, referendum, fuqarolar murojaati, qonunlar loyihalari muhokamasi va boshqalar orqali).

Davlat hokimiyati bo‘linishi prinsipi

Hokimiyatlar bo‘linishi davlat hokimiyati tizimi faoliyatining asosiy prinsipi bo‘lib, davlat hokimiyati vakolatlari bir-biridan mustaqil bo‘lgan tarmoqlar orasida taqsimlanishi, ularning o‘zaro hamkorlik va muvozanati orqali hokimiyatni suiiste’mol qilishning oldini olishni ta’minlaydigan tamoyildir. Ushbu prinsipga muvofiq davlat hokimiyati qonunchilik, ijro etuvchi va sud hokimiyati organlariga bo‘linadi.

Dunyo miqyosida hokimiyatlar bo‘linishi nazariyasining ilmiy asoslari rivojlanishi Yevropa va AQSHda davlat boshqaruvining yangi shakllariga o‘tilishi, siyosiy tizimning o‘zgarishi hamda uning ilk konstitutsiyalarda mustahkamlanishi davrida sodir bo‘lgan.

Hokimiyatlar bo‘linishi tarixiga oid adabiyotlarda angliyalik olim **Jon Lokk** zamonaviy hokimiyatlar bo‘linishi nazariyasining ilk muallifi sifatida e’tirof etiladi.

Fransiyalik olim **Sharl Lui de Monteskyo** hokimiyatlar taqsimlanishining tugal ta’limotini yaratgan muallif sifatida e’tirof etiladi. Darhaqiqat, J. Lokk hokimiyatni qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi tarmoqlarga bo‘lgan, xolos. Sh. Monteskyo esa hokimiyatning qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi organlari o‘rtasida mustaqillik, tenglik hamda bir-birini muvozanatda ushlab turish tizimi zarurligini ta’kidlagan. Monteskyo erkinlik va adolat qaror topishi uchun hokimiyatlar bo‘linishi prinsipida **sud hokimiyatini** ilk bora alohida ko‘rsatib o‘tadi hamda sud hokimiyati qonun chiqaruvchi va ijro hokimiyatidan ajratilgan holda mavjud bo‘lishi kerakligini ta’kidlaydi.



Jon Lokk (1632–1704), angliyalik olim



Sharl Lui de Monteskyo (1689–1755), fransiyalik olim

Yodda tuting!

Xalq davlat hokimiyatining birdan bir manbayidir. O‘zbekiston Respublikasida davlat hokimiyati xalq manfaatlarini ko‘zlab va O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda uning asosida qabul qilingan qonunlar vakolat bergan organlar tomonidangina amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 7-modda

Hokimiyatlar bo‘linishi nazariyasining amaliy ifodasi 1787-yilda qabul qilingan Amerika Qo‘shma Shtatlari konstitutsiyasida aks etdi.

Mamlakatimiz qonunchiligida hokimiyatning bo‘linishi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 11-moddasida mustahkamlangan. Unga muvofiq, davlat hokimiyati tizimi hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo‘linishi prinsipiga asoslanadi. Hokimiyat vakolatlari qonun chiqaruvchi oliy vakillik organi – **Oliy Majlis**, ijro hokimiyatining oliy organi – **Vazirlar Mahkamasi** va sud hokimiyati – odil sudlovni amalga oshiruvchi **Oliy sud** va **Konstitutsiyaviy sud** o‘rtasida taqsimlangan.



Demokratik huquq va erkinliklar Konstitutsiya himoyasida

O‘zbekistonda demokratik huquq va erkinliklar konstitutsiya va qonunlar bilan himoya qilinadi. Inson huquqlari va erkinliklari tan olingan xalqaro huquqning umume’tirof etilgan prinsiplari va normalari bilan ham qo‘riqlanadi.

Insonning sha’ni, qadr-qimmati, huquq va erkinliklari bundan buyon barcha sohalarda ustuvor ahamiyat kasb etishini qat’i qoidaga aylantirish, bir so‘z bilan aytganda, **“Inson qadri uchun”** g‘oyasi hamda bugungi islohotlarning bosh tamoyili bo‘lgan **“Inson – jamiyat – davlat”** degan yondashuv yangilangan konstitutsiyamizning mazmun-mohiyatiga chuqur singdirildi. Konstitutsiyamiz inson huquqlari to‘g‘risidagi xalqaro hujjatlar asosida ishlab chiqilgan. Alohida ta’kidlash lozimki, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz xalqaro huquqiy hujjatlar normalari asosida yanada takomillashtirildi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 13-moddasida ham Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida e’lon qilingan umuminsoniy huquqlar oliy qadriyat darajasida belgilangan. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida insonlarning ajralmas va daxl-siz huquqlari ko‘rsatilgan. Uning 1-moddasiga muvofiq, “Hamma odamlar o‘z qadr-qimmati hamda huquqlarida erkin va teng bo‘lib tug‘iladilar”, 3-moddasiga ko‘ra esa, “Har bir inson yashash, erkin bo‘lish va shaxsiy daxlsizlik huquqlariga egadir”.

Konstitutsiyamizning eng muhim jihatlari inson, uning hayoti, erkinligi, qadr-qimmati, daxlsiz huquqlari va manfaatlarini ta’minlash, erkin va adolatli fuqarolik jamiyatini rivojlantirish hamda demokratik huquqiy davlat qurish bilan bog‘liqdir.



Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning 19-moddasiga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasida insonning huquq va erkinliklari xalqaro huquqning umume’tirof etilgan normalariga binoan hamda ushbu Konstitutsiyaga muvofiq e’tirof etiladi va kafolatlanadi. Inson huquq va erkinliklari har kimga tug‘ilganidan boshlab tegishli bo‘ladi.

Huquqiy demokratik davlatda insonning qadr-qimmati, asosiy huquq va erkinliklarining daxlsizligi, ajralmasligi belgilanishi bilan bir qatorda, ular har kimga tug‘ilganidan boshlab tegishli ekani tan olinadi.

Savol va topshiriqlar

1. Davlat hokimiyatini kimlar amalga oshiradi?
2. Hokimiyatning bo‘linishi prinsipi nima?
3. O‘zbekiston xalqi davlat va jamiyat hayotida qanday ishtirok etadi?
4. Referendum nima, u qanday masalalar yuzasidan tashkil qilinadi?

Mustaqil ish uchun topshiriq

Hokimiyatning bo‘linishi prinsipiga oid jadval yarating. Jadvalda ularning vakolatlarini yoriting.

6-DARS. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KONSTITUTSIYA VA QONUNNING USTUNLIGI

Agar tarbiya va jazo haqidagi qonunlar bo‘lmasa,
davlat faoliyati buziladi va inson huquqlari poymol bo‘ladi.
Voiz Koshifiy

Bilib olasiz

Konstitutsiya va qonun.
Konstitutsiya va qonun ustuvorligini ta’minlash.

Konstitutsiya va qonun



O‘zbekiston Respublikasida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi so‘zsiz tan olinadi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mamlakatning butun hududida oliy yuridik kuchga ega, to‘g‘ridan to‘g‘ri amal qiladi va yagona huquqiy makonning asosini tashkil etadi.

Konstitutsiya mustaqil O‘zbekiston Respublikasi qaror topganligini qonuniylashtirdi va oliy darajadagi qonun sifatida davlatimizning maqsadini, uning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy tuzumini, boshqaruvning demokratik prinsiplarini, jamiyat rivojlanishining strategik yo‘nalishlarini belgilab berdi. Shuningdek, unda shaxsning mustaqilligi, hokimiyatlarning taqsimlanishi, mulkdorlik shakllarining xilma xilligi, mafkuraviy rang baranglik, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy sohalardagi demokratik qadriyatlar konstitutsiyaviy tuzumning prinsiplari sifatida tasdiqlangan hamda fuqarolar huquq va erkinliklari kafolatlangan, ma’naviy qadriyatlarimiz asoslari mustahkamlab qo‘yilgan. Shunday ekan, konstitutsiya jamiyat, davlat, har bir fuqaro hayotida muhim o‘rin tutadigan hujjat hisoblanib, barcha qonunlarning qonuni, bir so‘z bilan aytganda, alifbosidir.

Sohibqiron Amir Temur bobomiz: “Davlat qonunlar asosida qurilmas ekan, unday saltanatning shukuhi, qudrati va tarkibi yo‘qoladi”, deb ta’kidlagan edilar. Shu nuqtayi nazardan, konstitutsiya va qonun ustuvorligini ta’minlash biz bunyod etayotgan demokratik-huquqiy davlatning bosh mezoni hisoblanadi.

Har qanday demokratik islohotlar samarasi, tinchlik va taraqqiyotning asosiy garovi ham konstitutsiya va qonun ustuvorligi ta’minlanishi bilan bevosita bog‘liq.

Yodda tuting!

Konstitutsiyaning eng asosiy xususiyatlaridan biri uning oliy yuridik kuchga ega ekanidir.

Konstitutsiya oliy yuridik kuchga ega deganda qonunchilik hujjatlari tizimida (iyerarxiyasida) eng yuqori o‘rinda turishi hamda uning boshqa har qanday normativ-huquqiy hujjatlardan ustunligi tushuniladi.

Qonun ustuvorligi bu – davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari chiqarayotgan hujjatlar, mansabdor shaxslarning xatti-harakatlari faqat va faqat konstitutsiya hamda qonunlarga muvofiq bo‘lishi shart, deganidir.

Konstitutsiyaning to‘g‘ridan to‘g‘ri amal qilishi – davlat organlari, ularning mansabdor shaxslari, shu jumladan, sudlar tomonidan konstitutsiya normalarini huquqni qo‘llash amaliyotida bevosita qo‘llagan holda qarorlar qabul qilish, fuqarolarning konstitutsiya normalaridan to‘g‘ridan to‘g‘ri foydalanishi va rioya etishini ko‘zda tutadi.



Qonun ustuvorligi, sodda qilib aytganda, qonunlarga rioya etishni anglatadi. Mazkur qarash har qanday rivojlangan davlatning poydevorini tashkil etadi. Sohibqiron Amir Temur: **“Saltanatim martabasini to‘ra va tuzuklar asosida shunday saqladimki, uning ishlariga aralashishga hech bir kimsaning qurbi yetmasdi”,** deb o‘z davlatini qat’i qoidalar, qonunlar orqali boshqarilganini ta’kidlaydi.

Konstitutsiyaning oliy yuridik kuchga ega ekani uning siyosiy-huquqiy hujjatligi, parlamentda qabul qilinishining alohida tartibi mavjudligi yoki umumxalq ovozi (referendum) asosida qabul qilinishi, davlatning ichki va tashqi siyosatining asosiy strategik yo‘nalishlarini, insonning asosiy huquq va erkinliklarini belgilashida ham namoyon bo‘ladi.

Konstitutsiyamizning 16-moddasida “Ushbu Konstitutsiyaning birorta qoidasi O‘zbekiston Respublikasining huquq va manfaatlariga, ushbu Konstitutsiyaning birinchi bo‘limida nazarda tutilgan asosiy prinsip va normalarga zarar yetkazadigan tarzda talqin etilishi mumkin emas. O‘zbekiston Respublikasining qonunlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlari O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi asosida va uni ijro etish yuzasidan qabul qilinadi. Birorta qonun yoki boshqa normativ-huquqiy hujjat Konstitutsiyaning prinsip va normalariga zid bo‘lishi mumkin emas” deb belgilangan. Shuningdek, qonunlar, Oliy Majlis palatalari qarorlari, Prezident farmon, qaror va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari, vazirlik va idoralar buyruqlari hamda qarorlari, qolaversa, mahalliy davlat hokimiyati organlari qarorlari faqat konstitutsiyaga asosan qabul qilinishi kerak, ularda konstitutsiyaga zid birorta norma bo‘lishi mumkin emas.

Konstitutsiya va qonun ustuvorligini ta’minlash

Qonun ustuvorligi xalq hokimiyati va inson huquqlari tushunchalari bilan bevosita bog‘liq prinsipdir. Chunki xalq hokimiyati deganda fuqarolarning qarorlar qabul qilish jarayonida bevosita yoki bilvosita ishtirok etish huquqi tushuniladi. Shu ma’noda xalq irodasining ifodasi bo‘lgan, fuqarolarning parlamentga saylab qo‘ygan vakillari orqali yoki o‘zlari tomonidan bevosita referendum orqali qabul qilingan qonunlar xalq hokimiyatchiligining natijasi, majoziy qilib aytganda, mevasi hisoblanadi. Inson huquq va erkinliklari qonunlar vositasida hayotga joriy etiladi, aslida qonunlarning pirovard maqsadi ham inson, uning huquq va erkinliklarini himoya qilishdan iboratdir.





Xalqaro hujjatlarda qonun ustuvorligining asosiy elementlari quyidagilar:

qonun ijodkorligining shaffof, hisobdorlik va demokratik jarayonni qamrab olgan qonuniylikka asoslanishi;

huquqiy aniqlik;

o‘zboshimchalikning taqiqlanganligi;

mustaqil va xolis, odil sudlovning ochiqligi;

ma’muriy hujjatlar ustidan sud nazoratining o‘rnatilganligi;

inson huquqlarini hurmat qilish va kamsitmaslik hamda qonun oldida tenglik.

Mamlakatimizda qonun ustuvorligini ta’minlashning zarur normativ-huquqiy va tashkiliy institutsional asoslari shakllantirilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining III bobi “Konstitutsiya va qonunning ustunligi” deb nomlanib, mazkur bob Konstitutsiyamizning “Asosiy prinsiplar” bo‘limida joylashgan. Nazariyadan ma’lumki, prinsip deganda rahbariy qoidalar nazarda tutiladi. Agar konstitutsiyaning boshqa bo‘limlari o‘rtasida qandaydir tushunmovchilik kelib chiqadigan bo‘lsa, masala nazariyaga ko‘ra, asosiy prinsiplarga tayanib hal qilinishi kerak. Shu ma’noda qonun ustuvorligining “Asosiy prinsiplar” bo‘limida joylashtirilgani mamlakatimizda mazkur prinsipga alohida ahamiyat berilganidan dalolatdir.

Konstitutsiyaning mazkur bobidagi hamda boshqa normalarida mustahkamlangan qoidalarni tahlil qilish quyidagi fikrlarni keltirib chiqaradi:

birinchidan, O‘zbekiston Respublikasida O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi so‘zsiz tan olinadi.

Ikkinchidan, davlat, uning organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish ko‘radilar.

Uchinchidan, birorta ham qonun yoki boshqa normativ-huquqiy hujjat Konstitutsiya normalari va qoidalariga zid kelishi mumkin emas. Qonun ustuvorligi barcha davlat hokimiyati organlari faoliyatida konstitutsiya, qonunlar oliy yuridik kuchga ega bo‘lib, ularning hokimiyat chiqaradigan boshqa hamma me’yoriy hujjatlar va yo‘riqnomalardan ustun turishi hisoblanadi.

Yodda tuting!

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining muqaddimasida O‘zbekiston xalqi huquqiy davlat barpo etishni ko‘zlagani qayd qilingan. Huquqiy davlatning muhim va ajralmas belgisi qonun ustuvorligi hisoblanadi.

QONUN USTUVORLIGI TAMOYILI

Jamiyat hayotining barcha jabhalarida qonunlarning qat'iy hukmronligini bildirib, yuqorida ta'kidlanganidek, barcha davlat organlari, mansabdor shaxslar va fuqarolarning konstitutsiya va qonunlarga so'zsiz itoat etishida

Ijtimoiy munosabatlarning jamiyat, fuqaro va davlat manfaatlariga mos tarzda tartibga solinganini anglatib, mamlakat miqyosida barqarorlik, batartiblik va qonuniy tartibot muhiti o'rnatilganida

Huquq buzilishi hollarining oldini olish, shuningdek, huquqiy munosabat ishtirokchilari qonunni buzgan taqdirda qonunda belgilangan tartibda, javobgarlikka tortish uchun qonunlarning huquqiy asos vazifasini bajarishida namoyon bo'ladi

Qonun ustuvorligi jamiyatda demokratiya va qonunchilik ta'minlanishiga xizmat qiluvchi tamoyildir. Konstitutsiyaning eng asosiy yuridik xususiyatlaridan biri – uning oliy yuridik kuchga ega ekanidir. Shu bois yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 15-moddasida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi mamlakatning butun hududida oliy yuridik kuchga ega, degan ustuvor qoida belgilandi.

Shu bilan birga, Konstitutsiyaning oliy yuridik kuchi haqida so'z yuritilganda uning "Muqaddima"sidagi "xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsip va normalariga asoslangan" degan tamoyilini ham nazarda tutish lozim.

Qonunchilik hujjatlariga Konstitutsiya, qonunlar, Oliy Majlis palatalari qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon, qarorlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari, vazirlik va idoralar buyruqlari hamda qarorlari, shuningdek, mahalliy davlat hokimiyati organlari qarorlari kiradi.

Konstitutsiyaning oliy yuridik kuchga ega ekani uning siyosiy-huquqiy hujjatligi, parlamentda qabul qilinishining alohida tartibiga ega ekani yoki umumxalq ovozi (referendum) asosida qabul qilinishi, davlatning ichki va tashqi siyosatining asosiy strategik yo'nalishlarini, insonning asosiy huquq va erkinliklarini belgilashida ham namoyon bo'ladi.

Mamlakatda hokimiyatlar bo'linishi prinsipining real joriy etilgani O'zbekistonda konstitutsiya va qonunlar ustunligini ta'minlashning muhim kafolatidir. Unga ko'ra, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati bo'g'inlari konstitutsiya va qonunda belgilangan vakolatlari doirasida faoliyat yuritadi. Ular o'rtasidagi munosabatlarni uyg'unlashtirishda eng oliy hakam qonundir.

Qonun ustuvorligi shaxsga o'z huquq va erkinliklarini moneliksiz amalga oshirish, o'z hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari qonunan kafolatlanganligi tufayli tinch, osoyishta, xotirjam, hech qanday tashqi ta'sirlardan, zo'ravonlik va o'zboshimchalikdan qo'rqmay yashash imkoniyatini beradi.



Yodda tuting!

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq, mamlakat Prezidenti fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarga rioya etilishining, O‘zbekiston Respublikasi suvereniteti, xavfsizligi va hududiy yaxlitligining kafilidir (109-modda).

Qonun ustuvorligi, shuningdek, shaxsga uning uchun majburiy bo‘lgan mazkur hujjatlarni qabul qilish jarayonida uning o‘zi yoki saylab qo‘ygan vakillari orqali ishtirok etish, davlat boshqaruviga ta’sir o‘tkazish, davlat organlarining faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish, o‘z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalarining g‘ayriqonuniy xatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqini ta’minlaydi.

Agar jamiyatda qonun ustuvorligi ta’minlanmasa, odamlarda nafaqat bugungi, balki ertangi kuniga ham ishonch yo‘qoladi, adolat, tenglik, erkinlikka rioya qilinmaydi. Qonun ustuvorligi ta’minlanmagan jamiyatda iqtisod ham rivojlanmaydi, iqtisodiy islohotlar ham samara bermaydi. Chunki hech kim qonun ishlamagan joyga o‘z mulkini, sarmoyasini kiritishni xohlamaydi.

Qonun ustuvor bo‘lgan davlatda erkinlik, adolat, tenglik kafolatlanadi, hokimiyatning shaxsga ta’siri chegaralanadi, inson huquqlari himoyalanadi, mulk huquqiga rioya qilinadi, odil sudlov mustaqil bo‘lib, samarali amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yildagi PF-67-sonli “Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini amalga oshirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni qabul qilindi. Mazkur farmonda yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini so‘zsiz va to‘liq amalga oshirish, unda mustahkamlangan ustuvor prinsiplarni Yangi O‘zbekiston ulug‘vor g‘oyasiga hamohang tarzda ro‘yobga chiqarish, davlat organlarining faoliyatini yangicha konstitutsiyaviy-huquqiy sharoitlarda yo‘lga qo‘yish, fuqarolar o‘z hayotida xalq Konstitutsiyasi ruhini yaqqol his etib turishini ta’minlash mustahkamlandi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyani so‘zsiz va to‘liq amalga oshirish barcha darajadagi davlat organlari va tashkilotlarining birinchi navbatdagi ustuvor vazifasi etib belgilandi.

Yangi Konstitutsiya oliy yuridik kuchga ega ekanidan kelib chiqib, davlat organlari va tashkilotlari, shu jumladan, sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatida to‘g‘ridan to‘g‘ri va so‘zsiz qo‘llanadi.

Mazkur Konstitutsiya normalarini ularni amalga oshirish uchun boshqa qonunchilik hujjatlarining mavjud emasligi yoki qonunchilikka Konstitutsiyaga muvofiq o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilmaganligi vaji bilan qo‘llashni rad etish qat’ian taqiqlanadi.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASI

→ **O‘zbekiston Respublikasida konstitutsiya va qonunlarining ustunligi so‘zsiz tan olinadi**

→ **Birorta ham qonun yoki boshqa normativ-huquqiy hujjat konstitutsiya normalari va qoidalariga zid kelishi mumkin emas**

→ **Davlat, uning organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish ko‘radilar**

Prezidentning bu boradagi faoliyati muhim siyosiy-yuridik ahamiyatga ega. U o‘z farmonlari, qarorlari bilan konstitutsiyaviy tamoyillarning, qonunlarda mustahkamlangan qoidalarning hayotga to‘la joriy etilishi uchun yo‘l ochadi, tegishli huquqiy mexanizmlarni yaratadi.

O‘zbekistonda konstitutsiya va qonunlarning ustunligini ta’minlash uchun tashkiliy-huquqiy kafolatlar va yuridik mexanizmlar muttasil takomillashtirilib, ularning samaradorligini oshirib borish lozim.

Yurtimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarning samarasi, tinchlik va taraqqiyotning asosiy garovi ham konstitutsiya va qonun ustuvorligini ta’minlash bilan bevosita bog‘liqdir. Mamlakatimizda jadal sur’atlar bilan olib borilayotgan o‘zgarish va yangilanishlar negizida, avvalambor, Konstitutsiyamizda belgilangan davlat organlarining xalq manfaatlariga xizmat qilishi lozimligi haqidagi qoidani amalda tatbiq etishdek ezgu maqsad mujassam ekani ham aynan shuni taqozo etmoqda.

Qonun ustuvorligi jamiyatda erkinlik, adolat, tenglik kafolatlanishi, inson huquqlari himoyalanishi, mamlakat iqtisodi barqaror o‘sishi uchun tadbirkorlarda, chet ellik investorlarda mustahkam ishonchni shakllanishining mustahkam garovidir.

Savol va topshiriqlar

1. Konstitutsiya ustuvorligi nimalarda namoyon bo‘ladi?
2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qaysi moddasida qonunlarning ustunligi so‘zsiz tan olinadi deya belgilab qo‘yilgan?
3. Konstitutsiya va qonunning ustunligi deganda nimani tushunasiz?
4. Davlat va uning organlari, boshqa tashkilotlar, mansabdor shaxslar, fuqarolik jamiyati institutlari hamda fuqarolar nimaga muvofiq ish yuritadilar?

Mustaqil ish uchun topshiriq

Quyidagi gaplarni to‘ldiring:

Mamlakatning butun hududida oliy yuridik kuchga ega … .	
Konstitutsiyaning birorta qoidasi … talqin etilishi mumkin emas.	
... konstitutsiyaning prinsip va normalariga zid bo‘lishi mumkin emas.	
Davlatning asosiy qonuni –	
O‘zbekistonda konstitutsiya va qonunlar ustunligini ta’minlashning muhim kafolati –	

Quyida berilgan gaplar ishtirokida esse yozing.

O‘zbekiston Respublikasida konstitutsiya va qonunlarning ustunligi so‘zsiz tan olinadi.
Davlat, uning organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish ko‘radilar.
Birorta ham qonun yoki boshqa normativ-huquqiy hujjat konstitutsiya normalari va qoidalariga zid kelishi mumkin emas.
Qonun ustuvorligi xalq hokimiyati va inson huquqlari tushunchalari bilan bevosita bog‘liq prinsipdir.
Qonun ustuvorligi ta’minlanmagan jamiyatda iqtisod ham rivojlanmaydi, iqtisodiy islohotlar ham samara bermaydi.

7-DARS. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING TASHQI SIYOSATI

Yangi O‘zbekistonning tashqi siyosati, avvalo, xalqimiz, Vatanimiz manfaatlarini har tomonlama hisobga olgan holda amalga oshiriladi.
Shavkat Mirziyoyev

Bilib olasiz

O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosati tushunchasi.
Yangi O‘zbekiston tashqi siyosatining ustuvor yo‘nalishlari.
O‘zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarning to‘la huquqli subyekti.

O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosati tushunchasi



O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyatining bosh maqsadi – davlat mustaqilligi va suverenitetini, xalqaro maydondagi o‘rni va rolini mustahkamlash, yon-atrofida xavfsizlik, barqarorlik va ahil qo‘shnichilik muhitini shakllantirish, respublikaning tashqi iqtisodiy manfaatlarini faol tarzda ilgari surish.

O‘zbekiston davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralarning daxlsizligi, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik;

xalqaro majburiyatlarni vijdonan bajarish, inson huquqlarini hurmat qilish va himoya qilish va xalqaro huquqning boshqa umume’tirof etilgan tamoyillari va normalari;

xavfsizlikning bo‘linmasligi, ochiqlik va pragmatizm, qo‘shni mamlakatlar bilan har tomonlama yaxshi qo‘shnichilik munosabatlarini rivojlantirish, mintaqaviy va xalqaro hamkorlikni mustahkamlash kabi asosiy tamoyillarga tayangan holda tinchlik, taraqqiyot va farovonlik yo‘lida barcha sheriklar bilan hamkorlikni kengaytirishdan manfaatdor.

Tashqi siyosatimizning bosh ustuvor yo‘nalishi Markaziy Osiyo mintaqasidir. O‘zbekistonning Markaziy Osiyodagi siyosati mintaqada tinchlik va barqarorlikni ta’minlashga, mintaqaviy xavfsizlikning muhim muammolarini hal etishga, shu jumladan, Afg‘onistondagi vaziyatni hal qilishga ko‘maklashishga qaratilgan.

O‘zbekiston mintaqa davlatlari bilan do‘stona va ahil qo‘shnichilik munosabatlarini mustahkamlashdan, ilmiy-texnikaviy va madaniy-gumanitar hamkorlikni rivojlantirishdan, parlamentlar, chegara hududlari, jamoat tashkilotlari va oddiy fuqarolar o‘rtasidagi aloqalarni kuchaytirishdan manfaatdor.

MDH mamlakatlari bilan hamkorlik ham O‘zbekiston tashqi siyosatining ustuvor yo‘nalishi hisoblanadi. Mazkur davlatlar bilan respublikamiz tarixan shakllangan siyosiy, iqtisodiy, transport-kommunikatsion va boshqa aloqalarga ega. O‘zbekiston Hamdo‘stlik mamlakatlari bilan tenglik, o‘zaro foydalilik, bir-birining manfaatlarini hurmat qilish va e’tiborga olish tamoyillari asosida ikki tomonlama hamkorlik munosabatlarini mustahkamlashni davom ettiradi.

Yodda tuting!

Tashqi siyosat – davlatning o‘z chegaralaridan tashqarida xalqaro hayotda ishtirok etgan holda xalqaro munosabatlardagi umumiy siyosatini amalga oshirishdan iborat faoliyatidir.

Barcha davlatlar – BMT ishtirokchilari o‘z faoliyatlarida quyidagi prinsiplarga rioya qilish majburiyatini oladilar

- Xalqaro norma va shartnomalarga amal qilish
- Kelishmov-chiliklarni tinch yo‘l bilan tartibga solish
- Kuch bilan xavf solish yoki uni qo‘llashdan tiyilish
- Ichki ishlarga va hamkorlik ishlariga aralashmaslik

Boshqa davlatlar bilan o‘zaro munosabatlardagi o‘z huquq va burchlarini tashqaridan qandaydir tazyiqsiz amalga oshirishga qodir bo‘lgan mustaqil davlatgina xalqaro munosabatlar subyektiga aylanishi mumkin. Xalqaro huquq subyekti bir davlatning boshqa bir davlat ustidan hokimligini tan olmaydi. Bunday davlat o‘zining ichki va tashqi siyosatini amalga oshirish borasida mustaqil bo‘ladi.

O‘zbekiston MDH mamlakatlari, Yevropa Ittifoqi, Xalqaro valyuta jamg‘armasi, Butunjahon banki, Osiyo taraqqiyot banki (OTV), Islom hamkorlik tashkiloti (IHT) va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan faol hamkorlik olib bormoqda.

Hozir dunyoning 150 ga yaqin mamlakati O‘zbekistonni mustaqil davlat sifatida tan olgan. Shunday qilib, davlatimiz dunyo hamjamiyatida xalqaro huquq subyekti sifatida o‘zining munosib o‘rnini egalladi.

Yodda tuting!

O‘zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarning to‘la huquqli subyektidir.

O‘zbekistonning tashqi siyosati davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralarning buzilmasligi, davlatlarning hududiy yaxlitligi, nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik prinsiplariga hamda xalqaro huquqning umume’tirof etilgan boshqa prinsip va normalariga asoslanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 17-modda




Hozirda 193 ta davlat BMT a’zosidir



O‘zbekiston 1992-yil 2-martda BMTga a’zo bo‘lgan

Mustaqillik e’lon qilingan dastlabki kunlardanoq O‘zbekiston Respublikasi dunyo hamjamiyatiga kirish yo‘lini tanladi:



Yangi O‘zbekiston tashqi siyosatining ustuvor yo‘nalishlari

Yangi O‘zbekistonning zamonaviy tashqi siyosiy holati dunyoda va mintaqada shiddat bilan o‘zgarayotgan vaziyat hamda mamlakat ichidagi keng ko‘lamli o‘zgarishlarga asoslanib shakllanmoqda.

Davlatlarning suveren tengligi tamoyili bu – xalqaro huquqning kuch ishlatishni taqiqlash, davlatlarning ichki ishlariga aralashishga yo‘l qo‘yilmasligi, xalqlarning o‘z taqdirini o‘zi belgilash huquqi kabi eng muhim tamoyillarning boshlang‘ich nuqtasidir. Xalqaro huquq va tartibni ta’minlash faqat ishtirokchilarning huquqiy tengligi to‘liq hurmat qilingan holda ta’minlanishi mumkin. Har bir davlat tizimning boshqa ishtirokchilari suverenitetini, ya’ni o‘z hududida qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi, ma’muriy va sud hokimiyatini boshqa davlatlarning aralashuvisiz amalga oshirish, shuningdek, o‘z tashqi siyosatini mustaqil ravishda amalga oshirish huquqini hurmat qilishga majburdir.

Kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik tamoyili – tomonlarning boshqa davlatlarga qarshi bevosita yoki bilvosita kuch ishlatishni ifodalovchi har qanday harakatlardan o‘zini tiyib turishini anglatadi. Bu masala ilk bor Ikkinchi jahon urushi yillarida yuzaga keldi va xalqlarning urushdan keyin xalqaro munosabatlarni adolatli asosda o‘rnatishga bo‘lgan intilishlari va umidlarini aks ettirdi. Bu qonuniyat birinchi marta xalqaro huquq prinsipiga aylandi va BMT nizomida mustahkamlab qo‘yildi.

Chegaralar daxlsizligi tamoyili uch qoida asosida izohlanadi: *birinchidan*, xalqaro huquqiy me’yorlarga muvofiq, yuridik jihatdan belgilangan mavjud chegaralarning tan olinishi; *ikkinchidan*, ayni vaqtda yoki kelajakda har qanday hududiy da’volardan voz kechish; *uchinchidan*, har qanday bosqinchilik harakatlari va tahdidlardan, jumladan, kuch ishlatish yoki kuch bilan tahdid solishdan voz kechish hisoblanadi.

Davlatlarning hududiy yaxlitligi tamoyili BMT nizomi qabul qilinishi bilan o‘z tasdig‘ini topgan. Huquqiy adabiyotlarda hududiy yaxlitlik, hududiy daxlsizlik, hududiy butunlik iboralarini uchratish mumkin. BMT nizomi kuch ishlatish yoki kuch bilan tahdid solish davlatning hududiy yaxlitligi (daxlsizlik) va har qanday davlatning siyosiy mustaqilligiga qarshi qo‘llanishini taqiqlab qo‘ygan. Xususan, har bir davlat: *birinchidan*, boshqa davlatning milliy butunligi va hududiy daxlsizligini qisman yoki to‘la buzilishiga qaratilgan har qanday xatti-harakatdan o‘zini tiyib turishi kerak; *ikkinchidan*, davlatning hududi nizom qoidalarini buzish orqali kuch ishlatish natijasida harbiy bosib olish obyekti bo‘lmasligi lozim.

Nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish tamoyili BMTning barcha a’zolari xalqaro nizolarni xalqaro tinchlik, xavfsizlik hamda adolatga xavf solmaydigan holda tinch yo‘llar bilan hal qiladilar. Ushbu prinsip qator xalqaro shartnoma va bitimlarda belgilab qo‘yilgan. Ularda urush



Xalqaro huquqning umume’tirof etilgan boshqa prinsip va normalariga amal qiladi

usuliga murojaat qilish huquqda chegaralanib, xalqaro nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish vositalari rivojlantirilgan va davlatlar zimmasiga bunday vositalarni qo‘llash majburiyati yuklangan.

Boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik tamoyili xalqaro munosabatlarda umumiy tamoyil sifatida millatlarning o‘z davlatchiligi uchun kurashishlari jarayonida shakllandi. Ilgarigi davrlarda ushbu tamoyil bir oz cheklangan ravishda qo‘llanardi, chunki xalqaro huquq ko‘p holatlarda davlatning ichki ishlariga turli xil aralashuvlar, hattoki qurolli aralashuvlarga ham yo‘l qo‘ya olar edi. Boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik tamoyili hozirgi nuqtayi nazardan umumiy shaklda BMT nizomining 2-moddasi, 7-bandida qayd etilgan bo‘lib, yuqorida tilga olingan xalqaro hujjatlarda ko‘rsatib o‘tilgan. BMT nizomiga muvofiq, BMT hech bir davlatning tub ichki vakolatiga kiruvchi ishlarga aralashish huquqiga ega emas. Bunday taqiqlash nafaqat BMTning o‘ziga, balki xalqaro munosabatlarning barcha ishtirokchilariga ham taalluqlidir.

Yangi O‘zbekiston tashqi siyosatining ustuvor yo‘nalishlari besh yoki oltita tamoyildan iborat emas, ya’ni x*alqaro huquqning umume’tirof etilgan boshqa prinsip va normalariga ham asoslanadi*.

Masalan, **xalqlarning *o‘z taqdirini o‘zi belgilashi tamoyili*** har bir xalqning o‘z taraqqiyot yo‘li va shakllarini erkin tanlay olish huquqining so‘zsiz hurmat qilinishi xalqaro munosabatlardagi asosiy tamoyillardan biri hisoblanadi. Bu xalqlarning o‘z taqdirini o‘zi belgilashi tamoyilida o‘z aksini topgan. BMT nizomining 1-moddasi 2-bandida BMT faoliyatidagi muhim qoidalardan biri “Xalqlarning teng huquqliligi va o‘z taqdirini o‘zi belgilashi tamoyiliga hurmat asosida millatlararo do‘stlik aloqalarini rivojlantirishdir”, deyilgan. Bugungi kunda ushbu tamoyil mustamlaka va qaram mamlakatlardagi muammolarni hal etish chog‘ida asosiy qoida hisoblanadi.

Yodda tuting!

Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) – Yer yuzida tinchlikni mustahkamlash va xavfsizlikni ta’minlash, davlatlarning o‘zaro hamkorligini rivojlantirish maqsadida tashkil etilgan xalqaro tashkilot. 1945-yil 24-oktyabrda tuzilgan.

Shu bilan birga, tashqi siyosatni olib borishdagi asosiy e'tibor siyosiy, savdo-iqtisodiy, ijtimoiy-gumanitar va boshqa sohalarga, shuningdek, O'zbekiston atrofida tinch, barqaror hamda xavfsiz muhitni shakllantirishga qaratilmoqda.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, Prezident Shavkat Mirziyoyev Markaziy Osiyo davlatlari – bizning bevosita qo'shnilarimiz bilan do'stona, yaqin qo'shnichilik va o'zaro manfaatli aloqalarni rivojlantirish hamda mustahkamlashni asosiy ustuvor vazifa sifatida belgilab berdi.

Konstitutsiyamizning 18-moddasida "O'zbekiston Respublikasi davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan ikki va ko'p tomonlama munosabatlarni har taraflama rivojlantirishga qaratilgan tinchliksevar tashqi siyosatni amalga oshiradi. O'zbekiston Respublikasi davlatning, xalqning oliy manfaatlaridan, uning farovonligi va xavfsizligidan kelib chiqqan holda ittifoqlar tuzishi, hamdo'stliklarga va boshqa davlatlararo tuzilmalarga kirishi hamda ulardan chiqishi mumkin", deb belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarning to'la huquqli subyekti

O'zbekiston Respublikasi davlat suverenitetini qo'lga kiritgach, xalqaro munosabatlarning to'la huquqli subyekti sifatida faoliyat yurita boshladi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida yuqorida ko'rsatilgan xalqaro huquq tamoyillarining aksariyati belgilab qo'yilib (17-modda), "xalqaro huquqning boshqa umum tan olingan tamoyil va me'yorlari"ni hurmatlash aytib o'tilgan.

O'zbekiston Respublikasi xalqaro hamjamiyatning ana shu tamoyil va me'yorlariga izchil rioya qilmoqda, xalqaro shartnomalarni ishlab chiqish va qabul qilishda ishtirok etmoqda, ularni bajarmoqda, xalqaro tashkilotlar faoliyatida, jamoa xavfsizligi tuzilmalarida qatnashib kelmoqda. Dunyo davlatlari bilan bir qatorda, yalpi va adolatli tinchlikni ta'minlash, o'zaro manfaatli hamkorlikni o'rnatish, insoniyat oldida turgan umumbashariy muammolarni hal etishda o'z hissasini qo'shmoqda.

O'zbekiston barcha xorijiy hamkorlar bilan o'zaro foydali munosabatlarni rivojlantirishdan manfaatdor bo'lib, asosiy tashqi siyosiy harakatlarini eng muhim sohalarga qaratgan.

Tashqi siyosat sohasida quyidagi eng muhim ustuvor yo'nalishlar shakllantirildi:

– davlat mustaqilligi va suverenitetini mustahkamlash, mamlakatning xalqaro munosabatlarning to'laqonli subyekti sifatida o'rnini, rolini yanada mustahkamlash, rivojlangan demokratik davlatlar qatoriga kirish, O'zbekiston atrofida xavfsizlik, barqarorlik va do'stona qo'shnichilik munosabatlari mintaqasini yaratish;

– O'zbekiston Respublikasining xalqaro nufuzini mustahkamlash, dunyo hamjamiyatiga mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlar to'g'risida obyektiv axborotni yetkazish;

– O'zbekiston tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy faoliyatining me'yoriy-huquqiy bazasini, shunindek, xalqaro hamkorlikning shartnoma-huquqiy asoslarini takomillashtirish.

Umuman, O'zbekistonning tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo'nalishlari barqaror, adolatli va demokratik davlat qurishga, mamlakatning tashqi oshkoraligini ilgari surishga hamda hududiy va ko'p tomonlama o'zaro hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan.



Savol va topshiriqlar

1. Davlatning tashqi siyosiy faoliyati jamiyat hayotining qaysi sohasida va qanday maqsadlarda amalga oshiriladi?
2. Qanday davlat xalqaro munosabatlarning to‘la huquqli subyekti hisoblanadi?
3. O‘zbekiston Respublikasi qaysi xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik olib bormoqda?
4. Ichki va tashqi siyosatning bir-biridan farqi nimada?

Mustaqil ish uchun topshiriq

Quyidagilar asosida esse yozing.

Xalqaro munosabatlarning teng huquqli a’zosi.	
Xalqaro huquq me’yorlari ustuvorligining e’tirof etilishi.	
Tashqi siyosat prinsiplari: • davlatlarning suveren tengligi; • kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik; • chegaralarning daxlsizligi; • davlatlarning hududiy yaxlitligi; • nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish; • boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik.	
O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini 150 ga yaqin mamlakat tan olgan.	
• 1991-yil – MDH	
• 1992-yil – BMT	
• 1993-yil – UNESCO	
• 2001-yil – SHHT	

8-DARS. IJODIY FAOLIYAT

1-topshiriq. Quyidagi vaziyatni o‘rganing va savollarga javob bering.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi oliy yuridik kuchga ega va O‘zbekistonning butun hududida qo‘llanadi. O‘zbekiston Respublikasining qonunlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar Konstitutsiya asosida va uni ijro etish uchun qabul qilinadi hamda uning normalari va prinsiplariga zid bo‘lishi mumkin emas.

Turli normativ-huquqiy hujjatlarning yuridik kuchi bo‘yicha o‘zaro nisbati O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilgan organlarning vakolatlariga va maqomiga, ushbu hujjatlarning turlariga muvofiq belgilanadi.

Ba’zi vaziyatlarda qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar konstitutsiyaga zid bo‘lishi mumkinmi?

Sizningcha, bunday holatda konstitutsiyaning ustunligi tamoyili qanday ta’minlanadi hamda asosiy qonun-qoidalari qay usulda himoya qilinadi?

2-topshiriq. Ijodiy faoliyat.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 4 ta asosiy prinsipini jadvalning chap tomoniga yozing. Jadvalning o‘ng tomonida esa Konstitutsiyaning birinchi bo‘limidagi boblardan bittadan moddani tanlab olish orqali ushbu prinsiplarni tahlil qiling. Bunda ularning mazmuni va ahamiyatini misollar yordamida bayon qiling. Masalan, Konstitutsiyaning 1-bobi “Davlat suvereniteti” deb nomlangan. Mazkur bobning 1-moddasida: “O‘zbekiston – boshqaruvning respublika shakliga ega bo‘lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat”, deyilgan. Shundan so‘ng ko‘rsatilgan normaning mazmunini izohlang.

T/r	Konstitutsiyaning asosiy prinsiplari	Asosiy prinsiplarning mazmuni va ahamiyati
1.		
2.		
3.		
4.		



9-DARS. NAZORAT ISHI

Jadvalli test

Atamalarga mos ta’rifni aniqlang.

1	**Konstitutsiya**	A	Huquq ustuvorligi ta’minlangan, inson va fuqarolarning huquq va erkinliklari kafolatlangan, qonunlar oldida barcha teng bo‘lgan, hech kim qonundan ustun turmaydigan davlat.
2	**Respublika**	B	Kishilarning huquqiy bilim darajasi, huquqni hurmat qilishi va unga rioya etishi.
3	**Referendum**	D	Yuridik kuchga ega bo‘lgan rasmiy hujjat bo‘lib, unda inson va fuqaroning huquq va erkinliklari belgilanadi, davlat boshqaruvi va hududiy tuzilishi, davlat organlarining vakolatlari belgilab qo‘yiladi.
4	**Demokratiya**	E	Diniy tashkilotlar va birlashmalar davlatdan hamda davlat hokimiyati dindan ajratilgan, boshqaruv konstitutsiya va qonun hujjatlari bilan tartibga solinadigan davlat.
5	**Huquqiy nigilizm**	F	Barcha davlat hokimiyati organlari faoliyatida qonunlarning oliy yuridik kuchga ega bo‘lishi.
6	**Qonun ustuvorligi**	G	Yagona davlat bo‘lib, uning alohida ma’muriy-hududiy birliklari bir xildagi huquqlarga ega, butun davlat hududida yagona konstitutsiya, yagona hukumat va yagona qonun hujjatlari amal qiladi.
7	**Davlat suvereniteti**	H	Huquqqa, qonunlarga salbiy, ularni inkor qiluvchi, hurmatsiz munosabatda bo‘lish.
8	**Huquqiy davlat**	I	Davlat hokimiyati tizimi faoliyatining asosiy prinsipi bo‘lib, unga ko‘ra, davlat hokimiyati qonunchilik, ijro etuvchi va sud hokimiyati organlariga bo‘linadi.
9	**Unitar davlat**	J	Fuqarolarning davlatni boshqarishda ishtirok etish usullari orqali davlatni boshqarish. Bu tushuncha ilk bor Qadimgi Yunonistonda vujudga kelgan.
10	**Huquqiy madaniyat**	K	Boshqaruvni amalga oshirishda mamlakat ichkarisida va tashqarisida to‘la-to‘kis mustaqillik.
11	**Hokimiyatlar bo‘linishi prinsipi**	L	Bunday boshqaruv shaklida saylab qo‘yiladigan organlar saylovchilar oldida javobgar bo‘ladi, ular muayyan muddatga saylanadi va davlat hokimiyatini xalq nomidan amalga oshiradi.
12	**Dunyoviy davlat**	M	Umumxalq ovoz berish yo‘li bilan qonunlar qabul qilish va davlat ahamiyatiga molik eng muhim masalalarni hal qilish shakli.

II BOB.
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FUQAROLIGI



10-DARS. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA FUQAROLIKNING UMUMIY QOIDALARI

Odamlar burchlarini unutishga,
huquqlarini eslashga moyil bo‘ladilar.

Indira Gandi

Bilib olasiz

Fuqarolik tushunchasi.
O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul qilish asoslari.

Fuqarolik tushunchasi



Fuqarolik huquqi insonning eng muhim shaxsiy va siyosiy huquqlaridan biridir. Fuqarolik maqomidagi shaxs davlat homiyligi va himoyasida bo‘ladi. Fuqaro va davlat o‘rtasidagi huquqiy munosabatlar ularning o‘zaro huquq va majburiyatlarida aks etadi.

Fuqarolikni olgan shaxs o‘z davlati hududida ham, uning chegarasidan tashqarida ham himoya va homiylik ostida bo‘ladi, fuqarolar uchun belgilangan barcha huquqlardan to‘liq foydalanadi. O‘z navbatida, fuqarolar davlatining qonunlariga rioya qilishi, fuqarolik burch va majburiyatlarini bajarishi shart.

Fuqaro nafaqat hokimiyat organlariga o‘z vakilini saylash, balki ushbu organlarga o‘zi saylanish huquqiga ham ega bo‘lishi mumkin. Fuqaroligi bo‘lmagan shaxs bunday huquqqa ega emas.

Agar harbiy xizmatni o‘tash fuqarolar uchun fuqarolik burchi va majburiyati bo‘lsa, bunday majburiyat fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarga nisbatan qonunan qo‘llanmaydi. Fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar partiyalarga a’zo bo‘lishi, davlat organlarida rahbarlik lavozimlarini egallashi, saylovlarda qatnashishi mumkin emas.

Ammo bu qonun fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning huquqlarini buzadi va ularni kamsitadi degani emas. Fuqarolar va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning huquqlaridagi bunday tafovut tarixan rivojlangan bo‘lib, u barcha davlatlar qonunlariga xosdir.

Chet davlat fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar (apatridlar) xalqaro-huquqiy hujjatlarda shaxsga berilgan barcha asosiy huquqlardan foydalanadilar (saylovlarda ishtirok etish va mamlakat qurolli kuchlarida xizmat qilish huquqi bundan mustasno). Fuqarolar kabi ular ham ushbu davlatning qonunlariga rioya qilishga majburdirlar.

Yodda tuting!

Fuqarolik – shaxsning muayyan davlat bilan doimiy huquqiy aloqasi. Bu shaxs va davlatning o‘zaro huquq va majburiyatlarida ifodalanadi. Shaxs fuqarolikka ega bo‘lgach, davlat uning hamma huquq va erkinliklarini e’tirof etadi, ularning amalga oshishini ta’minlash choralarini ko‘radi. Fuqarolarning manfaatlarini davlat, fuqarolar boshqa mamlakatlar hududida turgan vaqtda ham himoya qiladi, ularga homiylik ko‘rsatadi.



O‘zbekiston Respublikasi hududidagi chet el fuqarolarining va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning huquq va erkinliklari xalqaro huquq normalariga muvofiq ta’minlanadi. Ular O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, qonunlari va xalqaro shartnomalarida belgilangan burchlarni ado etadilar.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 24-modda

O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul qilish asoslari

O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligiga quyidagi hollarda ega bo‘lish mumkin:

- tug‘ilishi bo‘yicha, ya’ni bola qayerda tug‘ilishidan qat’i nazar, agar bola tug‘ilgan vaqtda ota-onasi (yoki ota-onasidan biri) O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi bo‘lsa;
- tug‘ilgan joyidan qat’i nazar, bola asrab olinsa;
- O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul qilinishi va tiklanishi natijasida.

O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul qilish turlari.

O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul qilish quyidagicha amalga oshiriladi:
– umumiy tartibda;
– soddalashtirilgan tartibda;
– alohida tartibda.

O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul qilishning umumiy tartibi.

O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul qilishning umumiy tartibi chet davlat fuqarosiga yoki fuqaroligi bo‘lmagan shaxsga nisbatan quyidagi hollarda amalga oshiriladi, agar u:

a) chet davlat fuqaroligidan chiqishni rasmiylashtirgan bo‘lsa;

b) fuqaroligi bo‘lmagan shaxsga yashash guvohnomasi olingan kundan e’tiboran va O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligiga qabul qilish to‘g‘risidagi iltimosnoma bilan murojaat qilgan kunga qadar O‘zbekiston Respublikasi hududida uzluksiz besh yil davomida doimiy yashab kelayotgan bo‘lsa Bunda, agar fuqaroligi bo‘lmagan shaxs bir yil

Yodda tuting!

Fuqaroligi bo‘lmagan shaxs – O‘zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashab turgan, O‘zbekiston Respublikasining fuqarosi bo‘lmagan va o‘zining chet davlat fuqaroligiga mansubligiga doir dalilga ega bo‘lmagan shaxs.

Chet davlat fuqarosi – O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligiga ega bo‘lmagan, boshqa davlat fuqaroligiga va o‘zining boshqa davlat fuqaroligiga mansubligiga doir dalilga ega bo‘lgan shaxs.

Yodda tuting!

Yashash guvohnomasi – fuqaroligi bo‘lmagan shaxsning yoki chet davlat fuqarosining shaxsini tasdiqlaydigan, O‘zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashashga ruxsat etilganligining tasdig‘i sifatida berilgan hujjat.

Diskriminatsiya ma’lum bir toifadagi fuqarolarning huquqi jinsi, millati, diniy yoki siyosiy e’tiqodi sabab asossiz ravishda cheklanishi yoki kamsitilishidir.

davomida jami bir yuz sakson uch kundan ko‘p bo‘lmagan muddatda O‘zbekiston Respublikasidan tashqariga chiqqan bo‘lsa, O‘zbekiston Respublikasi hududida bo‘lish muddati uzluksiz hisoblanadi;

c) tirikchilikning qonuniy manbayiga ega bo‘lsa;

d) O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga rioya etish majburiyatini o‘z zimmasiga olsa;

e) davlat tilini muloqot qilish uchun zarur darajada bilsa.

O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul qilishning soddalashtirilgan tartibi chet davlat fuqarosi yoki fuqaroligi bo‘lmagan shaxs hisoblangan vatandoshga nisbatan quyidagi hollarda amalga oshiriladi, agar u:

a) O‘zbekiston Respublikasi hududida yashaydigan va O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi bo‘lgan, nasl-nasab shajarasi bo‘yicha to‘g‘ridan to‘g‘ri tutashgan loaqal bitta o‘zidan oldingi qarindoshga ega bo‘lsa;

b) tirikchilikning qonuniy manbayiga ega bo‘lsa;

d) O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga rioya etish majburiyatini o‘z zimmasiga olsa;

e) davlat tilini qonunchilikda belgilangan tartibda muloqot qilish uchun zarur darajada bilsa.

O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul qilish ariza beruvchi chet davlat fuqaroligidan chiqqanligi haqida hujjat taqdim etganidan keyin, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoniga muvofiq amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul qilishning alohida tartibi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti milliy manfaatlardan kelib chiqib, chet davlatlarning fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar (olimlar, sportchilar, yozuvchilar va boshqalar)ni O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul qilishi mumkin.

Savol va topshiriqlar

1. Fuqarolik nima?
2. Sizningcha, fuqarolarning huquqlarini amalga oshirish uchun zarur shart-sharoitlarni kim ta’minlashi kerak?
3. Fuqaro va davlat o‘rtasida qanday munosabatlar paydo bo‘ladi?
4. O‘zbekistonda fuqarolikni olish uchun nazarda tutilgan qonuniy asoslarni sanab o‘ting.
5. Chet davlat fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar muayyan davlat fuqarolari bilan bir xil huquqlarga egami?

Mustaqil ish uchun topshiriq

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidagi fuqarolikka oid normalarni toping va mazmunini tahlil qiling.

11-DARS. FUQAROLARNING SHAXSINI TASDIQLOVCHI HUJJATLAR

Xalq qonunlarga ehtiyoj sezib, ularni puxta o‘rgansa, bu faqat uning o‘ziga foyda keltiradi. Aks holda qonundan ko‘zlangan maqsadga erishib bo‘lmaydi.

Aflotun

Bilib olasiz

O‘zbekiston Respublikasi fuqarosining identifikatsiyalovchi ID-kartasi va chet elga chiqish biometrik pasporti.
Chet el fuqarolarining O‘zbekiston Respublikasidagi huquqiy holati.

O‘zbekiston Respublikasi fuqarosining identifikatsiyalovchi ID-kartasi va chet elga chiqish biometrik pasporti

O‘zbekiston Respublikasi fuqarosining identifikatsiya ID-kartasi – O‘zbekiston Respublikasi hududida egasining shaxsini va O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligini tasdiqlaydigan, ID-karta egasining shaxsiy biografik va biometrik ma’lumotlari kiritilgan elektron tashuvchi qurilma (chip)ga ega bo‘lgan hujjat.

ID-karta ma’lumotlarni yig‘ish punkti tomonidan fuqarolarga quyidagi muddatlarga beriladi:
– bola tug‘ilgan paytdan boshlab bir yoshga to‘lgunga qadar – 2 yil muddatga;
– bir yoshdan 16 yoshgacha – 5 yil muddatga;
– 16 yoshdan – 10 yil muddatga.

O‘zbekiston Respublikasi fuqarosining xorijga chiqish biometrik pasporti – xorijga chiqish hamda O‘zbekiston Respublikasi hududiga kirish, shuningdek, xorijda turish vaqtida egasining shaxsini va O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligini tasdiqlaydigan, pasport egasining shaxsiy biografik va biometrik ma’lumotlari saqlangan elektron axborot tashuvchiga (chipga) ega bo‘lgan hujjat.

Xorijga chiqish biometrik pasporti fuqarolarga quyidagi amal qilish muddatlariga beriladi:
– tug‘ilgan kunidan boshlab bir yoshgacha – ikki yil muddatga;
– bir yoshdan 25 yoshgacha – 5 yil muddatga;
– 25 yoshdan oshgan shaxslarga – 10 yil muddatga.

Shaxsni tasdiqlovchi hujjatlar shaxsning kimligini aniqlash, uning huquqlarini himoya qilish va ijtimoiy hayotda faol ishtirok etish imkoniyatini ta’minlashga xizmat qiladi.



Identifikatsiyalovchi ID-kartasi

Voyaga yetmagan fuqarolar uchun O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligini tasdiqlovchi hujjatlar

16 yoshgacha bo‘lgan bolaning O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligini tasdiqlovchi hujjati quyidagilar:

a) tug‘ilganlik to‘g‘risidagi guvohnoma yoki ma’lumotnoma (bolaning tug‘ilgan joyidan qat’i nazar) – ota-onasidan birining O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligi mavjud ekanligini ko‘rsatuvchi pasporti, identifikatsiyalovchi kartasi yoki boshqa hujjati ko‘rsatilganda;

b) tug‘ilganlik to‘g‘risidagi guvohnoma yoki ma’lumotnoma (bola O‘zbekiston Respublikasida tug‘ilgan taqdirda) – fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar bo‘lgan ota-onaning (yolg‘iz otaning yoki onaning) O‘zbekiston Respublikasida yashash guvohnomasi ko‘rsatilganda.

Chet el fuqarolarining O‘zbekiston Respublikasidagi huquqiy holati

O‘zbekiston Respublikasi hududidagi chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning huquq va erkinliklari xalqaro huquq normalariga muvofiq ta’minlanadi. Ular O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, qonunlari va O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida belgilangan majburiyatlarni o‘z zimmasiga oladilar.

O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 4-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning huquqiy holati to‘g‘risida”gi qonuniga muvofiq ikki yoki undan ortiq davlat fuqaroligiga ega bo‘lgan chet el fuqarolari qaysi davlat fuqaroligiga mansubligi to‘g‘risidagi hujjatlar bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasiga kirgan bo‘lsa, O‘zbekiston Respublikasida o‘sha davlatning fuqarolari hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasida vaqtincha yoki doimiy yashovchi chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar bo‘lish qoidalarini buzganliklari va O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa huquqbuzarliklar uchun ma’muriy yoki jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin. Ularga nisbatan O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ma’muriy chiqarib yuborish ham qo‘llanishi, O‘zbekiston Respublikasi hududiga kirishiga taqiq qo‘yilishi, bo‘lish muddati qisqartirilishi mumkin.

Quyidagilar chet el fuqarolarining shaxsini tasdiqlovchi hujjatlar bo‘lishi mumkin:

a) identifikatsiyalovchi ID-kartasi;

b) yashash guvohnomasi;

c) O‘zbekiston Respublikasida siyosiy boshpana berish to‘g‘risida guvohnoma.

Savol va topshiriqlar

1. O‘zbekiston Respublikasi fuqarosining identifikatsiyalovchi ID-kartasi va chet elga chiqish biometrik pasportining xususiyatlarini sanab o‘ting.
2. Voyaga yetmagan fuqarolarning O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi ekanini qanday hujjatlar tasdiqlaydi?
3. Fuqaroligi bo‘lmagan shaxs yoki chet davlat fuqarosining shaxsini qanday hujjatlar tasdiqlaydi?
4. Fuqaroligi bo‘lmagan shaxs nima deb ataladi?

Mustaqil ish uchun topshiriq

ID-kartada qanday ma’lumotlar keltiriladi? Ota-onangizning ID-kartasini ko‘zdan kechirib, qanday ma’lumotlar mavjudligini bilib oling.

12-DARS. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FUQAROLIGINI TUGATISH VA TIKLASH ASOSLARI

Yaxshi odam yurt tuzar, yomon odam yurt buzar.
Amir Temur

Bilib olasiz

O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligini tugatish asoslari.
O‘zbekiston Respublikasida fuqarolarning huquqiy himoyasi.

O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligini tugatish asoslari

O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligi quyidagi sabablarga ko‘ra yo‘qotilishi mumkin:

a) shaxs chet davlatning harbiy xizmatiga, xavfsizlik organlariga, huquqni muhofaza qiluvchi organlariga, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlariga xizmatga kirganligi oqibatida;

b) xorijda doimiy yashovchi shaxs yetti yil mobaynida uzrli sabablarsiz doimiy konsullik hisobiga turmagan bo‘lsa;

d) shaxs O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul qilish bila turib yolg‘on ma’lumotlar yoki soxta hujjatlarni taqdim etish natijasida amalga oshirilgan bo‘lsa;

e) shaxs chet davlatning foydasini ko‘zlab faoliyat ko‘rsatgan holda yoki tinchlik va xavfsizlikka qarshi jinoyatlar sodir etish yo‘li bilan jamiyat hamda davlat manfaatlariga jiddiy zarar yetkazgan bo‘lsa;

f) shaxs ixtiyoriy ravishda chet davlatning fuqaroligini olgan bo‘lsa;

g) agar shaxs voyaga yetmaganligi sababli xorijiy davlat fuqaroligini tug‘ilishi yoki ota-onasining fuqaroligi bo‘yicha olgan bo‘lsa va yigirma bir yoshga to‘lganida xorijiy davlat fuqaroligidan rasman chiqmagan bo‘lsa.

Yodda tuting!

O‘zbekiston Respublikasining butun hududida yagona fuqarolik o‘rnatiladi. O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligi, unga qanday asoslarda ega bo‘lganlikdan qat’i nazar, hamma uchun tengdir. Qoraqalpog‘iston Respublikasining fuqarosi ayni vaqtda O‘zbekiston Respublikasining fuqarosi hisoblanadi. Fuqarolikka ega bo‘lish va uni yo‘qotish asoslari hamda tartibi qonun bilan belgilanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 22-modda

Quyidagi holatlar O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligi masalalariga oid materiallarni ko‘rib chiqishni tugatish asoslari hisoblanadi:

– shaxsning davlat oldida bajarilmagan majburiyatlari yoki fuqarolar yoxud davlat organlari va boshqa tashkilotlar manfaatlari bilan bog‘liq bo‘lgan uning mulkiy majburiyatlari mavjudligi;

– shaxsning qidiruvda ekanligi;

– agar shaxs ayblanuvchi sifatida jinoiy javobgarlikka tortilgan, sudlangan va jazoni o‘tayotgan bo‘lsa;

– shaxsga nisbatan qonuniy kuchga kirgan va ijro etilishi lozim bo‘lgan sud hukmining mavjudligi;

– bila turib yolg‘on ma’lumotlar yoki soxta hujjatlar taqdim etganlik;

– O‘zbekiston Respublikasining davlat xavfsizligi manfaatlariga zidlik;

– shaxsning vafot etganligi.

Ilgari O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligiga ega bo‘lgan shaxs O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligini tiklash to‘g‘risida iltimosnoma bilan murojaat qilishga haqli. Iltimosnomada O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligini tugatish sabablari ko‘rsatiladi. O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligini bir martadan ortiq qayta tiklashga yo‘l qo‘yilmaydi.

O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul qilish to‘g‘risidagi iltimosnoma yozma shaklda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti nomiga yoziladi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida yashovchi shaxs iltimosnoma yuborish uchun o‘zining doimiy yashaydigan yoki vaqtincha ro‘yxatda turgan joyidagi ichki ishlar organiga, chet elda yashovchi shaxs esa konsullik muassasasiga murojaat qiladi. Uzrli sabablar (kasallik, konsullik muassasasining yo‘qligi) bo‘lsa, notarial tasdiqlangan iltimosnoma ishonchli shaxslar orqali berilishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasida fuqarolarning huquqiy himoyasi

Mamlakatimizda jamiyat hayotining barcha jabhalarida, jumladan, inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta’minlashda keng ko‘lamli demokratik o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan **Prezidentning xalq va virtual qabulxonalarining** ishga tushirilishi bu borada muhim qadam bo‘ldi. Bu chora-tadbirlar **“Xalq davlat hokimiyati organlariga emas, davlat hokimiyati organlari xalqqa xizmat qilishi kerak”,** degan insonparvar g‘oya hayotga to‘liq tatbiq etilishida muhim omil bo‘lmoqda.

BMT Bosh Assambleyasining 75-sessiyasidagi nutqida (2020-yil 23-sentyabr), Prezident Shavkat Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish va inson huquqlarini ta’minlashda parlamentlarning rolini oshirish bo‘yicha maxsus rezolyutsiya qabul qilishni taklif qildi.

2020-yil 23-iyunda **Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining Milliy strategiyasi** qabul qilingan edi. Milliy strategiyada inson huquqlarini himoya qilish va ularga rioya etish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri ekanligi belgilab qo‘yilgan.

O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari uchun **mamlakat Ombudsmanining onlayn qabulxonasi** ishga tushirildi. Qabulxonaga har bir fuqaro internet orqali kirish va ariza berish huquqiga ega. Bu o‘zbekistonliklarga o‘z huquqlari buzilayotgani to‘g‘risida Oliy Majlis vakiliga zudlik bilan xabar qilish imkoniyatini beradi.

O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligi to‘g‘risidagi qonunchilikni buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo‘ladi.

“O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligi to‘g‘risida”gi qonun, 54-modda

O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligini tiklash to‘g‘risidagi iltimosnomaga quyidagilar ilova qilinadi:

a) so‘rovnoma, pasport yoki identifikatsiya ID-karta (yashash guvohnomasi);

b) nikoh tuzilganligi yoki bekor qilinganligi to‘g‘risidagi guvohnoma;

d) agar iltimosnomada ko‘rsatilgan bo‘lsa, bolaning tug‘ilganligi haqidagi guvohnoma va agar mavjud bo‘lsa, bolaning yashash guvohnomasi

e) tirikchilikning qonuniy manbalari mavjudligini tasdiqlovchi hujjat; davlat boji (konsullik yig‘imi) to‘langanligini tasdiqlovchi hujjat.

Hayotiy vaziyat

V. va K. – er-xotin. Ular taklifnoma bilan A. davlat poytaxtiga ishlashga keldi. Voyaga yetmagan ikki nafar farzandi ham ular bilan birga keldi. Ishga joylashgandan so‘ng ular farzandlarini yashash joyidan uncha uzoq bo‘lmagan maktabga yuborishga qaror qilishdi. Biroq sinfdoshlarning hammasi ham chetellik o‘quvchilarni samimiy kutib olishmadi.

Bolalar ushbu davlat tilini yaxshi bilishlariga qaramay, farqli talaffuz bilan gapirganlari uchun ularni masxara qila boshlashdi. Bunga ularning mahalliy bolalarnikidan ajralib turadigan kiyimi va xatti-harakati ham sabab bo‘ldi. Navbatdagi haqoratlardan so‘ng bolalar otasiga shikoyat qildi va u o‘z farzandlariga nisbatan yomon munosabat sababini aniqlash uchun maktabga keldi. Ammo maktab direktori uni tinglashdan bosh tortdi va maktabda ziddiyatli vaziyatni yuzaga keltirgani uchun farzandlarini maktabdan chetlatish to‘g‘risida ko‘rsatma berdi.

Ota-ona maktab direktori ustidan sudga murojaat qildi.

Mazkur masala yuzasidan fikringizni bildiring. Maktab rahbariyatining harakati to‘g‘rimi? Sizningcha, chet el fuqarosi ushbu vaziyatda qanday yo‘l tutishi kerak?

Savol va topshiriqlar

1. O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligidan mahrum qilish asoslarini sanab o‘ting.
2. Qanday sabablarga ko‘ra davlat o‘z mamlakati fuqarolarining fuqarolikdan chiqishini taqiqlash huquqiga ega?
3. O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligini tiklash uchun nima asos bo‘lishi mumkin?
4. Chet el fuqarolarini davlatdan majburan chiqarib yuborishga sabab bo‘ladigan eng keng tarqalgan qonun buzilish holatlari qaysi?
5. O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligi to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun qanday javobgarlik belgilangan?

Mustaqil ish uchun topshiriq

Sizningcha, qaysi hollarda shaxsingizni tasdiqlovchi hujjatlar kerak bo‘lishi mumkin?

13-DARS. CHET ELDA YASHOVCHI VATANDOSHLAR BILAN MUNOSABATLARNI SAQLASH VA RIVOJLANTIRISH

Raiyat ahvolidan ogoh bo‘ldim, ulug‘larni og‘a qatorida, kichiklarni farzand o‘rnida ko‘rdim.

Amir Temur

Bilib olasiz

Chet elda yashovchi shaxslarning O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligini saqlab qolishi. O‘zbekiston Respublikasining o‘z fuqarolariga homiylik qilish kafolati.

Chet elda yashovchi shaxslarning O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligini saqlab qolishi

Hozirgi kunda fuqarolarimiz chet eldagi oliy o‘quv yurtlarida tahsil olmoqda yoki chet elda ishlamoqda. Ular bilan muloqot qilish uchun milliy-madaniy markazlar faoliyat yuritmoqda. Rossiya, AQSH, Turkiya va Markaziy Osiyoning barcha respublikalarida: Afg‘oniston, Tojikiston, Qirg‘iziston, Qozog‘iston, Turkmanistonda ko‘p sonli o‘zbeklar yashaydi.

Xorijdagi konsullik faoliyati O‘zbekiston Respublikasining boshqa davlatlar bilan yaxshi qo‘shnichilik va do‘stona munosabatlarini rivojlantirishga ko‘maklashish, iqtisodiy, savdo, ilmiy-texnik, madaniy va boshqa aloqalarini kengaytirishga qaratilgan.

O‘zbekiston Respublikasi, uning diplomatik vakolatxonalari va konsullik muassasalari O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarini qabul qiluvchi davlat qonunchiligida belgilangan hamda O‘zbekiston Respublikasi va ushbu mamlakat o‘rtasida tuzilgan xalqaro shartnomalarda nazarda tutilgan barcha huquqlardan fuqarolarimiz to‘liq foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lishlari uchun kerakli choralarni ko‘rishlari shart.

“O‘zbekiston Respublikasining xorijda istiqomat qilayotgan vatandoshlar bilan hamkorlik qilish sohasidagi davlat siyosati konsepsiyasi”ga muvofiq quyidagilar chet elda yashovchi vatandoshlar hisoblanadi:

a) O‘zbekiston hududidan tashqarida doimo istiqomat qiladigan yoki ta’lim olish, mehnat faoliyati bilan shug‘ullanish, oilaviy sabablar va boshqa sharoitlardan kelib chiqib vaqtinchalik chet elda yurgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari;

b) xorijga chiqqan va chet el fuqaroligini olgan, Vataniga ma’naviy va madaniy nuqtayi nazardan mansublikni his qilgan hamda O‘zbekiston Respublikasi bilan madaniy-gumanitar, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa aloqalarni rivojlantirishga harakat qilayotgan O‘zbekistondan chiqib ketgan shaxslar va ularning avlodlari;

d) etnik, til va madaniy-tarixiy nuqtayi nazardan o‘zini o‘zbeklar yoki qoraqalpoqlar sifatida identifikatsiya qilgan hamda O‘zbekiston bilan har tomonlama aloqada bo‘lish xohishida bo‘lgan xorijda istiqomat qilayotgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar.

O‘zbekiston xalqini millatidan qat’i nazar, O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari tashkil etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 8-modda

Diplomatik vakolatxonalar va konsullik muassasalari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda vatandoshlarning huquqlarini himoya qiladi. Zarur hollarda esa, agar bu O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga zid bo‘lmasa, O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining buzilgan huquqlarini tiklash choralarini ko‘rishga majburdirlar.

Konsullik mansabdor shaxsi O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda jismoniy va yuridik shaxslarning og‘zaki, yozma yoki elektron shakldagi arizalarini qabul qiladi va ko‘rib chiqadi. Bunda qabul qiluvchi davlatning milliy qonunchiligida nazarda tutilgan huquqlar buzilgan bo‘lsa, konsul fuqaro yoki yuridik shaxsning buzilgan huquqlarini tiklash choralarini ko‘rishi shart.

O‘zbekiston Respublikasi fuqarosining xorijda yashashi O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligining tugatilishiga sabab bo‘lmaydi.

“O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligi to‘g‘risida”gi qonun, 9-modda

Chet elda bo‘lgan vatandoshlarimiz quyidagilarga rioya qilishlari va bilishlari kerak:

– O‘zbekiston Respublikasining Konsullik muassasalari, diplomatik vakolatxonalari telefon raqamlarini;

– o‘zi yashayotgan davlatdagi chet el fuqarosining huquq va majburiyatlarini;

– migratsiya qonunchiligini;

– qabul qiluvchi davlatning milliy xususiyatlari va an’analarini;

– jamoat tartibini.

Agar sizga nisbatan qabul qiluvchi mamlakat qonunlari buzilgan bo‘lsa, unda quyidagicha yo‘l tutishingiz mumkin:

– qabul qiluvchi davlatning huquqni muhofaza qilish organlariga, prokuratura yoki sudga tegishli ariza bilan murojaat qilish;

– ikkinchi ariza voqea sodir bo‘lgan joydagi O‘zbekiston Respublikasining konsullik muassasasiga yuboriladi. Bu sizga keyingi jarayonlarning borishini kuzatish uchun konsullik resurslaridan foydalanish imkoniyatini beradi;

– konsullik davlat nomidan qabul qiluvchi davlatning rasmiy organlariga o‘z fuqarosining huquqlari buzilganligi to‘g‘risidagi masalani qo‘yishga va uni ko‘rib chiqib, aybdorlarni tegishli tartibda jazolashni talab qilishga haqli;

– konsullik xodimi siz bilan shaxsan uchrashganda sizga nisbatan xalqaro huquqning umume’tirof etilgan tamoyillari va normalariga rioya etilganiga ishonch hosil qilishi shart;

– agar O‘zbekiston Respublikasi fuqarosini ushlash, hibsda saqlash, ma’muriy qamoqqa olish yoki ozodlikdan mahrum qilish jarayonlarida huquqlari buzilgan bo‘lsa, konsullik xodimi ularni tiklash uchun o‘z vakolatlari doirasida kerakli choralarni ko‘radi.

O‘zbekiston Respublikasining o‘z fuqarolariga homiylik qilish kafolati

O‘zbekiston Respublikasining vatandoshlar bilan hamkorlik qilish sohasidagi davlat siyosatining asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

– chet eldagi vatandoshlarning huquq va erkinliklarini xalqaro huquqning umume’tirof etilgan tamoyillari va me’yorlariga, istiqomat qilayotgan davlat qonunchiligiga hamda O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga muvofiq amalga oshirishga yordam ko‘rsatish;

– O‘zbekistonning madaniy, ilmiy va ma’naviy merosini keng tarqatish, uni o‘rganish va jahonda targ‘ib etish, vatandoshlar istiqomat qilayotgan mamlakatlarda o‘zbek tili, madaniyati va an’analarini saqlash va rivojlantirishga qaratilgan faoliyatni qo‘llab-quvvatlash;

– O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga, xorijiy davlatlar bilan o‘zaro

manfaatli va do‘stona munosabatlarini o‘rnatishiga va ular tomonidan tashkil etilgan tashkilotlar bilan aloqalarni rivojlantirish va mustahkamlashga hissa qo‘shayotgan vatandoshlarga ko‘maklashish;

– vatandoshlarning O‘zbekiston hududida kasbiy, shu jumladan, tadbirkorlik, sarmoyaviy, ilmiy, ta’lim va madaniy faoliyat bilan shug‘ullanishi uchun qulay huquqiy, ijtimoiy va iqtisodiy sharoitlar yaratish;

– O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy islohotlarni qo‘llab-quvvatlashga, O‘zbekiston Respublikasining xalqaro nufuzini yanada mustahkamlashga ko‘maklashish uchun vatandoshlar salohiyatini jalb qilish.

Migratsiya sabablari: iqtisodiy, vaziyatni o‘zgartirish istagi, o‘z rejalarini amalga oshirish, ta’lim va tibbiyot, ajdodlar yurtiga qaytish.

O‘zbekiston Respublikasi Konsullik muassasalarining asosiy maqsadi O‘zbekiston Respublikasining boshqa davlatlar bilan yaxshi qo‘shnichilik va do‘stona munosabatlarini rivojlantirishga, iqtisodiy, savdo, ilmiy-texnikaviy, madaniy va boshqa aloqalarni kengaytirishga ko‘maklashishdan iborat.

Qiziqarli ma’lumot

Tasavvur qiling, ko‘chada ketyapsiz, do‘kon oynalari va binolarga tikilib qarayapsiz. To‘satdan politsiya sizni hibsga olmoqchi bo‘ldi. O‘zingizni aybdor his qilmayotgan bo‘lsangiz, huquqni muhofaza qilish organlari xodimlariga qarshilik ko‘rsatmang. Sizdan talab qilinadigan har qanday izoh yoki tushuntirishni bering, lekin huquqlaringiz buzilishiga rozi bo‘lmang.

Masalan, agar suhbat malakali tarjimonsiz amalga oshirilsa va bayonnomani o‘zingiz bilmagan tilda imzolashga majbur bo‘lsangiz, uni imzolashdan butunlay voz kechishga haqlisiz. Ammo boshqacha yo‘l tutishingiz, ya’ni imzolangan sahifada quyidagicha eslatma-ogohlantirish qoldirishingiz mumkin:

“Matn menga tarjima qilib berilmadi. Uning mazmuni menga tushunarsiz. Konsullik xodimi bilan uchrashish haqidagi so‘rov inobatga olinmadi. Sana. Imzo”.

Bunday holda ushbu bayonnoma chet el fuqarosining huquqlari buzilganligini tasdiqlovchi hujjatga aylanishi mumkin.

Savol va topshiriqlar

1. Chet elda yashovchi shaxslar O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligini qanday saqlab qolishi mumkin?
2. O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari chet elda muammolarga duch kelsa, O‘zbekiston Respublikasining Konsullik muassasalari va diplomatik vakolatxonalarining konsullik bo‘limlari qanday yordam ko‘rsatishi mumkin?
3. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarida O‘zbekiston Respublikasi o‘z fuqarolariga homiylik qilishi qanday kafolatlangan?
4. Chet elda o‘qiyotgan yoki ishlayotgan O‘zbekiston fuqarolari uchun qanday muammolar paydo bo‘lishi mumkin?
5. Yurtimizdagi va chet eldagi vatandoshlarning qanday milliy-madaniy tashkilotlarini bilasiz?

14–15-DARS. IJODIY FAOLIYAT

Bu darsda berilgan topshiriqdan kelib chiqib, qonun buzilishi holatlari bo‘yicha bo‘lib o‘tadigan sud jarayonini sahnalashtirasiz.

1-topshiriq. Quyidagi vaziyatni o‘rganing va savollarga javob bering.

Yangi yil arafasida M. pirotexnika vositalari foydalanib, qo‘shnisi A. bilan o‘ynab qo‘shnisi Ixtiyor akaning o‘g‘liga tegishli “DAMAS” rusumidagi avtomobiliga zarar yetkazdi. Ixtiyor aka va uning o‘g‘li bundan xabar topib, M. va A.ning ota-onasi bilan bilan gaplashish maqsadida ularning uyiga kelishdi.

Mazkur voqeaga huquqiy baho bering.

1. M. va A.ning qilgan ishiga qanday baho berasiz?
2. Ixtiyor aka va uning o‘g‘li mazkur vaziyatda aslida qanday yo‘l tutishi kerak?
3. Yuqoridagi holatda siz sudya sifatida nima qilgan bo‘lardingiz?

Ish materiallari bilan tanishib chiqing va sud jarayonida sudya, jabrlanuvchi, guvoh, ekspert, ichki ishlar xodimi, advokat yoki ma’muriy javobgarlikka tortilgan shaxs kabilardan qaysi biri sifatida ishtirok etishingizni hal qiling.

Sud jarayoni davomida siz ishga doir faktlarga tayanishingiz kerak. Shuningdek, sodir etilgan huquqbuzarlikka, guvohlarga va jarayonning boshqa ishtirokchilariga bo‘lgan munosabatingizda o‘zingizning badiiy iste’dodingiz va huquqiy bilimingizni ko‘rsatishingiz zarur.

Sud jarayoni ishtirokchilari uchun ko‘rsatmalar

Ishtirokchi shaxslar quyidagi huquqlarga ega:

– ish materiallari bilan tanishish, ulardan ko‘chirma olish, nusxa ko‘chirish, ishtirok etuvchi boshqa shaxslarga savollar berish;

– sud jarayonida yuzaga keladigan barcha masalalar bo‘yicha o‘z dalillarini taqdim etish;

– sud qarori ustidan shikoyat qilish.

Sud majlisini o‘tkazish tartibi

1. Sudyalar sud zaliga kirganda ishtirok etuvchilar o‘rnidan turadi. Sudning hal qiluv qarori tik turgan holda eshitiladi.
2. Ishtirok etuvchi shaxslar tik turgan holda sudga murojaat qiladilar va guvohlik beradilar.
3. Zaldagilarning barchasi sud raisining buyrug‘iga so‘zsiz bo‘ysunadilar.
4. Har bir guvoh boshqa shaxslar ishtirok etmagan holda, alohida so‘roq qilinadi.
5. Raislik qiluvchi fuqarolik protsessi ishtirokchilariga ommaviy ravishda: “Ish bo‘yicha o‘zimga ma’lum barcha ma’lumotlarni sudda aytishga qasamyod qilaman. Faqat haqiqatni, barcha haqiqatni gapiraman, haqiqatdan o‘zga narsani gapirmayman”, deb oshkora qasamyod qilishni taklif etadi.

Sud ishtirokchilari

Kotib:

– ushbu ish bo‘yicha chaqirilganlarning kelgan-kelmagani to‘g‘risida sudga ma’lumotlar beradi;

– sud jarayoni bayonnomasini yuritadi.

Sudya (raislik qiluvchi):

– sud tarkibini e’lon qiladi va ishtirok etuvchi shaxslarga e’tiroz bildirish huquqini tushuntiradi;
– ishtirok etuvchi shaxslarga huquq va majburiyatlarini tushuntiradi;
– sudda so‘roq qilinayotganlarning shaxsini aniqlaydi va ko‘rsatma berishdan bosh tortganlik yoki bo‘yin tovlaganlik uchun javobgarlik to‘g‘risida ogohlantiradi (tilxat asosida). Voyaga yetmaganlar bunday javobgarlik haqida ogohlantirilmaydi;
– sud jarayoni davomida yuzaga kelgan muammolarni hal qiladi, sud zalida tartibni saqlaydi.

Da’vogar:

– buzilgan yoki bahsli huquqlarini himoya qilish uchun guvohlik beradi.

Javobgar:

– tushuntirishlar beradi, dalillarni taqdim etadi, iltimosnomalar beradi;
– himoya qilish huquqini shaxsan yoki advokat yordamida amalga oshiradi;
– sudga qo‘shimcha guvohlarni chaqirishni talab qilishga haqli.

Prokuror:

– ishni sudda ko‘rishda yuzaga keladigan masalalar yuzasidan fikr bildiradi.

Ekspert:

– o‘z xulosasini yozma ravishda taqdim etishi shart;
– agar sud ekspertizani sifatsiz deb hisoblasa, u qayta ekspertiza tayinlashi mumkin.

Guvohlar:

– har bir shaxs alohida so‘roq qilinadi, so‘roq qilinayotgan guvohlar jarayon tugaguniga qadar sud zalida qoladilar;
– sud jarayonida tekshirilayotgan barcha holatlar to‘g‘risida aniq ma’lumot berishga majburdirlar;
– agar ular 16 yoshga to‘lmagan bo‘lsa, sudda o‘qituvchisi yoki ota-onasi ham ishtirok etishi kerak.

Fuqarolik ishini sudda ko‘rib chiqish bosqichlari

1. Sud jarayonining ochilishi *(sudya)*.
2. Jarayon ishtirokchilarining davomatini tekshirish *(kotib)*.
3. Guvohlarni sud majlisi zalidan chiqarish *(kotib)*.
4. Sud tarkibini e’lon qilish va e’tiroz bildirish huquqini tushuntirish *(sudya)*.
5. Ishda ishtirok etuvchi shaxslarga ularning huquq va majburiyatlarini tushuntirish *(sudya)*.
6. Raislik qiluvchi tomonidan ish mohiyatining bayon etilishi *(da’vogarga murojaat qilish bilan tugashi; u o‘z talablarini qo‘llab-quvvatlashi; javobgarga da’vogarning va har ikki tarafning talablarini tan olishi yoki olmasligi, ular da’voni o‘zaro kelishuv bitimi bilan yakunlashni xohlashi yoki xohlamasligi tushuntiriladi).*
7. Da’vogarning tushuntirishi.

8. Prokurorning nutqi *(da’vogar talablarining qonuniyligini rad etish yoki asoslash bilan)*.
9. Guvohlarni so‘roq qilish.
10. Ishni tugatish.
Raislik qiluvchi ishtirok etuvchi shaxslardan ish materiallariga biror qo‘shimcha qo‘shishni xohlash yoki xohlamasliklarini so‘raydi.
11. Sud jarayoni *(prokuror, da’vogar, sudlanuvchining nutqi)*.
12. Hal qiluv qarorini qabul qilish uchun sudning maslahat xonasiga chiqishi.
13. Sud qarorini e’lon qilish *(raislik qiluvchi qaror ustidan shikoyat qilish tartibini tushuntiradi va ushbu ish bo‘yicha sud majlisini yopiq deb e’lon qiladi)*.

2-topshiriq. Ijodiy faoliyat uchun

Oilada, maktabda va do‘stlaringiz bilan munosabatga kirishish jarayonida, o‘z haq-huquqlaringizni bilishda va o‘zgalar huquqlarini hurmat qilishingizda ko‘proq qaysi qonunlarning mavjudligi qo‘l keladi. Fikringizni www.lex.uz sayti ma’lumotlari bilan asoslang.

Mustaqil ish topshirig‘i. Hayotda duch keladigan qonun va qonunosti hujjatlarini jadval ko‘rinishiga keltiring.(***Izoh:*** normativ-huquqiy hujjatlarning nomi va tartibga solish sohasi, qabul qilingan sanasi).

Shundan so‘ng ko‘rsatilgan normaning mazmunini izohlang.

Normativ-huquqiy hujjatlar		
T/r	**Qonun**	**Qonunosti hujjatlar**
1.		
2.		
3.		
4.		



16-DARS. NAZORAT ISHI

Jadvalli test

Atamalarga mos ta’rifni aniqlang.

T/r	Atama		Ta’rifi
1	**Fuqarolik**	A	O‘zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashab turgan, O‘zbekiston Respublikasining fuqarosi bo‘lmagan va o‘zining chet davlat fuqaroligiga mansubligiga doir dalilga ega bo‘lmagan shaxs.
2	**Chet davlat fuqarosi**	B	O‘zbekiston Respublikasi hududida identifikatsiyalovchi karta egasining shaxsini va fuqaroligini, shuningdek, doimiy ro‘yxatga olinganligini tasdiqlaydigan, egasining shaxsiga doir biografik va biometrik ma’lumotlar kiritilgan elektron jismga (chipga) ega bo‘lgan, O‘zbekiston Respublikasi fuqarosiga yoki chet davlat fuqarosiga yoxud fuqaroligi bo‘lmagan shaxsga beriladigan hujjat.
3	**Fuqaroligi bo‘lmagan shaxs**	D	O‘zbekiston Respublikasi hududida tug‘ilgan yoki ilgari uning hududida yashagan, O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligiga ega bo‘lmagan, O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida yashaydigan shaxs va uning nasl-nasab shajarasi bo‘yicha to‘g‘ri tutashgan o‘zidan keyingi qarindoshlari, basharti, agar ularning nasl-nasab shajarasi bo‘yicha to‘g‘ri tutashgan o‘zidan oldingi qarindoshlari O‘zbekiston Respublikasi hududida yashayotgan bo‘lsa hamda O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari bo‘lsa.
4	**Yashash guvohnomasi**	E	Tug‘ilganlik to‘g‘risidagi guvohnoma yoki ma’lumotnoma (bolaning tug‘ilgan joyidan qat’i nazar) – ota-onasidan birining O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligi mavjud ekanligini ko‘rsatuvchi pasporti, identifikatsiyalovchi kartasi yoki boshqa hujjati ko‘rsatilganda.
5	**Identifikatsiyalovchi ID-kartasi**	F	O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligiga ega bo‘lmagan, boshqa davlat fuqaroligiga va o‘zining boshqa davlat fuqaroligiga mansubligiga doir dalilga ega bo‘lgan shaxs.
6	**Vatandosh**	G	Fuqaroligi bo‘lmagan shaxsning yoki chet davlat fuqarosining shaxsini tasdiqlaydigan, O‘zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashashga ruxsat etilganligining tasdig‘i sifatida berilgan hujjat.
7	**O‘n olti yoshga to‘lmagan bolaning O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligini tasdiqlovchi hujjat**	H	O‘zbekiston Respublikasida fuqarolik shaxsning davlat bilan o‘zaro huquqlari, majburiyatlari va javobgarligi yig‘indisida ifodalanadigan hamda inson qadr-qimmati, asosiy huquqlari va erkinliklarini e’tirof etish hamda hurmat qilishga asoslanadigan doimiy siyosiy-huquqiy aloqasini belgilaydi.

III BOB.

INSON VA FUQAROLARNING ASOSIY HUQUQLARI, ERKINLIKLARI VA BURCHLARI



17-DARS. INSON VA FUQAROLARNING ASOSIY HUQUQ VA ERKINLIKLARI

Inson huquqlari va qonun ustuvorligi hurmat qilinmasa,
barqaror tinchlik va rivojlanish bo‘lmaydi.
Jan Eliasson

Bilib olasiz

Inson huquq va erkinliklari tushunchasi.
Inson huquq va erkinliklari tizimi.

Inson huquq va erkinliklari tushunchasi



Inson huquqlari insoniyat tafakkuri va sivilizatsiyasi e’tirof etgan qadriyatdir.

Inson huquqlari insoniyat tarixiy taraqqiyotining umumiy yutug‘i bo‘lish bilan birga, jahon hamjamiyatining dolzarb muammolaridan biriga aylanib qoldi. Insonning shaxsiy daxlsizligini himoya qilish, ekologik xavflardan xoli muhit yaratish, insoniyatga kulfatlar keltiruvchi urush ofatlaridan xalos qilish xalqaro miqyosdagi asosiy maqsadga aylangan.

Shu bois bugun demokratik rivojlanish yo‘lidagi har qanday davlatning konstitutsiyaviy asosini inson huquqlari va erkinliklari tashkil qiladi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ham barchaning qonun oldida tengligi, shaxs manfaatlarining davlat manfaatlariga nisbatan ustuvorligi, davlatning inson va jamiyat farovonligi uchun xizmat qilish majburiyati kabi masalalarga katta e’tibor qaratilgan.

Erkinlik inson uchun oliy ne’mat bo‘lib, uning qonunda taqiqlanmagan har qanday ishni qila olishidir. Inson huquqlari insonning jamiyatda mavjudligi bilan belgilanadigan hamda huquqiy jihatdan mustahkamlab qo‘yilgan tabiiy va buzilmas erkinliklari, yuridik imkoniyatlari yig‘indisi hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ikkinchi bo‘limi inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari masalalariga bag‘ishlangan.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi inson huquqlariga oid quyidagi muhim qoidalarga asoslangan

- Inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish – davlatning majburiyati ekani
- Inson huquqlari va erkinliklari tizimi xalqaro huquq normalariga mos kelishi
- Inson huquqlari va erkinliklari unga tug‘ilganidan boshlab tegishli bo‘lishi va har kimning tengligi
- Fuqarolarning huquq va erkinliklari sud organlari tomonidan himoya qilinishi
- Inson huquqlari va erkinliklarini amalga oshirishda boshqa shaxslarning huquqlarini poymol qilmaslik

Yodda tuting!

Inson va fuqarolarning huquq va erkinliklari deganda davlat tomonidan o‘rnatilib, konstitutsiyada belgilangan, har bir fuqaroga berilgan imkoniyatlardan shaxsiy hayotda, jamoat ishlarida qatnashishda foydalanish tushuniladi.

Inson huquq va erkinliklari tizimi

Qadimgi yunon faylasufi Protagorning “Barcha ashyolarning mezoni insondir” degan fikrining zamirida insonparvarlik g‘oyasi yotadi. Antik davrning ko‘plab olimlari barcha kishilarning tabiatan tengligi g‘oyasini ilgari surganlar, insonlarning ozod kishilar va qullarga bo‘linishiga salbiy munosabatda bo‘lganlar. Bu g‘oyalar o‘z davrida g‘oyaligicha qolib ketgan bo‘lsa-da, o‘rta asrlarda va keyinchalik ilgari surilgan ilg‘or qarashlar, inson huquqlariga oid huquqiy tizimlarning yaratilishiga asos bo‘lib xizmat qildi.

Inson qaysi davlat fuqarosi bo‘lishidan qat’i nazar, dunyoga kelishi bilan tabiiy huquqlarga ega bo‘ladi. Shunday ekan, inson huquqlari tug‘ilish bilan vujudga keladigan tabiiy huquqlarga va davlat tomonidan o‘z fuqarolariga qo‘shimcha ravishda beriladigan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarga bo‘linadi.

Inson huquq va erkinliklari masalasini tushunishimiz uchun ularni guruhlash, tizimlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ikkinchi bo‘limida ifodalangan inson huquq va erkinliklari ham mazmuni va bajarilish sohalari bo‘yicha tizimlashtirilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida inson huquq va erkinliklari mazmuni va bajarilish sohalari bo‘yicha quyidagi tartibda bo‘linadi

1. Shaxsiy huquq va erkinliklar (VII bob, 25–35-moddalar)
2. Siyosiy huquqlar (VIII bob, 36–40-moddalar)
3. Iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik huquqlar (IX bob, 41–53-moddalar)

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlab qo‘yilgan asosiy huquq va erkinliklar “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi” (1948-yil), “Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt” (1966-yil), “Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt” (1966-yil) kabi inson huquqlari bo‘yicha xalqaro shartnomalarga to‘liq mos keladi.

Savol va topshiriqlar

1. Inson huquqlari va erkinliklari deganda nimani tushunasiz?
2. Nima uchun har qanday davlatning konstitutsiyaviy asosini inson huquq va erkinliklari tashkil etadi?
3. Konstitutsiyamizda inson huquq va erkinliklari mazmuni hamda bajarilish sohalari bo‘yicha qanday turlarga bo‘linadi?
4. Inson huquqlarini ta’minlashga qaratilgan qanday xalqaro hujjatlarni bilasiz?

Mustaqil ish uchun topshiriq

Quyidagi tushunchalarni qiyosiy tahlil asosida yoritib bering.

Inson huquqlari	Inson erkinliklari

18-DARS. SHAXSIY HUQUQ VA ERKINLIKLAR

Kechiktirilgan huquq – rad etilgan huquqdir.
Martin Lyuter King

Bilib olasiz

Shaxsiy huquq va erkinliklar tushunchasi hamda tizimi.
Yashash huquqining ta’minlanishi.
Aybsizlik prezumpsiyasi.

Shaxsiy huquq va erkinliklar tushunchasi hamda tizimi



Insonning yashash huquqi, erkinlik huquqi borasidagi g‘oyalar insoniyat tarixining ilk davrlaridayoq shakllana boshlagan. Bunday huquqlar uchun hamma davrlarda, turli jamiyatlarda kurashlar bo‘lgan. Shaxsiy huquq va erkinliklar inson huquqlari tizimida eng muhim o‘rinni egallab, insonning shaxsiy hayotidagi erkinligini ta’minlaydi.

Shaxsiy huquq va erkinliklar o‘z mohiyati bilan har qanday insonning huquqlari hisoblanib, uning qaysi davlat fuqaroligiga mansub ekaniga bog‘liq bo‘lmaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 26-moddasiga ko‘ra, insonning sha’ni va qadr-qimmati daxlsizdir. Hech narsa ularni kamsitish uchun asos bo‘lishi mumkin emas. Hech kim qiynoqqa solinishi, zo‘ravonlikka, boshqa shafqatsiz, g‘ayriinsoniy yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi muomalaga yoxud jazoga duchor etilishi mumkin emas. Hech kim ustida uning roziligisiz tibbiy va ilmiy tajribalar o‘tkazilishi mumkin emas.

SHAXSIY HUQUQ VA ERKINLIKLAR

- Yashash huquqi
- Uy-joy daxlsizligi huquqi
- Erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqi
- Shaxs ma’lumotlarining sir saqlanishi huquqi
- Insonning sha’ni va qadr-qimmati daxlsizligi huquqi
- Turar va yashash joyini tanlash huquqi
- Aybsiz deb hisoblanish huquqi (aybsizlik prezumpsiyasi)
- O‘zbekistondan tashqariga erkin chiqish va qaytish huquqi
- Malakali yuridik yordam olish huquqi
- Fikrlash, so‘z va e’tiqod erkinligi
- Vijdon erkinligi
- O‘z huquqlari hamda qonuniy manfaatlari bilan tanishish huquqi

Yodda tuting!

Qonuniy asoslarda O‘zbekiston Respublikasi hududida bo‘lib turgan har kim mamlakat bo‘ylab erkin harakatlanish, turar va yashash joyini tanlash huquqiga ega, bundan qonunda belgilangan cheklovlar mustasno.

Har kim O‘zbekistondan tashqariga erkin chiqish huquqiga ega, bundan qonunda belgilangan cheklovlar mustasno. O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi O‘zbekistonga to‘sqinliksiz qaytish huquqiga ega.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 32-modda

Shaxsiy huquq va erkinliklar inson tug‘ilgan zahoti ega bo‘ladigan, uning asosiy hayotiy ehtiyojlarini ta’minlaydigan, tabiiy, ajralmas huquqlaridir.

Har kim erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega ekanini ta’minlovchi 27-moddada, shuningdek, hech kim qonunga asoslanmagan holda hibsga olinishi, ushlab turilishi, qamoqqa olinishi, qamoqda saqlanishi yoki uning ozodligi boshqacha tarzda cheklanishi mumkin emasligi, hibsga olishga, qamoqqa olishga va qamoqda saqlashga faqat sudning qaroriga ko‘ra yo‘l qo‘yilishi belgilangan. Shaxs sudning qarorisiz qirq sakkiz soatdan ortiq muddat ushlab turilishi mumkin emasligi qonunlarda mustahkamlab qo‘yilgan. Mazkur normaning mazmuni 1679-yil Angliyada qabul qilingan Xabeas korpus aktiga muvofiq keladi.

Xabeas korpus ingliz jinoyat-protsessual huquqiga tegishli qoida bo‘lib, unga ko‘ra, qamoqqa olingan shaxs yoki uning nomidan boshqa bir fuqaro nima sababdan hibsga olinayotgani yoki qamoqqa olish to‘g‘risidagi hujjat bo‘yicha sudga murojaat qilishi va hibsga olish yoki ushlab turishning qonuniyligini tekshirish uchun maxsus sud qarorini talab qilishi mumkin. Sudning qarori bo‘lmagan taqdirda shaxsni 48 soatdan ortiq ushlab turish mumkin emas.

Shaxsiy huquq va erkinliklar tizimida insonlarning mamlakat bo‘ylab erkin harakatlanishi, turar va yashash joyini tanlash huquqi muhim ahamiyatga ega.

Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanishi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 35-moddasida mustahkamlangan bo‘lib, har kim xohlagan diniga e’tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e’tiqod qilmaslik huquqiga ega.

“O‘zbekiston Respublikasining vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi qonunida O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumini zo‘rlik bilan o‘zgartirish, uning suvereniteti va hududiy yaxlitligiga putur yetkazish, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini kamsitish, urushni, milliy, irqiy, etnik yoki diniy adovatni targ‘ib qilish, fuqarolarning sog‘lig‘i va axloqiga tajovuz qilish, fuqarolar totuvligini buzish, vaziyatni beqarorlashtiruvchi tuhmatdan iborat uydirmalarni tarqatish, aholi o‘rtasida sarosima uyg‘otish hamda shaxs, jamiyat va davlatga qarshi qaratilgan boshqa harakatlar sodir etish maqsadida dindan foydalanishga yo‘l qo‘yilmasligi belgilangan.



Yodda tuting!

O‘zbekiston Respublikasida ta’lim tizimi dindan ajratilgandir.

Har kim diniy ta’lim muassasalarida professional diniy ta’lim olish huquqiga ega.

O‘zbekiston Respublikasining “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi qonuni, 8-modda

Yashash huquqining ta’minlanishi

Yodda tuting!

Yashash huquqi har bir insonning ajralmas huquqidir va u qonun bilan muhofaza qilinadi. Inson hayotiga suiqasd qilish eng og‘ir jinoyatdir.

O‘zbekiston Respublikasida o‘lim jazosi taqiqlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 25-modda

Shaxsning yashash huquqi inson tug‘ilishi bilan vujudga keluvchi, uning biologik mavjudligini ta’minlaydigan va davlat tomonidan muhofaza etiladigan huquqdir.

Insonning eng asosiy va muqaddas huquqi yashash huquqidir. Yashash huquqining ta’minlanishi davlatda demokratiyaning qanday holatda ekanini belgilab beradi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi yashash huquqini kafolatlaydi, unga nisbatan har qanday tajovuz eng og‘ir jinoyat hisoblanadi.

Jinoyatlar ichida eng xavflisi insonni yashash huquqidan mahrum etadigan odam o‘ldirish jinoyati hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 97-moddasiga ko‘ra, qasddan odam o‘ldirish o‘n yildan o‘n besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan, javobgarlikni og‘irlashtiruvchi holatlarda qasddan odam o‘ldirish o‘n besh yildan yigirma besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish yoki umrbod ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida o‘lim jazosining taqiqlanishi inson huquqlarini ta’minlashning mustahkam kafolati hisoblanib, konstitutsiyada nazarda tutilgan insonparvarlik va odillik tamoyillarining izchil ifodasidir.

Yodda tuting!

Yashash huquqi har bir insonning ajralmas huquqidir. Bu huquq qonun bilan himoyalanadi.

Hech kim o‘zboshimchalik bilan insonni yashashdan mahrum qila olmaydi.

Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt, 6-modda

Insonning yashash huquqini mustahkamlovchi xalqaro huquqning umume’tirof etilgan prinsiplari va normalaridan, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qoidalaridan kelib chiqqan holda O‘zbekistonda 2008-yilning 1-yanvaridan o‘lim jazosini bekor qilingan.

Inson hayotida sog‘liqni saqlash, xavfsizlikni ta’minlashga qaratilgan sanitar-gigiyenik, davolash-profilaktik, ijtimoiy-iqtisodiy tizimning huquqiy ta’minlanishi davlatimizda yashash huquqini samarali kafolatlash imkonini beradi.

Aybsizlik prezumpsiyasi

Aybsizlik prezumpsiyasi bu – asossiz ayblash va jazolashning oldini oluvchi tamoyil bo‘lib, aybdorning jinoyati qonuniy tartibda isbot qilinmaguncha u aybsiz hisoblanadi va aybsizligini isbotlab berishga majbur emas. Shaxsning aybsizlik prezumpsiyasi shaxs huquq va erkinliklarining mustahkam kafolati bo‘lib, mazkur tartib jahon tajribasida deyarli barcha mamlakatlar qonunchiligida ifoda etilgan. Aybsizlik prezumpsiyasi tamoyili ilk bor 1789-yilda Fransiyada qabul qilingan Inson va fuqaro huquqlari deklaratsiyasida amalga kiritilgan bo‘lsa-da, O‘rta asrlar islom huquqshunosligida mazkur tamoyil “Aybsizlik – asosiy qoidadir” shaklidagi fiqhiy qoida sifatida e’tirof etilgan.



Mazkur qoida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 28-moddasida mustahkamlangan bo‘lib, unga ko‘ra, jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan shaxs uning aybi qonunda nazarda tutilgan tartibda oshkora sud muhokamasi yo‘li bilan isbotlanmaguncha va sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi bilan aniqlanmaguncha aybsiz deb hisoblanadi. Ayblanuvchi o‘zini himoya qilishi uchun barcha imkoniyatlar ta’minlanadi.

Konstitutsiyamizning mazkur moddasi inson huquqlari bo‘yicha xalqaro huquq normalariga to‘liq mos keladi. Shuningdek, 28-moddada aybdorlikka oid barcha shubhalar, agar ularni bartaraf etish imkoniyatlari tugagan bo‘lsa, gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining yoki mahkumning foydasiga hal qilinishi kerak ekanligi, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi o‘zining aybsizligini isbotlashi shart emasligi va istalgan vaqtda sukut saqlash huquqidan foydalanishi mumkinligi mustahkamlab qo‘yilgan.

Shaxsning aybi isbotlanishi bilan jinoyat e’tirof etiladi. Keyin esa sud hukmi bilan tasdiqlanadi. Demak, sud hukmi qonuniy kuchga kirmay turib shaxsni “qotil”, “poraxo‘r”, “firibgar”, “o‘g‘ri”, “zo‘ravon” va boshqa iboralar bilan atab, uni aybdor shaxs sifatida ko‘rsatib, ijtimoiy tarmoqlarda ma’lumot tarqatish shaxsning konstitutsiyaviy huquqlariga zid hisoblanadi. Agar sudda shaxsning aybi isbotlanmay, u oqlansa, sha’ni, qadr-qimmati kamsitilgan bo‘ladi. Taassufki, bunday holatlar kundalik hayotimizda uchrab turadi. Davlatimiz konstitutsiyasida shaxsning aybsizlik huquqi to‘liq kafolatlangan.

Yodda tuting!

Har bir shaxsning aybi aniqlanmaguncha aybsiz hisoblangani sababli shaxsni hibsga olish zarur deb topilgan hollarda kerak bo‘lmagan har qanday haddan tashqari qattiq choralar qonun bilan taqiqlanishi zarur.

1789-yili Fransiyada qabul qilingan Inson va fuqaro huquqlari deklaratsiyasi, 9-modda

Jinoyat sodir etganlikda ayblangan har bir inson himoya uchun barcha imkoniyatlar ta’minlangan holda, ochiq sud majlisi yo‘li bilan uning aybi qonuniy tartibda aniqlanmaguncha aybsiz deb hisoblanishga haqlidir.

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, 11-modda

Jinoyat sodir etganlikda ayblangan har qanday kishi qonunga muvofiq aybi isbotlanmaguncha begunoh deb sanalish huquqiga ega.

Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt, 14-modda, 2-band

Savol va topshiriqlar

1. Shaxsiy huquq va erkinliklar tushunchasini yoritib bering.
2. Yashash huquqining ta’minlanishi deganda nimani tushunasiz?
3. Xabeas korpus aktining mohiyati nimadan iborat?
4. Aybsizlik prezumpsiyasining qanday ahamiyati bor?

Mustaqil ish uchun topshiriq

Quyidagi shaxsiy huquq va erkinliklarning mohiyatini yoritib bering.

Yashash huquqi	
Erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqi	
Aybsiz deb hisoblanish huquqi	

19-DARS. SIYOSIY HUQUQLAR

Tenglik hukm surgan joyda sotqin,
aldamchi ehtiroslar, g‘am-g‘ussa bo‘lmaydi.
Abu Rayhon Beruniy

Bilib olasiz

Siyosiy huquqlar tushunchasi va tizimi.
Fuqarolarning saylovda teng huquqliligi.
Uyushish va yig‘ilishlar erkinligi huquqi.
Murojaat qilish huquqi.

Siyosiy huquqlar tushunchasi va tizimi

Fuqarolarning jamiyat va davlat hayotida faol bo‘lishida siyosiy huquqlar muhim o‘rin tutadi. Siyosiy huquqlar insonni mamlakat hayotiga faol kiritishga qaratilgan. Siyosiy huquqlar shaxs va jamiyat, fuqaro va jamiyat o‘rtasidagi aloqalarni mustahkamlash uchun sharoit yaratadi.

Siyosiy huquqlar fuqarolarning jamiyat va davlat boshqaruvida, siyosiy hayotida ishtirok etish imkoniyatini ta’minlovchi huquqlardir.

Siyosiy huquqlarning aksariyati shaxsning fuqaroligi bilan bog‘liq bo‘lib, u tegishli davlatning fuqarolariga davlat va jamiyat ishlarini boshqarish imkoniyatini beradi. Shuning uchun ularni ikkita guruhga bo‘lish mumkin: 1) davlat hokimiyati mexanizmining shakllanishi va faoliyatida ishtirok etish huquqlari (saylov huquqi, referendumda ishtirok etish huquqi, murojaat qilish huquqi); 2) jamiyatda ishtirok etish huquqi (birlashish huquqi, namoyish o‘tkazish huquqi).

Siyosiy huquqlar shaxsiy huquqlardan farqli ravishda fuqaroning ommaviy manfaatlarini qamrab oladi. Siyosiy huquqlar eng avvalo davlatni boshqarishda qatnashish, davlat faoliyatiga ta’sir etish imkoniyatini yaratuvchi huquqlar bo‘lgani uchun ularning miqdori, amalga oshirish tartiblari qanday bo‘lishini davlat belgilaydi.

Siyosiy huquqlar orqali davlat hokimiyatini amalga oshirish va davlatning ijtimoiy-siyosiy hayotida ishtirok etish imkoniyati qonun va davlat tomonidan o‘rnatiladi. Siyosiy huquqlar individual yoki jamoaviy bo‘lishi mumkin. Mazkur huquqlarni amalga oshirish natijasida fuqaro hokimiyat vakolatiga ega bo‘lishi mumkin, boshqa fuqarolar esa mazkur hokimiyatni amalga oshirish chegarasini nazorat qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Siyosiy huquqlarning mazmuniga e’tibor qaratilsa, ular boshqa turdagi huquqlardan qator xususiyatlari bilan ajralib turadi.


Siyosiy huquqlarning xususiyatlaridan biri uning davlat bilan bog‘liqligidir. Davlat qanchalik demokratik bo‘lsa, siyosiy huquqlar ko‘proq va ulardan foydalanish kengroq bo‘ladi. Aksincha, davlat nodemokratik bo‘lsa, siyosiy huquqlar doirasi torroq bo‘ladi va mavjud huquqlar ham turli vositalar bilan cheklanadi.

Siyosiy huquqlarning yana bir xususiyati ulardan foydalanish uchun fuqaro muayyan yoshga yetgan bo‘lishi kerakligidir. Misol uchun, O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga ko‘ra, saylash huquqidan 18 yoshga yetgan fuqarolar foydalanishi mumkin.

Yodda tuting!

O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o‘z vakillari orqali ishtirok etish huquqiga ega. Bunday ishtirok etish o‘zini o‘zi boshqarish, referendumlar o‘tkazish va davlat organlarini demokratik tarzda shakllantirish, shuningdek, davlat organlarining faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati vositasida amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 36-modda



Siyosiy huquqlarning boshqa bir xususiyati shundaki, ulardan tegishli huquqiy munosabat yuzaga kelgan davlatning fuqarolari foydalanishi mumkin.

Siyosiy huquqlar muayyan davlat fuqarolari tomonidan amalga oshiriladigan huquq bo‘lgani sababli ularning tizimi (turlari) har bir davlatning milliy qonunchiligi bilan belgilanadi.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida siyosiy huquqlarning quyidagi ko‘rinishlari mustahkamlangan:

– saylov va referendumda ishtirok etish huquqi;

– mitinglar, yig‘ilishlar va namoyishlar o‘tkazish huquqi;

– kasaba uyushmalariga, siyosiy partiyalarga va boshqa jamoat birlashmalariga uyushish, ommaviy harakatlarda ishtirok etish huquqi;

– arizalar, takliflar va shikoyatlar bilan murojaat qilish huquqi;

– davlat xizmatiga kirish huquqi.

Fuqarolarning saylovda teng huquqliligi

Saylovda qatnashish fuqarolarga mamlakatni boshqarishda ishtirok etish imkonini beradi. Fuqarolar bevosita yoki saylanadigan vakillari orqali ushbu imkoniyatni amalga oshiradi. Bu huquq fuqarolar har qanday saylab qo‘yiladigan organlarni saylash yoki tegishli organlarga saylanish huquqiga ega ekani bilan kafolatlangan. Fuqaro shu tariqa hokimiyatga va qabul qilinadigan qarorlarga ta’sir o‘tkazadi. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida saylovda qatnashish huquqi jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o‘z vakillari orqali ishtirok etish, davlat organlarini demokratik tarzda shakllantirish tarzida keltirilgan.

Yodda tuting!

Davlat organlariga hamda tashkilotlariga, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlariga, mansabdor shaxslarga yoki xalq vakillariga murojaat qilish huquqidan foydalanish uchun shaxsdan mazkur davlat fuqarosi bo‘lishi talab etilmaydi. Chet el fuqarosi va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar ham mazkur siyosiy huquq turidan foydalanilishi mumkin.

Yodda tuting!

O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari davlat hokimiyati vakillik organlariga saylash va saylanish huquqiga egadirlar. Har bir saylovchi bir ovozga ega. Ovoz berish huquqi, o‘z xohish-irodasini bildirish tengligi va erkinligi qonun bilan kafolatlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 128-modda

Mamlakatimizda o‘tkaziladigan saylovda faqatgina O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari ishtirok etishlari mumkin. Fuqarolar saylovda bir necha nomzod orasidan faqat bittasini yoqlab ovoz beradilar. Ovoz berishda qatnashish uchun (saylash huquqi) fuqarolar saylov kuni 18 yoshga to‘lgan bo‘lishlari lozim.

Fuqarolar jinsi, irqiy va milliy mansubligi, tili, dinga munosabati, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyi, ma’lumoti, mashg‘ulotining turi va xususiyatidan qat’i nazar, teng saylov huquqiga egadir. Bu saylovda ishtirok etuvchi har bir fuqaro bir ovozga ega bo‘lishini anglatadi.

O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining davlat hokimiyati vakillik organlariga saylanish huquqi ham mavjud.

Uyushish va yig‘ilishlar erkinligi huquqi

Fuqarolarning siyosiy huquqlaridan yana biri bu siyosiy partiyalar, kasaba uyushmalari, turli jamoat birlashmalariga a’zo bo‘lib kirish huquqidir. Mazkur huquq fuqarolarga o‘z qiziqishlari, manfaatlarini birgalikda amalga oshirish, himoya qilish imkonini beradi.



Tashkilot, korxona, muassasalarda fuqarolar o‘zlarining iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish, kasaba uyushmalariga esa mehnat sharoitlarini yaxshilashni yo‘lga qo‘yish, mehnat huquqlarini himoya qilish maqsadida birlashadi.

Siyosiy partiyalarga a’zo bo‘lish uyushish huquqlari orasida alohida o‘rin tutadi. Chunki fuqarolar o‘z siyosiy qarashlari, manfaatlaridagi umumiylik asosida siyosiy partiyalarga birlashadi va ularning faoliyati orqali mamlakat siyosiy hayotida ishtirok etadi.

O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari kasaba uyushmalariga, siyosiy partiyalarga va boshqa jamoat birlashmalariga uyushish, ommaviy harakatlarda ishtirok etish huquqiga egadirlar.

Siyosiy partiyalarda, jamoat birlashmalarida, ommaviy harakatlarda, shuningdek, davlat hokimiyati vakillik organlarida ozchilikni tashkil etuvchi muxolifatchi shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qadr-qimmatini hech kim kamsitishi mumkin emas.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 39-modda

SIYOSIY PARTIYALAR

- O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasi
- O‘zbekiston “Adolat” sotsial-demokratik partiyasi
- Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O‘zbekiston liberal-demokratik partiyasi
- O‘zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi
- O‘zbekiston Ekologik partiyasi

Yodda tuting!

Jamoat birlashmasi o‘z huquqlari, erkinliklarini hamda siyosat, iqtisodiyot, ijtimoiy rivojlanish, fan, madaniyat, ekologiya va hayotning boshqa sohalaridagi qonuniy manfaatlarini birgalikda ro‘yobga chiqarish uchun birlashgan fuqarolarning xohish-irodalarini erkin bildirishlari natijasida vujudga kelgan ixtiyoriy tuzilmadir.

O‘zbekistonda 5 ta siyosiy partiya o‘z faoliyatini olib bormoqda. Partiyalarning ko‘pligi qarashlar, fikrlar xilmaxilligi asosida fuqarolarning o‘ziga mos partiyaga a’zo bo‘lish imkonini yaratadi. Fuqarolar siyosiy partiyaga a’zo bo‘lish orqali prezidentlikka, vakillik organlariga nomzod ko‘rsatish huquqiga ega bo‘ladi. O‘z navbatida, siyosiy partiyalar jamiyat va davlat ishlarida real ishtirok etish imkoniyatini beradi.

Bundan tashqari, fuqarolar jinsi, yoshi, kasbi, qobiliyatiga qarab ham jamoat birlashmalariga uyushishi mumkin. Bular O‘zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar davlat qo‘mitasi, O‘zbekiston yoshlar ittifoqi, “Ijtimoiy fikr” respublika jamoatchilik fikrini o‘rganish markazi, yozuvchilar, bastakorlar, jurnalistlar uyushmalaridir.

Har bir jamoat birlashmasi o‘z faoliyat maqsadlaridan kelib chiqqan holda ish yuritadi. Masalan, ayrimlari inson huquq va erkinliklari masalalari bilan, xayriya tashkilotlari esa eng ehtiyojmand kishilarga moddiy yordam ko‘rsatish bilan shug‘ullanishi mumkin.

Siyosiy huquqlarning yana bir ko‘rinishi yig‘ilishlar, mitinglar va namoyishlar o‘tkazish huquqi hisoblanadi.

Miting – ma’lum bir shaxslar va tashkilotlarning xatti-harakatlari, ijtimoiy-siyosiy voqealarga nisbatan munosabatini oshkora ifodalash maqsadidagi fuqarolarning tinch yig‘ini.

Namoyish – ma’lum bir siyosiy talablarni bildirish maqsadidagi ommaviy yurish.

Yig‘ilish – biror-bir muhim jamoatchilik masalasini birgalikda muhokama qilish uchun fuqarolar ishtiroki.

Fuqarolarning mana shulardagi ishtiroki ularning jamiyat va davlat hayotidagi ijtimoiy faolliklarini namoyon etadi. Bu huquq hukumatga xalqning fikri haqida axborot yetkazib turish, mamlakatda bo‘layotgan jarayonlarda fuqarolar kuzatuvchi sifatidagina ishtirok etmasdan, ularga o‘z munosabatini bildirishi uchun ham zarurdir. Mazkur faoliyat fuqarolarni tashvishlantirayotgan muammolarga hukumat e’tibor qaratishi va tegishli choralarni ko‘rishiga xizmat qiladi. Mitinglar, yig‘ilishlar va namoyishlar O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq tashkil etilishi va o‘tkazilishi lozim.

Murojaat qilish huquqi

Vakolatli organlarga murojaat qilish huquqi shaxslarning davlat va jamiyat ishlarida ishtirok etish shakllaridan biri hisoblanadi. Shaxslarning o‘z huquq va erkinliklarini himoya qilish, mavjud ijtimoiy-huquqiy muammolarni bartaraf etishda murojaat qilish huquqi katta ahamiyatga ega. Mazkur siyosiy huquqning boshqalaridan farqi shundaki, undan nafaqat fuqarolar, balki chet el fuqarolari hamda fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar ham foydalanishi mumkin.

Vakolatli organlarga, shaxslarga murojaatlar arizalar, takliflar va shikoyatlar ko‘rinishida bo‘lishi mumkin.

Fuqarolar o‘z ijtimoiy faolliklarini O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq mitinglar, yig‘ilishlar va namoyishlar shaklida amalga oshirish huquqiga ega. Hokimiyat organlari faqat xavfsizlik nuqtayi nazaridangina bunday tadbirlar o‘tkazilishini to‘xtatish yoki taqiqlash huquqiga ega.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 38-modda

Murojaatlar O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi qonuni bilan tartibga solinib, og‘zaki, yozma yoki elektron shaklda bo‘lishi mumkin.

Murojaatnomada fuqaroning ismi, familiyasi, otasining ismi ko‘rsatilishi, turarjoyi haqida ma’lumot bo‘lishi, ariza, taklif yoki shikoyat mazmuni bayon etilishi kerak. Yozma murojaatnoma murojaat qiluvchining imzosi bilan tasdiqlanadi. Murojaatnomani shaxsiy imzo bilan tasdiqlash imkoni bo‘lmaganda, u boshqa shaxsning imzosi bilan tasdiqlanishi mumkin. Bunda qo‘shimcha ravishda imzo qo‘yuvchi shaxsning familiyasi, ismi va otasi ismi ko‘rsatilgan bo‘lishi kerak.

Bugun mamlakatimizda aholi bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri muloqotni tashkil etish, shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini to‘laqonli himoya qilish maqsadida xalq qabulxonalari hamda virtual qabulxonalar tashkil etilgan.

MUROJAAT TURLARI

Ariza – fuqarolarning o‘z huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini amalga oshirish uchun ko‘mak so‘rab qilgan murojaatlari. Masalan, fuqaroning xorijda davolanish uchun vakolatli organga yordam so‘rab qilgan murojaati.

Taklif – fuqarolarning davlat va jamoatchilik faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalarini ifodalovchi murojaatlar. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligini takomillashtirish yuzasidan fuqarolar tomonidan takliflar berilishi.

Shikoyat – fuqarolarning buzilgan huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini tiklashni talab qiluvchi murojaatlari. Masalan, fuqarolar turarjoyiga yaqin joylashgan dam olish maskanining aholi tungi osoyishtaligini buzayotgani yuzasidan ichki ishlar organlariga berilgan shikoyat.





Hayotiy vaziyat

Saylov kuni fuqaro D. saylov uchastkasiga keldi va ovoz bermoqchiligini aytadi. Uchastka saylov komissiyasi byulleten berish uchun saylovchining shaxsini tasdiqlovchi hujjatni so‘raganda D. hujjati uyda qolib ketganini bildiradi. Shunda komissiya a’zolaridan biri D. uning qo‘shnisi ekanini aytib, unga byulleten beradi. Fuqaro D. ovoz berish kabinasiga kirganidan so‘ng byulletenni qanday to‘ldirishni bilmasligini aytib, komissiya a’zosi bo‘lgan tanishidan yordam so‘raydi.

Ushbu holatda uchastka saylov komissiyasi faoliyatiga huquqiy jihatidan baho bering va saylovchi D.ning harakatlarini izohlang.



Savol va topshiriqlar

1. Siyosiy huquqlarga nimalar kiradi?
2. Turmush sharoitingizni yaxshilash, farovon hayot kechirishda siyosiy huquqlaringizning o‘rni qanday?
3. Saylovda teng huquqlilik qanday amalga oshiriladi?
4. Kasaba uyushmalariga a’zo bo‘lish orqali siz qanday huquqlaringizni amalga oshirasiz?

Mustaqil ish uchun topshiriq

1. O‘z mahallangizdagi mavjud muammolarni bartaraf etish uchun vakolatli organga murojaat loyihasini tayyorlang.

2. Fuqaro T. ichki ishlar idorasiga kelib, o‘z aybini tan olmoqchi ekanini bildiradi. U dehqon bozorida bir necha marta sotuvchilarning mahsulotlarini o‘g‘irlaganini, endi bundan vijdoni qiynalayotganini aytib, uni jazolashlarini so‘rab murojaat qiladi. Ichki ishlar xodimlari fuqaro T. o‘z aybini tan olgani uchun hech qanday surishtiruv o‘tkazmasdan unga o‘g‘irlik bo‘yicha jinoyat ishi qo‘zg‘atishadi.

Ichki ishlar organi xodimlarining harakatlariga huquqiy baho bering.



20-DARS. IQTISODIY VA MADANIY HUQUQLAR

Ishbilarmon mardlik va shijoat sohibi, azmi qat'i, tadbirkor va hushyor bir kishi minglab tadbirsiz, loqayd kishilardan yaxshidir.
Amir Temur

Bilib olasiz

Iqtisodiy huquqlar tushunchasi.
Mulkdor bo‘lish huquqi. Meros huquqi.
Madaniy huquqlar tushunchasi va ulardan foydalanish shakllari.

Iqtisodiy huquqlar tushunchasi



Insonlarning farovon hayot kechirishi, munosib turmush tarziga ega bo‘lishida iqtisodiy huquqlar muhim o‘rin tutadi. Iqtisodiy huquqlarning eng asosiylari xalqaro darajada qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro paktda qayd etilgan. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi inson va fuqaroning asosiy iqtisodiy huquq va erkinliklarini belgilaydi. Ularning mazmuni va ko‘lami esa huquqning boshqa, masalan, fuqarolik, mehnat, tadbirkorlik kabi sohalarida mustahkamlangan.

IQTISODIY HUQUQLAR

- **Mulkdor bo‘lish huquqi**
- **Iqtisodiy faoliyat erkinligi**
- **Tadbirkorlik erkinligi**
- **Meros huquqi**

Iqtisodiy huquqlar davlat tomonidan o‘rnatilib, davlatning iqtisodiy qudrati oshib borishi, imkoniyatlarining ortishi natijasida yanada kengayib boradi. Bu huquqlardan foydalanish orqali fuqarolar o‘z yashash sharoitini o‘zi ta’minlaydi.

Iqtisodiy huquqlar tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarish, ayirboshlash, taqsimlash va iste’mol qilish sohasidagi inson faoliyati erkinligini qamrab oladi, aholining tegishli faolligini va uning bozor erkinligini ta’minlaydi.

Iqtisodiy huquqlar ko‘pincha boshqa huquq va erkinliklarning amalga oshirilishini ta’minlashga xizmat qiladi. Shaxslarning iqtisodiy holatining yaxshiligi ularga berilgan huquq va erkinliklardan samarali foydalanish imkoniyatini ham oshiradi. Iqtisodiy imkoniyatlar farovon turmush tarziga erishishda asosiy o‘rin tutadi.

Iqtisodiy huquqlar jamiyatning iqtisodiy sohalari bilan bog‘liq huquqlar hisoblanadi. Iqtisodiy huquqlarning yana bir ko‘rinishi bank operatsiyalarining, omonatlar va hisob varaqlarning sir tutilishidir. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 41-moddasiga muvofiq, mana shunday sir tutilish qonun bilan kafolatlangan.

Bank siri hisoblanuvchi ma’lumotlar ayrim hollardagina vakolatli organlarning so‘roviga ko‘ra ularga taqdim etilishi mumkin. Lekin ushbu holatlar bank sirini oshkor qilish hisoblanmaydi va ular O‘zbekiston Respublikasining “Bank siri to‘g‘risida”gi qonuni bilan tartibga solingan.

Bank sirini tashkil etuvchi ma’lumotlarning muhofaza qilinishi bank tomonidan kafolatlanadi.
O‘zbekiston Respublikasining “Bank siri to‘g‘risida”gi qonuni, 7-modda

Mulkdor bo‘lish huquqi. Meros huquqi



Mulkdor bo‘lish huquqi jamiyatning iqtisodiy asosini tashkil etadi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq, har bir shaxs mulkdor bo‘lish huquqiga ega hisoblanadi. Shaxsning mol-mulkini hukumat ham, boshqa odamlar ham tortib olishi mumkin emas.

Mulk huquqi konstitutsiya darajasida mustahkamlangani insonga ishonch hamda mustaqillik hissini baxsh etadi. Mol-mulkning daxlsizligi farovon hayot kechirishga xizmat qiluvchi asosiy vositalardandir.

Respublikamizda mulkdor bo‘lish huquqi konstitutsiyadagina belgilanmagan, shu huquqni ro‘yobga chiqaruvchi, aniqrog‘i, kishilarning mulkdor bo‘lishini ta’minlovchi ko‘plab huquqiy hujjatlar qabul qilingan.

Yodda tuting!

Mulkdor bo‘lish huquqi mulkka qanday egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etishni belgilovchi, shuningdek, ushbu vakolatlarni himoya qilishni ta’minlaydigan huquqiy normalar yig‘indisidir.

Mulkdor bo‘lish huquqi mulk bilan bog‘liq uchta huquqni o‘z ichiga oladi. Bular – mulkka egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish huquqi. Mulk egasi o‘z mol-mulkidan qanday foydalanish, shuningdek, uni sotish, hadya qilish yoki almashtirish huquqiga ega.

Mulkdor bo‘lish huquqi
Mulkka egalik qilish
Mulkdan foydalanish
Mulkni tasarruf etish

Mulkdor o‘z mulkini muayyan faoliyat bilan shug‘ullangan holda ko‘paytirishi ham mumkin. Bunday qo‘shimcha ravishda olib boriladigan faoliyat turi albatta qonun bilan ruxsat etilgan bo‘lishi lozim. Taqiqlangan faoliyat turlari bilan shug‘ullanish mulkdorga nisbatan qonunda belgilangan tartibda chora ko‘rilishiga sabab bo‘ladi.

Yodda tuting!

Mulk huquqi mutlaq emas va ba’zi hollarda qonun bilan cheklanishi mumkin. Masalan, ayrim mamlakatlarda atrof-muhitni muhofaza qilish yoki qonuniylikni ta’minlash maqsadida yerga egalik huquqini cheklovchi qonunlar mavjud.

Shaxslarning mulk bilan bog‘liq faoliyat turlari O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi bilan batafsil tartibga solingan.

Insonlarning mulk bilan bog‘liq munosabatlarida meros huquqi alohida o‘ringa ega. Meros huquqi muayyan shaxsning vafotidan so‘ng unga tegishli bo‘lgan huquq va majburiyatlar merosxo‘rlariga uning vasiyatiga yoki qonunga

Har bir shaxs mulkdor bo‘lishga haqli.
Bank operatsiyalarining, omonatlarning va hisobvaraqlarning sir tutilishi, shuningdek, meros huquqi qonun bilan kafolatlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 41-modda

muvofiq o‘tkazilishini tartibga soladi. Merosga ega chiqadiganlar “merosxo‘rlar” deb ataladi. Fuqaroning vafotidan keyin vorislariga o‘tadigan mol-mulki “meros” mulki hisoblanadi.



Demak, merosga nisbatan vorislik ikki xil usulda vujudga keladi:

– vasiyatnoma bo‘yicha vorislik;

– qonun bo‘yicha vorislik.

Fuqaroning o‘ziga tegishli mol-mulkni yoki bu mol-mulkka nisbatan huquqini vafot etgan taqdirda tasarruf etish xususidagi xohish-irodasi vasiyat deb e’tirof qilinadi.

Vasiyatnoma vasiyat qiluvchi o‘z merosxo‘rlarini va ularga merosni berish tartibini belgilaydigan hujjatdir.

Fuqaro o‘ziga tegishli bo‘lgan barcha mol-mulkini yoki uning bir qismini nafaqat merosxo‘rlarga, balki merosxo‘r hisoblanmaydigan shaxslarga, tashkilotlarga, davlatga yoki fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlariga ham vasiyat qilib qoldirishi mumkin.

Merosni olish majburiy emas, balki ixtiyoriydir. Merosxo‘r meros ochilgan kundan e’tiboran istalgan vaqtda unga qoldirilgan merosdan voz kechishga haqli. Biroq merosdan voz kechganidan so‘ng keyinchalik merosni olmoqchi bo‘lsa, u bunga haqli bo‘lmaydi.

Agar vafot etgan shaxs o‘ziga tegishli mol-mulkni merosxo‘rlarga taqsimlash bo‘yicha vasiyatnoma qoldirmagan bo‘lsa, merosni taqsimlash meros qoldiruvchi fuqarosi bo‘lgan yoki doimiy yashagan davlat qonuni bilan taqsimlanadi.

Vasiyatnoma joyi va vaqti ko‘rsatilgan holda albatta yozma ravishda tuziladi hamda notarius tomonidan belgilangan tartibda tasdiqlangan bo‘lishi lozim. Vasiyatnomaga qo‘yiladigan talablardan biri uning meros ochilgunga qadar sir saqlanishi lozimligidir.

Yodda tuting!

Notarius, vasiyatnomani tasdiqlovchi boshqa mansabdor shaxs, shuningdek, vasiyat qiluvchining o‘rniga vasiyatnomani imzolagan fuqaro meros ochilgunga qadar vasiyatnomaning mazmuniga, uning tuzilishi, bekor qilinishi yoki o‘zgartirilishiga daxldor ma’lumotlarni oshkor qilishga haqli emas.

Madaniy huquqlar tushunchasi va ulardan foydalanish shakllari

Har bir inson rivojlanishi, ma’naviy ozuqa olishi, barkamollikka erishishida ijod qilish, turli madaniy yutuqlardan foydalanish muhim hisoblanadi.

Madaniy huquqlar madaniy xilmaxillikni va jamiyat rivojlanishini ta’minlaydi, shuningdek, madaniy merosni saqlashga yordam beradi.

Madaniy huquqlar shaxsning madaniy boyliklardan foydalanish va yaratish, madaniy hayotda ishtirok etish erkinligini ta’minlaydigan huquqlardir.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga ko‘ra, har kim ilmiy, texnikaviy va badiiy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqiga egadir. Ijod – sifat jihatidan yangi moddiy va ma’naviy qadriyatlarni yaratish jarayoni. U erkin bo‘lib, huquq mazkur erkinlikni kafolatlaydi. Inson o‘zi istagancha ijod qilishi mumkin. Ammo ijodkorlik natijasi muayyan shaklga ega bo‘lishi bilanoq ushbu ijod natijasining huquqiy maqomini belgilaydigan, muallifining huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qiladigan normalar ishga tushadi. O‘zbekiston Respublikasida shaxslarning ijodiy ishlari “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida”gi, “Ixtirolar, foydali

MADANIY HUQUQLARNI AMALGA OSHIRISH SHAKLLARI

Madaniy hayotda ishtirok etish	Ilmiy taraq-qiyot nati-jalaridan foydalanish	Ilmiy, texnikaviy va badiiy ijod erkinligi	Madaniy meros-dan erkin foydalanish	Madaniy an'ana va urf-odatlarni saqlash va ulardan foyda-lanish

Har kimga ilmiy, texnikaviy va badiiy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanadi. Intellektual mulk qonun bilan muhofaza qilinadi.

Davlat jamiyatning madaniy, ilmiy va texnikaviy rivojlanishi haqida g'amxo'rlik qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 53-modda

modellar va sanoat namunalari to'g'risida"gi qonunlar bilan muhofaza qilinadi.

Intellektual mulk huquqi mualliflik huquqlari, patentlar, tovar belgilari, sanoat namunalari va intellektual mulkni himoya qilishning boshqa shakllarini o'z ichiga oladi. Intellektual mulk mualliflarga o'z ishlari uchun mukofot olish imkonini beradi va ularni noqonuniy foydalanishdan himoya qiladi.

Hozirgi axborot texnologiyalari rivojlangan davr bir tomondan intellektual mulkni himoya qilishi imkoniyatlarini oshirsa, ikkinchi tomondan undan noqonuniy foydalanuvchilar sonining ortishiga ham yordam beradi. Bunga ijtimoiy tarmoqlar orqali yangi yaratilgan ijod namunasining hali taqdimoti bo'lmasdan tarqalib ketish holatini misol qilib keltirish mumkin. Intellektual mulkni himoya qilish jahon miqyosida ahamiyatga ega bo'lib, mazkur masalalar bilan Jahon intellektual mulk tashkiloti shug'ullanadi.

WIPO

Jahon intellektual mulk tashkiloti

Yodda tuting!

Ixtirolar, ilmiy kashfiyotlar, adabiy asarlar, musiqiy asarlarni yaratish kabi ijodiy faoliyat natijalari intellektual mulk hisoblanadi.

Hayotiy vaziyat

Fuqaro B. chet eldan kelgach, otasidan uy meros qolganidan xabar topadi. Uyni ko'rgach, "U juda eski ekan, menga kerak emas", deb merosdan voz kechadi. B.ning ukasi D. notarius orqali uyni o'zining nomiga rasmiylashtirib oladi. D. uyni baholatadi. Uyni mashhur me'mor qurgani sababli narxi yuqori chiqadi. Bundan xabar topgan B. notariusga borib, merosni qaytarib olmoqchiligini aytadi.

Ushbu holatda notarius qanday yo'l tutishi lozim?



Savol va topshiriqlar

1. Iqtisodiy huquqlarga nimalar kiradi?
2. Mulk huquqi egalik qilish, foydalanish va tasarruf qilishdan iborat. Ularning farqlari nimada?
3. Meros qoldiruvchi yozma ravishda vasiyat qoldirmagan bo‘lsa, meros taqsimoti qanday amalga oshiriladi?
4. Intellektual mulk deganda qanday mulklar nazarda tutiladi?

Mustaqil ish uchun topshiriq

1. Madaniy huquqlardan foydalanishga misollar keltirib, quyidagi jadvalni to‘ldiring.

№	Huquqni amalga oshirish shakli	Misollar
1.	Madaniy hayotda ishtirok etish	
2.	Ilmiy taraqqiyot natijalaridan foydalanish	
3.	Ilmiy, texnikaviy va badiiy ijod erkinligi	
4.	Madaniy merosdan erkin foydalanish	
5.	Madaniy an’ana va urf-odatlarni saqlash va ulardan foydalanish	



www.idum.uz saytidan yuklab olindi

21-DARS. IJTIMOIY HUQUQLAR

Ilmni kim vositayi joh etar,
O‘zini-yu xalqni gumroh etar.
Alisher Navoiy

Bilib olasiz

Ijtimoiy huquqlar tushunchasi va tizimi.
Mehnat qilish huquqi va bandlik.
Ijtimoiy ta’minot olish va uy-joyga bo‘lgan huquq.
Ta’lim olish huquqi.


Ijtimoiy huquqlar tushunchasi va tizimi

Konstitutsiyamizda O‘zbekiston Respublikasi ijtimoiy davlat sifatida belgilangan. Ijtimoiy davlatning asosiy belgisi shaxs manfaatlari davlat manfaatlaridan ustun bo‘lishidir. Ijtimoiy davlatda har bir insonning munosib hayot kechirishini ta’minlash, betoblik, qarilik, ishsizlik yoki insonga bog‘liq bo‘lmagan boshqa turli holatlarda ularni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan sharoit yaratilishi lozim. Mana shunday imkoniyat va sharoitlar avvalo shaxslarning ijtimoiy huquqlarini qonunchilikda mustahkamlash va ularni amalga oshirishga ko‘maklashishda namoyon bo‘ladi.



Ijtimoiy huquqlar – fuqarolarning ijtimoiy himoyasi va farovonligini ta’minlaydigan huquqlar.

Ijtimoiy huquqlar demokratik jamiyatning ajralmas qismi bo‘lib, barcha fuqarolar uchun teng imkoniyatlar yaratilishiga xizmat qiladi. Ta’lim, sog‘liqni saqlash, ijtimoiy ta’minot, uy-joy, mehnat va ish bilan ta’minlanish, dam olish huquqi kabilar shaxslarning munosib hayot kechirish, ijtimoiy jihatdan rivojlanish, davlat g‘amxo‘rligi ostida bo‘lishiga qaratilgan huquqlardir. O‘zbekiston Konstitutsiyasidagi ijtimoiy huquqlar doirasi, qo‘llanish tarzi, belgilangan qoidalar xalqaro hujjat normalariga va ulardagi talablarga mosdir. Shaxslarning asosiy ijtimoiy huquqlari doirasi O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida keltirib o‘tilgan.



www.idum.uz saytidan yuklab olindi

Mehnat qilish huquqi va bandlik

Mehnat qilish huquqi har bir shaxsning tanlagan kasbi, faoliyat turi bo‘yicha daromad ishlab topishga bo‘lgan huquqi hisoblanadi. E’tibor qaratiladigan bo‘lsa, mehnat daromadlar manbayidir. Shu bois ham ba’zida mehnat qilish huquqi shaxslarning iqtisodiy huquqlaridan biri sifatida ham tushuntiriladi.

> Har kim munosib mehnat qilish, kasb va faoliyat turini erkin tanlash, xavfsizlik va gigiyena talablariga javob beradigan qulay mehnat sharoitlarida ishlash, mehnati uchun hech qanday kamsitishlarsiz hamda mehnatga haq to‘lashning belgilangan eng kam miqdoridan kam bo‘lmagan tarzda adolatli haq olish, shuningdek, ishsizlikdan qonunda belgilangan tartibda himoyalanish huquqiga ega.
>
> **O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 42-modda**

Har kim mehnat huquqlarini amalga oshirish va himoya qilishda teng imkoniyatlarga ega. Shaxslar o‘zlari xohlagan kasb va faoliyat turini erkin tanlashlari mumkin. Lekin bu degani barcha o‘zi istagan faoliyat turi bilan shug‘ullanishini anglatmaydi. Chunki ayrim faoliyat turlarida yosh, malaka, xavfsizlik bilan bog‘liq talablar mavjud. Bundan tashqari, 18 yoshga to‘lmagan shaxslarning mehnatidan foydalanish taqiqlangan ish turlari mavjud. Ular sog‘liq uchun zararli bo‘lgan mehnat sharoitiga ega.

Ish joyini tanlash ish beruvchiga bevosita murojaat qilish yoki mehnat organlarining, xususiy bandlik agentliklarining yordamidan foydalangan holda amalga oshirilishi mumkin.

Ishga qabul qilish yoshi va talablar		
Yosh	Faoliyat turi	Talablar
16 yosh	Umumiy tartibda	Umumiy tartibda
15 yosh	– o‘quvchilarning sog‘lig‘iga hamda ma’naviy kamol topishiga ziyon yetkazmaydigan; – o‘qitish jarayonini buzmaydigan; – yengil mehnat.	– o‘qishdan bo‘sh vaqtida; – ota-onadan birining yozma roziligi bilan.
15 yoshdan kichik	– teatr; – televideniye; – radioeshittirish; – professional sport bilan shug‘ullanish; – asarlar yaratish; – ijro etish; – ko‘rgazmaga qo‘yish.	– ota-onaning har ikkisi roziligi; – vasiylik va homiylik organining ruxsati bilan.

Majburiy mehnat – biror-bir jismoniy shaxsga jazoni qo‘llash tahdidi ostida, uning ixtiyoriga qarshi ravishda muayyan ishni bajartirish.

Mehnat qilish erkin bo‘lib, hech kim o‘z xohishiga qarshi muayyan bir ishni qilishga majburlanishi mumkin emas.

Ko‘rinishidan majburiy mehnatni eslatuvchi ishlar ham borki, ular muayyan mezonlardan kelib chiqqan holda Konstitutsiyamiz va xalqaro qoidalarga ko‘ra majburiy mehnat deb hisoblanmaydi:

– harbiy xususiyatga ega bo‘lgan ishlar;

– bajarilishiga favqulodda yoki harbiy holat joriy etilishi sabab bo‘ladigan ishlar;
– sudning qonuniy kuchga kirgan qarori bo‘yicha jazo sifatida bajariladigan ishlar.

Konstitutsiyamizga kiritilgan yangiliklardan biri bu bolalar mehnatining taqiqlanishidir.

Bolalar mehnatining bolaning sog‘-lig‘iga, xavfsizligiga, axloqiga, aqliy va jismoniy rivojlanishiga xavf soluvchi, shu jumladan, uning ta’lim olishiga to‘sqinlik qiluvchi har qanday shakllari taqiqlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 44-modda

Bolalar mehnati deganda bolalarni bolalikdan mahrum etadigan, ularning maktabga borish-lariga to‘sqinlik qiladigan hamda ularni aqliy, jismoniy, ijtimoiy va axloqiy jihatdan zararli bo‘l-gan har qanday mehnat shakli orqali ekspluatatsiya qilish tushuniladi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan, 18 yoshga to‘lmagan shaxslar mehnatidan foydalanish taqiqlangan ishlarning ro‘yxati tuzilgan. Ushbu ishlar bolalar uchun og‘ir hamda zararli yoki xavfli mehnat sharoitlariga ega bo‘lgani uchun ro‘yxatga kiritilgan. Masalan, bo‘yoqchi, temirchi, novvoy, kon ishchisi, muzqaymoq tayyorlovchi va boshqalar.

Fuqarolarni ish o‘rinlari bilan ta’minlash har bir davlatdagi muhim masalalardan biri hisob-lanadi. Chunki har yili minglab bitiruvchilar mehnat bozoriga kirib boradi. Bu esa davlat oldiga yangi ish o‘rinlarini yaratish vazifasini qo‘yadi. Biroq hammani ish bilan to‘liq band qilishning imkoni yo‘q. Shu sabab davlat ishsiz fuqarolarni ijtimoiy jihatdan himoya qilishni o‘z zimma-siga oladi.

Mehnat huquqining amal qilishi natijasida ko‘plab mehnat munosabatlari vujudga keladi, ya’ni ishga kirish, normal tartiblarda ishlash, mehnatni muhofaza qilish, ishdan bo‘shash yoki bo‘shatish va boshqalar. Mazkur muno-sabatlar O‘zbekiston Respublikasining Meh-nat kodeksi bilan tartibga solinadi.

Davlat fuqarolarning bandligini ta’min-lash, ularni ishsizlikdan himoya qilish, shu-ningdek, kambag‘allikni qisqartirish chora-larini ko‘radi. Davlat fuqarolarning kasbiy tayyorgarligini va qayta tayyorlanishini tashkil etadi hamda rag‘batlantiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 43-modda

Ijtimoiy ta’minot olish va uy-joyga bo‘lgan huquq



Ijtimoiy ta’minot olish huquqi shaxslarning asosiy ijtimoiy huquqlaridan biri hisoblanadi. Shaxs yosh o‘tishi bilan muay-yan kasallik, mayib bo‘lish natijasida mehnat qobiliyatini yo‘qo-tishi mumkin. Muayyan bir shaxs kimningdir qaramog‘ida bo‘lib, asosiy boquvchi vafot etishi natijasida yoki boshqa sabablar bilan qaramog‘idagi shaxslarni ta’minlay olmay qoladi. Mana shunday vaqtlarda davlat ularni ijtimoiy jihatdan himoya qilish choralarini ko‘radi.

Shaxslarning ijtimoiy ta’minoti pensiyalar, nafaqalar yoki boshqa ijtimoiy moddiy yordam orqali amalga oshiriladi.

Pensiya va nafaqalarning 3 turi mavjud: yoshga doir, nogironlik, boquvchisini yo‘qotganlik. Pensiya yetarli ish stajiga ega bo‘lgan fuqarolar uchun, nafaqa esa yetarli ish stajiga ega bo‘l-magan fuqarolarga belgilanadi.

Har kim qariganda, mehnat qobiliyatini yo‘qotganda, ishsizlikda, shuningdek, boquvchisini yo‘qotganda va qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ijtimoiy ta’minot huquqiga ega.

Qonunda belgilangan pensiyalar, nafaqalar va boshqa turdagi ijtimoiy yordamning miqdorlari rasman belgilangan eng kam iste’mol xarajatlaridan oz bo‘lishi mumkin emas.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 46-modda

Konstitutsiyada qonunda ko‘zda tutilgan boshqa hollarda ham fuqarolar ijtimoiy ta’minot olish huquqiga egaligi belgilangan. Bu farzand tug‘ish va uni ma’lum yoshigacha parvarish qilish muddatidagi nafaqa; tabiiy ofat yoki boshqa falokatlar tufayli jiddiy iqtisodiy va boshqa zarar ko‘rganlarga beriladigan nafaqalar; kam ta’minlanganlarga beriladigan nafaqalar va boshqalar.

> Har kim uy-joyli bo‘lish huquqiga ega.
> Hech kim sudning qarorisiz va qonunga zid tarzda uy-joyidan mahrum etilishi mumkin emas. Uy-joyidan mahrum etilgan mulkdorga uy-joyning qiymati hamda u ko‘rgan zararlarning o‘rni qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibda oldindan hamda teng qiymatda qoplanishi ta’minlanadi.
>
> **O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 47-modda**

Uy-joyli bo‘lish har bir shaxsga erkinlik, daxlsizlik, munosib turmush kechirish imkoniyatini yaratadi. Biroq o‘tgan yillarda “uy-joyni buzish”, “snos” degan so‘zlar tez-tez quloqqa chalindi. Bunday harakatlar fuqarolarning mulk huquqlari qo‘pol ravishda buzilishiga olib keldi. Shaxslarning uy-joyga bo‘lgan huquqlarini eng yuqori darajada himoya qilish maqsadida Konstitutsiyamizga maxsus norma kiritildi.

Mazkur norma yangilangan Konstitutsiyada o‘z aksini topgan ijtimoiy davlat g‘oyasi bilan chambarchas bog‘liqdir. Ijtimoiy davlatda aholi o‘zining barcha imkoniyatlariga ega bo‘lishi zarur. Buning ikki xil xususiyati bor. Birinchisi, shaxsning uy-joyga bo‘lgan huquqi sud orqali himoya qilinishidir. Ikkinchisi esa o‘rnini qoplash bilan bog‘liq masalani o‘z ichiga oladi.

Shaxslar uy-joydan mahrum qilish yetarlicha asos bo‘lgandagina va faqatgina sudning qarori bilan amalga oshiriladi. Agarda mulkdor uy-joydan mahrum etiladigan bo‘lsa, unga mazkur mulkining qiymati va u ko‘rgan zarar uy-joyi buzilishidan oldin to‘la ravishda qoplab berilishi lozim.

Shaxsning uy-joyga bo‘lgan huquqlari Uy-joy kodeksi, Fuqarolik kodeksi, Shaharsozlik kodeksi kabi hujjatlar bilan tartibga solinadi.

Ta’lim olish huquqi

Ta’lim olish huquqi ko‘plab mamlakatlar konstitutsiyasida mustahkamlangan inson va fuqaroning asosiy huquqlaridan biridir. Unga ko‘ra, har kim ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy mavqeyidan qat’i nazar, ta’lim olish huquqiga ega.

Ushbu huquqqa muvofiq davlat barcha shaxslar uchun ta’lim olish imkoniyati va sifatini ta’minlashi, shuningdek, ta’lim dasturlari va muassasalarini tanlash erkinligini kafolatlashi zarur.

Konstitutsiyamizda bepul umumiy o‘rta ta’lim va boshlang‘ich professional ta’lim davlat tomonidan kafolatlanishi mustahkamlangan.





Har kim ta’lim olish huquqiga ega.

Davlat uzluksiz ta’lim tizimi, uning har xil turlari va shakllari, davlat va nodavlat ta’lim tashkilotlari rivojlanishini ta’minlaydi.

Davlat maktabgacha ta’lim va tarbiyani rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratadi.

Davlat bepul umumiy o‘rta ta’lim va boshlang‘ich professional ta’lim olishni kafolatlaydi. Umumiy o‘rta ta’lim majburiydir.

Maktabgacha ta’lim va tarbiya, umumiy o‘rta ta’lim davlat nazoratidadir.

Ta’lim tashkilotlarida alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan bolalar uchun inklyuziv ta’lim va tarbiya ta’minlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 50-modda

Bolalar umumiy o‘rta ta’limni olishga majbur hisoblanadi. Bu shuni anglatadiki, bolalarning sababsiz maktabga bormasligi, ota-ona bolalarining ta’lim olishiga to‘sqinlik qilishi qonunchilikda belgilangan tartibda javobgarlikka tortilishga sabab bo‘ladi.

Barcha davlatlarda ta’lim olish huquqi birdek ta’minlangan deb bo‘lmaydi. Ko‘plab mamlakatlarda haligacha bolalar to‘liq ravishda maktab ta’limi bilan qamrab olinmagan. Bunga turli omillarni sabab sifatida keltirish mumkin.

Qiziqarli ma’lumot

“Kichikligimda onam menga imkonsiz narsalarni, masalan, maktabni orzu qilmasligim kerakligini aytardi. Biroq bugun xudo menga kitobni qo‘limda tutish, o‘qish va yozish imkoniyatini berib, meni hayratda qoldirdi. Endi imkonsiz narsani orzu qilishdan qo‘rqmayman”.

Bixar, Hindiston

Ayrim bolalar ta’lim olishda, o‘zlashtirishda, ma’lumotlarni qabul qilishda boshqa bolalardan ajralib turadi. Bunday bolalarga alohida kitoblar, o‘qituvchilar, xonalar kerak bo‘lishi mumkin. Konstitutsiyamizga ko‘ra, shunday hollarda ularga inklyuziv ta’lim va tarbiya tashkil etiladi.

Inklyuziv ta’lim – alohida ta’lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilmaxilligini hisobga olgan holda barcha uchun teng imkoniyatlarni ta’minlagan holda beriladigan ta’lim.

Oliy ma’lumot olishda (bakalavr va magistratura) bepul va to‘lov-shartnoma asosida ta’lim olish birga olib boriladi. Ya’ni oliy o‘quv yurtlariga qabul qilinadigan talabalar belgilangan kvotalar bo‘yicha davlat hisobidan bepul ta’lim oladi. Ular kirish sinovlarida yuqori natijaga erishgan talabgorlardir. Davlat byudjeti doirasida aniqlangan miqdor uchun yetarli ball to‘play olmagan talabgorlar orasidan yuqori ko‘rsatkichlarga erishganlari o‘z ixtiyori bilan to‘lov-kontrakt asosida oliy o‘quv yurtiga qabul qilinishi mumkin.

Konstitutsiyaga kiritilgan yangiliklardan biri o‘qituvchilar maqomining mustahkamlanishidir.

O‘zbekiston Respublikasida o‘qituvchining mehnati jamiyat va davlatni rivojlantirish, sog‘lom, barkamol avlodni shakllantirish va tarbiyalash, xalqning ma’naviy va madaniy salohiyatini saqlash hamda boyitishning asosi sifatida e’tirof etiladi.

Davlat o‘qituvchilarning sha’ni va qadr-qimmatini himoyalaydi, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy jihatdan o‘sishi to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qiladi.



Savol va topshiriqlar

1. Ijtimoiy huquqlar tizimiga qaysi huquqlar kiradi?
2. Nima uchun mehnat qilish huquqi ba’zida iqtisodiy huquqlarga kiritiladi?
3. Bolalar mehnatini taqiqlash degani bolalarning mehnat qilish huquqi yo‘qligini anglatadimi?
4. Inklyuziv ta’limning mohiyati nimada? Misollar keltiring.

Mustaqil ish uchun topshiriq

1. Ta’lim olish huquqi ta’minlanishi uchun eng zarur omillarga nimalarni kiritasiz? Javobingiz asosida quyidagi jadvalni to‘ldiring.

№	Omillar	Izoh
1	Darsliklar	
2	O‘qituvchilar	
3	Jihozlar	
...	...	

2. F. ismli maktab o‘quvchisi internet blogerlari faoliyatini ko‘rib, qiziqib qoladi. Uyda dadasining telefoni va kompyuteridan foydalangan holda turli o‘yinlarni o‘ynab, ularni sharhlab, internetga joylashni boshlaydi. Bundan xabar topgan maktab ma’muriyati F.ning o‘zlashtirishi pasayib ketayotganligini ota-onasiga aytadi.

F.ning ota-onasiga qanday yo‘l tutishni maslahat berasiz? Javobingizni asoslang.



22-DARS. EKOLOGIK HUQUQLAR

Orol dengizining qurishi bilan bog‘liq vaziyatning tobora keskin tus olayotgani ekologik xavfsizlikni g‘oyat dolzarb masalaga aylantirdi.
Shavkat Mirziyoyev

Bilib olasiz

Ekologik huquqlarning ta’minlanishi.
Atrof-muhitni yaxshilash, tiklash va muhofaza qilish.
Orolbo‘yi mintaqasining ekologik tizimini muhofaza qilish.

Ekologik huquqlarning ta’minlanishi



Inson huquqlarining ta’minlanishi muammolari uzoq tarixiy davrlarga borib taqalsa-da, insonlarning ekologik huquqlarini ta’minlash XX asrning 70-yillariga kelib, atrof-muhitning ifloslanishi global muammolarni keltirib chiqargani bois xalqaro miqyosdagi dolzarb masalaga aylandi.

Sog‘lom atrof-muhitga ega bo‘lish huquqi Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan 1972-yili Stokgolm shahrida o‘tkazilgan konferensiyada ilk bor tilga olingan.

1992-yili Rio de Janeyroda o‘tkazilgan BMT anjumanida qabul qilingan Rio de Janeyro deklaratsiyasida “Odamlar tabiat bilan uyg‘unlikda sog‘lom va samarali hayot kechirish huquqiga ega” deb belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 49-moddasida har kim qulay atrof-muhitga, uning holati to‘g‘risida ishonchli axborot olish huquqiga ega ekani kafolatlangan.

O‘zbekiston Respublikasi “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi qonunining maqsadlaridan biri fuqarolarning qulay atrof-muhitga ega bo‘lish huquqini ta’minlashdan iborat. Insonning yashash muhiti bo‘lmish biosfera va ekologiya tizimlari barqarorligini saqlab qolish, odamlarning ekologik jihatdan xavfsizligi, inson va uning kelgusi avlodlari genetik fondi haqida g‘amxo‘rlik qilish, atrof tabiiy muhit va inson sihat-salomatligi uchun zararli, tiklab bo‘lmas oqibatlarga yo‘l qo‘ymaslik davlat ekologik siyosatining asosiy yo‘nalishlari hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi aholisi o‘zi va kelajak avlodning salomatligi uchun qulay tabiiy muhitda yashash, o‘z salomatligini atrof-muhitning zararli ta’siridan muhofaza qilish huquqiga ega bo‘lib, ana shu maqsadda O‘zbekiston Respublikasi aholisi tabiatni muhofaza qilish bo‘yicha jamoat tashkilotlariga birlashish, atrof tabiiy muhitning ahvoli hamda uni muhofaza qilish yuzasidan ko‘rilayotgan chora-tadbirlarga doir axborotlarni talab qilish va olish huquqiga ega.



5-iyun – Butunjahon atrof-muhitni muhofaza qilish kuni. Shu kuni atrof-muhit muhofazasi bo‘yicha BMT dasturi – YUNEPga asos solingan (1972-yil).

O‘zbekiston Ekologik partiyasining asosiy maqsadi barqaror rivojlanishga, ekologik xavfsizlikka erishish, hozirgi va kelajak avlod uchun tabiiy resurslarni saqlash va qulay atrof-muhitni yaratishga yo‘naltirilgan davlat siyosatini ro‘yobga chiqarishni ta’minlash, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslarni saqlash davlat, jamiyat va mamlakat har bir fuqarosining vazifasi bo‘lishiga erishish yo‘lida ko‘maklashishdir.

Davlat fuqarolarning ekologik huquqlarini ta’minlash va atrof-muhitga zararli ta’sir ko‘rsatilishiga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida shaharsozlik faoliyati sohasida jamoatchilik nazoratini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratishi va shaharsozlik hujjatlarining loyihalari qonunda belgilangan tartibda jamoatchilik muhokamasidan o‘tkazilishi masalasi ham Konstitutsiyamizda o‘z ifodasini topgan.

Yuridik va jismoniy shaxslar shaharsozlik faoliyatini amalga oshirish chog‘ida aholining qulay hayot faoliyati muhitini asrashi shart ekani qonun hujjatlarida mustahkamlab qo‘yilgan.

Shaharsozlik faoliyatining asosiy prinsiplari:
– shaharsozlik sohasini fuqarolar, jamiyat va davlat manfaatlarini hisobga olgan holda rejalashtirish asosida O‘zbekiston Respublikasi hududini va uning qismlarini barqaror rivojlantirish;
– binolar va inshootlar konstruksiyalarining xavfsizligi va ishonchliligi, ularning seysmik chidamliligi, yong‘in xavfsizligi va energiya samaradorligiga qo‘yiladigan talablarga rioya qilgan holda tasdiqlangan shaharsozlik hujjatlari asosida shaharsozlik faoliyatini amalga oshirish;
– hayotiy faoliyat uchun qulay muhit yaratish, fuqarolar salomatligini muhofaza qilish, atrof-muhitga, tabiiy resurslarga va madaniy merosga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lish;
– shaharsozlik faoliyati va qurilish ishlab chiqarishida eng yaxshi amaliyotlarni joriy etish, qurilish sifatini oshirish;
– hududlarni rivojlantirishni shaharsozlik jihatidan rejalashtirish jarayonida jamoatchilikning samarali ishtirokini ta’minlash.

Atrof-muhitnı yaxshilash, tiklash va muhofaza qilish

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga ko‘ra, davlat barqaror rivojlanish prinsipiga muvofiq, atrof-muhitni yaxshilash, tiklash va muhofaza qilish, ekologik muvozanatni saqlash bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi.

Atrof-muhit obyektlariga yer, suv, atmosfera havosi, yer qa’ri, o‘simlik va hayvonot dunyosi kiradi.

Bugungi kunda davlatimiz tomonidan atrof-muhitni yaxshilash, tiklash va muhofaza qilish maqsadida quyidagi vazifalar belgilab olindi:

– atrof-muhit obyektlarini (yer, suv, atmosfera havosi, yer qa’ri, o‘simlik va hayvonot dunyosi) saqlash va qo‘riqlanishini ta’minlash;

– qo‘riqlanadigan tabiiy hududlarni kengaytirish;

– ekologik jihatdan eng kam xavf tug‘diruvchi materiallar, mahsulotlardan, ishlab chiqarish obyektlari va boshqa obyektlardan ustuvor darajada foydalanish;



Yodda tuting!

Atrof-muhitni muhofaza qilish – inson faoliyatining atrof-muhitga salbiy ta’sirini cheklash va uning buzilishining oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuyi.

– atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatdan oqilona foydalanish sohasida davlat nazoratini takomillashtirish;

– atrof-muhitni muhofaza qilishni ilmiy jihatdan ta’minlash;

– chiqindilar bilan bog‘liq ishlar tizimini takomillashtirish;

– aholining ekologik madaniyatini oshirish;

– atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida xalqaro hamkorlikni kengaytirish.

Shuningdek, “Yashil makon” umummilliy loyihasi dasturlarida atrof-muhit obyektlarini inson ta’siri hamda boshqa salbiy omillardan saqlash va sifatini ta’minlash hamda sanoat ishlab chiqarishi, urbanizatsiya ko‘lami keskin kengayishi va aholi punktlariga tushayotgan ekologik yukni kamaytirish mexanizmlarini takomillashtirish rejalari ishlab chiqilgan va amalga oshirilmoqda.

Orolbo‘yi mintaqasining ekologik tizimini muhofaza qilish

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 49-moddasi beshinchi qismida davlat Orolbo‘yi mintaqasining ekologik tizimini muhofaza qilish hamda tiklash, mintaqani ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan rivojlantirish yuzasidan choralar ko‘rishi mustahkamlab qo‘yilgan.

Orolbo‘yi hududidagi xalqning qulay atrof-muhitga bo‘lgan huquqi insonning asosiy fundamental huquqlaridan bo‘lib, yashash huquqini amalga oshirish uchun juda muhimdir. Konstitutsiyamizdagi mazkur norma aholi va kelajak avlod uchun ekologik toza hududni saqlab qolish, Orolbo‘yi mintaqasida yashovchi aholini ijtimoiy-iqtisodiy qo‘llab-quvvatlash, ularning yashashi va rivojlanishi uchun qulay atrof-muhitni ta’minlashning konstitutsiyaviy kafolatlarini yaratadi.

Orol dengizi uzoq yillardan buyon barhayot bo‘lib, atrofida yashovchi xalqlarga rizqnasiba berib kelgan.



Amudaryo va Sirdaryo suvidan foydalanishda yo‘l qo‘yilgan xatolar uning qurishiga sabab bo‘lgan. Orol dengizining maydoni o‘n, suv hajmi bir necha barobarga kamayib ketgan. Suv tarkibidagi tuzning ko‘rsatkichi ko‘tarilishi natijasida baliq va jonivorlar yasholmay, biologik jihatdan o‘lik dengizga aylangan.1981-yildan Amudaryoda kema va parom qatnovi to‘xtatildi. Orolbo‘yidagi ilgari yirik ishlab chiqarish quvvatlariga ega port shahar bo‘lgan Mo‘ynoq keyinchalik dengizning o‘lik qirg‘oqlaridagi kemalar qabristoniga aylandi. Orol dengizining yuz kilometrdan ko‘proq ichkariga chekinishi natijasida kemalar quruq qum ustida qolib ketdi.

Orol dengizi qurishining salbiy oqibatlari
Orol dengizi o‘rnida paydo bo‘lgan Orolqum mayda tuz va tuproq zarrachalari bilan qoplangan. Shamol esganida uzoq masofalarga tarqalib, havoni ifloslantiradi.
Iqlim yanada kontinentallashib, qishki harorat pasaydi, yozgi harorat esa ko‘tarildi.
Aholi salomatligiga salbiy ta’sir ko‘rsatdi, yurak-qontomir, oshqozon-ichak, nafas olish organlari kasalliklari (o‘pka sili, astma, bronxit) ko‘paydi.
Suv zaxiralarining kamayishi va sho‘rlanishi natijasida yaylovlarda chorva uchun oziq bo‘ladigan o‘simliklar turi va sifati kamayib, o‘tloqlar maydoni deyarli uch martaga qisqardi va bu hayvonot dunyosining ham qisqarishiga sabab bo‘ldi.
Ekin maydonlarining keskin qisqarishiga olib keldi.

Bugun Orolbo‘yi mintaqasini rivojlantirish masalasi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylanib, Orol fojiasi oqibatlarini yumshatish bo‘yicha salmoqli ishlar qilinmoqda.

Orolbo‘yidagi ekologik inqirozning salbiy ta’sirini yumshatish choralari:

– Orol dengizi akvatoriyasidagi tabiiy suv havzalari tizimini saqlash;

– Orol dengizining qurigan tubida daraxtzorlar barpo qilish va mintaqada cho‘llanishning oldini olish bo‘yicha keng ko‘lamli tadbirlarni amalga oshirish (ikki million gektar yangi o‘simlik maydonlari va daraxtzorlar yaratish);

– Orolni qutqarish xalqaro jamg‘armasi doirasida mintaqa mamlakatlarining hamkorligini mustahkamlash, Orol falokati bilan bog‘liq muammolarni hal etishga jahon hamjamiyati e’tiborini qaratish bo‘yicha harakatlarni faollashtirish.

Bu rezolyutsiyalar Orol dengizi qurishining atrof-muhit va aholi salomatligiga salbiy oqibatlariga qarshi kurashish, yuzaga kelgan muammolarni bartaraf etish, mintaqada yashovchi aholi bandligini ta’minlash orqali ularning turmush sharoiti yaxshilanishida katta ahamiyat kasb etmoqda.





O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan rezolyutsiyalar:

2018-yil 27-noyabrda Orolbo‘yi mintaqasi uchun Inson xavfsizligi bo‘yicha ko‘p sheriklik Trast jamg‘armasiga asos solinishiga xizmat qilgan rezolyutsiya

2021-yil 18-may kuni BMT Bosh Assambleyasining 75-sessiyasi yalpi majlisida qabul qilingan “Orolbo‘yi mintaqasini ekologik innovatsiya va texnologiyalar hududi deb e’lon qilish to‘g‘risida”gi rezolyutsiya

Savol va topshiriqlar

1. Ekologik huquqlarni ta’minlash borasida qanday xalqaro huquqiy hujjatlar mavjud?
2. Insonlarning ekologik huquqlarini ta’minlash borasida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida qanday normalar mavjud?
3. O‘zbekiston Ekologik partiyasining asosiy maqsadlari nimalardan iborat?
4. Shaharsozlik faoliyatini amalga oshirishda qanday prinsiplarga amal qilinadi?
5. Davlatimizning atrof-muhitni yaxshilash, tiklash va muhofaza qilish borasidagi vazifalarini sanab bering.

Mustaqil ish uchun topshiriq

1. Quyidagi tushunchalarni qiyosiy tahlil asosida yoritib bering.

Huquqiy madaniyat	Ekologik madaniyat

2. Muammoli vaziyatning yechimini toping.

Aholi yashaydigan hududda qo‘riqxonadan chiqib ketgan ayiq bolasi paydo bo‘lib qoldi. O‘sha hududda yashovchi fuqarolardan biri uni ov miltig‘i bilan otib o‘ldirib, aholiga ziyon yetkazilishining oldini olmoqchi bo‘ldi. Boshqa kishi bunga qarshilik qilib boshqacha yo‘l tutish zarurligini ta’kidladi. Sizningcha, bu muammo qanday hal qilinishi zarur?



23-DARS. INSON HUQUQ VA ERKINLIKLARINING KAFOLATLANISHI

Agar kimda-kim barcha qonunlarni o‘rganishni xohlasa,
uning qonunlarni buzishga vaqti bo‘lmaydi.

Gyote

Bilib olasiz

Inson huquq va erkinliklarining kafolatlanishi tushunchasi.
Huquq va erkinliklarni sud orqali himoya qilish.
Inson huquqlari bo‘yicha milliy institutlar.
Inson huquqlarini xalqaro darajada himoya qilish.

Inson huquq va erkinliklarining kafolatlanishi tushunchasi

Inson huquq va erkinliklari huquqiy jihatdan davlat konstitutsiyasi va boshqa qonun hujjatlarida aks ettiriladi. Biroq ularni mana shunday yozib qo‘yishning o‘zi yetarli emas. Huquq va erkinliklar asosiy qonun va boshqa normalarda qanday yozilgan bo‘lsa, shunday amalga oshirilishi uchun kafolatlar zarur hisoblanadi.

Inson huquq va erkinliklarining kafolatlari *shaxs huquq va erkinliklarini amalga oshirishni ta’minlashga qaratilgan huquqiy vositalar, yuridik usullar va shart-sharoitlar majmuyidir.*



Kafolatlashning asosiy maqsadi shaxslarning huquq va erkinliklarini amalga oshirish jarayonida vujudga keladigan to‘siqlarni bartaraf etish bilan bog‘liq. Inson huquq va erkinliklarining kafolatlari xalqaro va milliy darajada muayyan mexanizmlar yordamida amalga oshiriladi. Xalqaro darajada inson huquqlarini himoya qiluvchi turli organlar davlatlar insonlarning asosiy huquq va erkinliklariga qay darajada rioya qilayotganini o‘rganib boradi.

Inson huquqlari himoyasi
Prezident
Sud
Prokuratura
Ichki ishlar organlari
Adliya organlari
Ombudsman
Advokatura
Jamoat birlashmalari
Kasaba uyushmalari

Milliy darajada huquq va erkinliklarning davlat tomonidan ta’minlanishi tegishli vakolatli tuzilmalar faoliyat ko‘rsatishida namoyon bo‘ladi.

Konstitutsiyamizda “Inson hamda fuqaroning huquq va erkinliklari kafolatlari” alohida bob sifatida ajratilganining o‘zi bunga e’tiborning kuchli ekanini ko‘rsatadi.

Insonning huquq va erkinliklarini ta’minlash davlatning oliy maqsadidir.
Davlat inson hamda fuqaroning konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan huquqlari va erkinliklarini ta’minlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 54-modda

Konstitutsiyaga ko‘ra, har kim o‘z huquq va erkinliklarini qonunda taqiqlanmagan barcha usullar bilan himoya qilishga haqli. Fuqarolar o‘z huquq va erkinliklari davlat organlari, mansabdor shaxslar, boshqa shaxslar tomonidan buzilyapti yoki yetarli darajada ta’minlamayapti deb hisoblasa, huquqlari tiklanishini so‘rab sudga, boshqa davlat organlariga murojaat qilishlari mumkin.

Huquq va erkinliklarning ta’minlanishida advokatlarning ham o‘rni katta. Ular fuqarolar huquqining himoyachisi sifatida sudda ishtirok etadilar.

Huquq va erkinliklarning ta’minlanishida jamoat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari ham muhim rol o‘ynaydi. Ular shaxslarning buzilgan huquqlari tiklanishida fuqarolarga ko‘mak beradi. Bunda mazkur tuzilmalar huquq buzilishlari va muammoli holatlarga vakolatli organlarning e’tiborini qaratishga, fuqarolar bilan davlat organlari o‘rtasidagi aloqani ta’minlashga xizmat qiladi.

Huquq va erkinliklar barchaga bir xilda beriladi. Barcha huquq va erkinliklarda teng hisoblanadi. Biroq hamma ham mazkur huquqlaridan boshqalar qatori bir xilda foydalana olmaydi. Bularga mehnatga layoqatsizlar, yolg‘iz keksalar, nogironligi bo‘lgan shaxslar, ijtimoiy himoyaga muhtoj bo‘lgan boshqa insonlarni misol qilib keltirish mumkin. Ularning huquqlari teng bo‘lsa-da, undan foydalanish imkoniyatlari teng emas. Mana shuning uchun davlat ularning huquq va erkinliklarini amalga oshirishni o‘z zimmasiga oladi.

Huquq va erkinliklarni sud orqali himoya qilish

Inson huquq va erkinliklarini himoya qilishda asosiy organ suddir. Aynan sud shaxs huquq va erkinliklarini tiklash, ta’minlash, javobgar shaxslarga chora ko‘rish haqida qaror chiqara oladi.

Sud orqali himoya qilish *sudlarning shaxslarning buzilgan huquq va erkinliklarini tiklashga qaratilgan, protsessual qonunlarda belgilangan tartibda amalga oshiriladigan faoliyatidir.*

Huquq va erkinliklarni sud orqali himoya qilish, odil sudlovni ta’minlash davlatlarning inson huquqlarini ta’minlashdagi asosiy majburiyatlaridan hisoblanadi.

Sudga shikoyat qilish ariza topshirish orqali amalga oshiriladi. Shaxslar buzilgan huquq va erkinliklari mazmuniga qarab fuqarolik, jinoyat, ma’muriy yoki iqtisodiy sudga murojaat qiladi. Murojaat qilishda avvalo tuman sudiga ariza topshirish kerak. Fuqarolar bevosita o‘zlari yoki advokatlar yordamidan foydalangan holda ham sudga ariza topshira oladi. Sudga murojaat qilishda shaxslar qonunchilikda belgilangan davlat bojini to‘laydilar. Ayrim toifa shaxslar davlat boji to‘lashdan ozod etilgan.

Har kimga o‘z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlarining hamda boshqa tashkilotlarning, ular mansabdor shaxslarining qonunga xilof qarorlari, harakatlari va harakatsizligi ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi.

Har kimga buzilgan huquq va erkinliklarini tiklash uchun uning ishi qonunda belgilangan muddatlarda vakolatli, mustaqil hamda xolis sud tomonidan ko‘rib chiqilishi huquqi kafolatlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 55-modda

Sudlarda shaxslarning shikoyatlarini ko‘rib chiqish “Sudlar to‘g‘risida”gi qonun, Fuqarolik protsessual kodeksi, Jinoyat protsessual kodeksi kabi hujjatlarda belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Sudlarga shikoyat qilish tartibini belgilovchi ushbu qonunchilik har qanday hollarda sudga buzilgan huquqlarni tiklashni, tegishli organ, mansabdor shaxs, jamoat birlashmalarining noqonuniy hujjatlarini bekor qilishni so‘rab murojaat qilish mumkinligini belgilagan. Sudda ish ko‘rib chiqilganidan so‘ng sud tomonidan chiqarilgan qaror ishdagi tomonlar uchun bajarilishi majburiy bo‘ladi.

Inson huquqlari bo‘yicha milliy institutlar

Inson huquqlarini himoya qilishda suddan tashqari faoliyat ko‘rsatadigan mexanizmlarni joriy qilishga e’tibor qaratilmoqda. O‘zbekistonda faoliyat yuritayotgan mana shunday mexanizmlardan biri bu inson huquqlari bo‘yicha milliy institutlardir.

Inson huquqlari bo‘yicha milliy institutlar shaxslarning buzilgan huquq va erkinliklarini tiklash, davlat organlari, mansabdor shaxslarga murojaat qilishda fuqarolarga ko‘maklashadilar.

O‘zbekistonda inson huquqlari bo‘yicha milliy institutlar tizimi tarkibiga O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo‘yicha vakili (ombudsman), O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Bola huquqlari bo‘yicha vakili (Bolalar ombudsmani), Prezident huzuridagi tadbirkorlar huquqlarini himoya qilish bo‘yicha vakil (biznes ombudsman), Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi kiradi.

Inson huquqlari bo‘yicha milliy institutlarga murojaat qilishda sudlardan farqli ravishda davlat boji undirilmaydi.

“Ombudsman” shved tilidagi “ombud” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, “vositachi” yoki “boshqa shaxslarning vakili” tushunchasini ifodalagan.

Ombudsman instituti birinchi marta 1809-yilda Shvetsiyada tashkil etilgan. Biroq qarashlarga ko‘ra, Arab xalifaligida xalifa Umar davrida ta’sis etilgan muxtasib ombudsman vazifasini bajargan. U fuqarolarning mansabdor shaxslar faoliyatiga oid shikoyatlarini ko‘rib chiqqan.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo‘yicha vakili (ombudsman) mansabdor shaxs hisoblanadi.

Ombudsmanga nafaqat O‘zbekiston fuqarolari, balki O‘zbekistondagi chetelliklar va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar ham murojaat qilishi mumkin. Bunda murojaat qiluvchi o‘zi haqidagi ma’lumotlarni ko‘rsatishi lozim, aks holda uning arizasi anonim hisoblanib, ombudsman tomonidan ko‘rib chiqilmaydi.

Inson huquqlarini xalqaro darajada himoya qilish

Shaxslar ba’zida o‘z buzilgan huquq va erkinliklarini davlatning barcha himoya vositalaridan, sudning barcha bosqichlaridan foydalanib bo‘lgandan keyin ham tiklay olmasliklari mumkin. Mana shunday vaqtlarda endi kim inson huquqlarini tiklab beradi degan savol yuzaga keladi. Inson huquqlarini xalqaro darajada himoya qilish tartibini bilish yuqoridagi kabi holatga tushgan shaxslar uchun muhim hisoblanadi

Inson huquqlari bo‘yicha milliy institutlar inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishning mavjud shakllari hamda vositalarini to‘ldiradi, fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga va inson huquqlari madaniyatini yuksaltirishga ko‘maklashadi.

Davlat inson huquqlari bo‘yicha milliy institutlar faoliyatini tashkil etish uchun shart-sharoitlar yaratadi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 56-modda

Har kim O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligiga va xalqaro shartnomalariga muvofiq, agar davlatning huquqiy himoyaga doir barcha ichki vositalaridan foydalanib bo‘lingan bo‘lsa, insonning huquq va erkinliklarini himoya qiluvchi xalqaro organlarga murojaat etishga haqli.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 55-modda




BMTning Inson huquqlari bo‘yicha kengashi

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga kiritilgan yangiliklardan biri shaxslarning insonning huquq va erkinliklarini himoya qiluvchi xalqaro organlarga murojaat etish huquqining belgilanganidir.

Shaxs o‘zining huquq va erkinliklari buzildi deb hisoblab to‘g‘ridan to‘g‘ri inson huquqlari bo‘yicha xalqaro organlarga murojaat qila olmaydi. Murojaat qiluvchi shaxs avvalo davlatning ichki milliy mexanizmlaridan foydalanishi lozim. Davlat sudlari asosiy ichki himoya mexanizmi hisoblanadi. Shaxs o‘z huquqlarini tiklash uchun ombudsmanga murojaat qilgandan so‘ng ijobiy natijaga erisha olmasa, darhol xalqaro organga ariza topshira olmaydi. Shu bois o‘z huquqlarini tiklamoqchi bo‘lgan shaxslar sudning qonunchilikda belgilangan bosqichlaridan o‘tgan bo‘lishlari lozim.

Inson huquqlari bo‘yicha xalqaro organga murojaat qilinayotganda shaxsning davlatning qonunlaridagi emas, balki O‘zbekiston qo‘shilgan xalqaro shartnomalarda belgilangan huquqlari buzilganini ko‘rsatishi lozim.



Hayotiy vaziyat

Chet el fuqarosi O‘zbekistonga sayyoh sifatida keldi. Do‘konga oziq-ovqat mahsulotlarini xarid qilish uchun kirganda bank plastik kartasi yo‘qolganini bilib qoladi. Shunda do‘kon egasiga kuzatuv kamerasini ko‘zdan kechirmoqchi ekani, shu orqali karta qayerda yo‘qolganini aniqlashtirmoqchiligini aytganida unga kamerani ko‘rishga ruxsat berilmasligini ma’lum qilishadi.

Sizningcha, chet el fuqarosi ushbu vaziyatda qanday yo‘l tutishi kerak?



Savol va topshiriqlar

1. Davlatda inson huquq va erkinliklari himoyasi kafolatlanganini qanday bilish mumkin?
2. Inson huquq va erkinliklarini himoya qilishda qaysi organlarga murojaat qilish mumkin?
3. Inson huquqlarini himoya qilishda sud va milliy institutlarga murojaat qilishning farqlari nimada?
4. Shaxs o‘z huquqlarini xalqaro organlar orqali himoya qilishiga qanday hollarda yo‘l qo‘yiladi?

Mustaqil ish uchun topshiriq

1. Quyidagi huquqlarni amalga oshirish shakllari nimalarda namoyon bo‘ladi? Jadvalni to‘ldiring.

Huquq turi	Amalga oshirish shakli
Siyosiy huquqlar	
Madaniy huquqlar	
Iqtisodiy huquqlar	



24-DARS. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FUQAROLARINING KONSTITUTSIYAVIY BURCHLARI

Burchingni ado etishga harakat qil,
shunda darhol o‘zingning kimligingni bilib olasan.
Lev Tolstoy

Bilib olasiz

Fuqarolarning burchlari tushunchasi.
Fuqarolarining burchlari tizimi.
O‘zbekiston xalqining tarixiy, ma’naviy, madaniy, ilmiy va tabiiy merosini asrab-avaylash.
Vatanni himoya qilish burchi.

Fuqarolarning burchlari tushunchasi

Barcha fuqarolar Konstitutsiyada belgilab qo‘yilgan burchlarini bajaradilar.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 59-modda

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 2-bo‘lim, XI bobida fuqarolarning burchlari mustahkamlab qo‘yilgan.

Huquq shaxsga o‘z harakatining turi va me’yorini tanlash imkoniyati bo‘lsa, burch jamiyat va davlat tomonidan belgilangan va huquqiy normalarda o‘z aksini topgan talablardir.

Yodda tuting!

Burch davlat tomonidan belgilanib, Konstitutsiyada mustahkamlangan, har bir fuqaro bajarishi shart bo‘lgan, bajarmaslik esa javobgarlikni keltirib chiqaradigan xatti-harakatlar va yashash tarzi qoidalaridan iborat.

Konstitutsiya va boshqa qonunlarda mustahkamlangan fuqarolarning asosiy burchlari mohiyati shundaki, fuqarolar Konstitutsiyaga rioya qilish bilan birga, undagi har qanday qoidalar buzilishining oldini olishi, boshqa shaxslarning qadr-qimmatini hurmat qilishi zarur.

Fuqarolarning burchlari tizimi

FUQAROLARNING BURCHLARI
Barcha fuqarolar konstitutsiyada belgilab qo‘yilgan burchlarini bajaradilar.
Fuqarolar konstitutsiya va qonunlarga rioya etishga, boshqa insonlarning huquqlari, erkinliklari, sha’ni va qadr-qimmatini hurmat qilishga majburdirlar.
Fuqarolar O‘zbekiston xalqining tarixiy, ma’naviy, madaniy, ilmiy va tabiiy merosini asrab-avaylashi shart.
Fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lishga majburdirlar.
Fuqarolar qonun bilan belgilangan soliqlar va yig‘imlarni to‘lashi shart. Soliq va yig‘imlar adolatli bo‘lishi hamda fuqarolar konstitutsiyaviy huquqlarini amalga oshirishiga to‘sqinlik qilmasligi kerak.
O‘zbekiston Respublikasini himoya qilish O‘zbekiston Respublikasi har bir fuqarosining burchidir. Fuqarolar qonunda belgilangan tartibda harbiy yoki muqobil xizmatni o‘tashga majburdirlar.

Fuqarolar tomonidan burchlarning bajarilishi jamiyat manfaatlari uchun zarurdir. Davlatchiligimiz tarixining ilk davrlaridayoq jamiyat a'zolarining atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish borasidagi burchlari manbalarda qayd etilgan.

Tabiiy muhitni qanchalik asray olsak, sof atrof-muhitda yashash huquqimizni ta'minlash imkoniyati kuchayadi. Shu bois har birimiz konstitutsiyaviy burchimizga rioya etishimiz – atrof-muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishimiz zarur.

Fuqarolarning soliqlar va yig'imlarni to'lash bilan bog'liq burchlari ham muhimdir.

Soliq *deganda belgilangan, O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjetiga yoki davlat maqsadli jamg'armasiga to'lanadigan majburiy beg'araz to'lov tushuniladi.*

Yig'im *deganda byudjet tizimiga qonun hujjatlarida belgilangan majburiy to'lov tushuniladi.*

Davlat to'plangan soliqlarni mamlakatning mudofaa qobiliyatini, fuqarolarning xavfsizligini ta'minlash, iqtisod, maorif, fan, sog'liqni saqlashni rivojlantirish maqsadlarida sarflaydi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida soliq va yig'imlar adolatli bo'lishi hamda fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarini amalga oshirishiga to'sqinlik qilmasligi kerak ekani mustahkamlab qo'yilgan.

O'zbekiston xalqining tarixiy, ma'naviy, madaniy, ilmiy va tabiiy merosini asrab-avaylash

O'zbekistonning har bir fuqarosi xalqimizning tarixiy, madaniy, ilmiy va tabiiy merosini asrab-avaylab, kelgusi avlodlarga yetkazishni o'zi uchun muqaddas vazifa deb bilishi zarur.

Fuqarolar O'zbekiston xalqining tarixiy, ma'naviy, madaniy, ilmiy va tabiiy merosini asrab-avaylashi shart.

Tarixiy, ma'naviy, madaniy, ilmiy va tabiiy meros davlat tomonidan muhofaza qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 61-modda

Shunday tarixiy davrlar bo'lgan: o'zbek xalqi yaratgan tarixiy-madaniy yodgorliklar toptalgan, yo'q qilingan va xorijiy davlatlarga olib ketilgan. Bugungi kunda ularni qaytarish davlatimizning asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi.

Yurtimizda tarixiy yodgorliklarni har taraflama himoya qilishning qonuniy asoslari ishlab chiqildi, ularni saqlash va ta'mirlash bo'yicha muayyan dasturlar asosida chora-tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda.



Moddiy madaniy meros obyektlarini asrash chora-tadbirlari ularni konservatsiyalash, tuzatish, ta'mirlash, hozirgi zamonda foydalanishga moslashtirishni, shuningdek, ular bilan bog'liq ilmiy va ilmiy-texnik tadqiqotlar, loyihalash hamda ishlab chiqarish ishlarini o'z ichiga oladi.

"Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonuni

Tarixiy, ma'naviy, madaniy, ilmiy va tabiiy merosni muhofaza qilishda YUNESKO xalqaro tashkiloti bilan hamkorlik ham katta ahamiyat kasb etib kelmoqda.

O'zbekiston hududidagi to'rt qadimiy shahar – Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, shuningdek, Navro'z bayrami, Katta ashula, "Shashmaqom", askiya insoniyatning madaniy merosi sifatida YUNESKO ro'yxatiga kiritilgan.

Madaniy meros obyektlari

Moddiy madaniy meros obyektlari

Tarixiy, ilmiy, badiiy yoki o‘zgacha madaniy qimmatga ega bo‘lgan ansambllar, diqqatga sazovor joylar va yodgorliklar

Nomoddiy madaniy meros obyektlari

Tarixiy, ilmiy, badiiy yoki o‘zgacha madaniy qimmatga ega bo‘lgan urf-odatlar, xalq ijodiyoti (so‘z, raqs, musiqa, tomosha san’ati), shuningdek, ular hamda xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san’ati bilan bog‘liq bilimlar, ko‘nikmalar, asbob-anjomlar, artefaktlar, madaniy makonlar

Tarixiy va madaniy merosimizni muhofaza qilish bilan birga O‘zbekistonning tabiiy merosini saqlash va uning kelgusi avlodlarga bezavol yetkazilishini ta’minlash, tabiiy ekologik tizimlarning tanazzulga uchrashi sur’atlarini pasaytirish va bioxilmaxillikni saqlab qolish ham fuqarolarning konstitutsiyaviy burchlari hisoblanadi.

Vatanni himoya qilish burchi

Davlat mustaqilligini, uning hududiy yaxlitligini, aholining tinch hayot kechirishini ta’minlash maqsadida fuqarolar belgilangan tartibda harbiy yoki muqobil xizmatni o‘taydilar.

Harbiy xizmatga birinchi marta chaqirilgan yoki ixtiyoriy ravishda (kontrakt bo‘yicha) kirgan fuqarolar O‘zbekiston Respublikasi davlat bayrog‘i oldida Vatanga qasamyod qabul qiladilar. Vatanga qasamyodning mazmuni Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi qonunining 3-moddasida bayon etilgan.



Yodda tuting!

Harbiy xizmat – O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining Qurolli Kuchlar safida umumiy harbiy majburiyatni bajarish borasidagi davlat xizmatining alohida turidir.

Harbiy xizmatning turlari
muddatli harbiy xizmat
safarbarlik chaqiruvi rezervidagi harbiy xizmat
kontrakt bo‘yicha harbiy xizmat
O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safida harbiy xizmatni o‘tagan rezervchilar xizmati

O‘zbekiston Respublikasini himoya qilish O‘zbekiston Respublikasi har bir fuqarosining burchidir. Fuqarolar qonunda belgilangan tartibda harbiy yoki muqobil xizmatni o‘tashga majburdirlar.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 64-modda



Tinchlik davrida oddiy askarlar va serjantlar tarkibi lavozimlarida muddatli harbiy xizmatga, shuningdek, safarbarlik chaqiruvi rezervidagi xizmatga o‘n sakkiz yoshdan yigirma yetti yoshgacha bo‘lgan, salomatligiga ko‘ra Qurolli Kuchlar safida harbiy xizmatni o‘tashga yaroqli erkak fuqarolar chaqiriladi. Muddatli harbiy xizmat kalendar hisobida o‘n ikki oy etib belgilanadi.

Muqobil xizmat fuqarolarning umumiy harbiy majburiyatni bajarishining chaqiruv bo‘yicha harbiy xizmat o‘rniga iqtisodiyot, ijtimoiy sohaning turli tarmoqlarida kam malaka talab etiladigan (yordamchi) ishlarni, shuningdek, falokatlar, halokatlar, tabiiy ofatlar va boshqa favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etish ishlarini bajarish bilan bog‘liq bo‘lgan alohida turidir.

O‘n sakkiz yoshdan yigirma yetti yoshgacha bo‘lgan, harbiy ro‘yxatda turuvchi va xizmatga chaqirilishi lozim bo‘lgan fuqarolar, agar ularning diniy ta’limoti qurol-yarog‘dan foydalanish va Qurolli Kuchlarda xizmat qilishga yo‘l qo‘ymasa, ro‘yxatga olingan diniy tashkilotlar hisobida tursalar, muqobil xizmat huquqiga ega.

Muqobil xizmatning muddati yigirma to‘rt oyni, oliy ma’lumotli fuqarolar uchun esa o‘n sakkiz oyni tashkil etadi. O‘zbekiston Respublikasi fuqarolariga chet davlatlarning harbiy xizmatiga, xavfsizlik, politsiya, harbiy, adliya organlari yoki shu kabi boshqa organlariga xizmatga kirish taqiqlanadi.

Savol va topshiriqlar

1. Fuqarolarning burchlarini sanab bering.
2. Moddiy va madaniy meros obyektlarini asrash chora-tadbirlari deganda nimani tushunasiz?
3. Davlat to‘plangan soliqlarni qanday maqsadlarda sarflaydi?
4. Tarixiy, madaniy, ilmiy va tabiiy merosini asrab-avaylashda O‘zbekistonning YUNESKO tashkiloti bilan hamkorligi ahamiyatini tushuntirib bering.

Mustaqil ish uchun topshiriq

Quyidagi tushunchalarning mohiyatini yoritib bering.

Muddatli harbiy xizmat	
Safarbarlik chaqiruvi rezervidagi harbiy xizmat	
Kontrakt bo‘yicha harbiy xizmat	
Muqobil xizmat	

25-DARS. IJODIY FAOLIYAT

1-topshiriq. Quyidagi vaziyatni o‘rganing va savollarga javob bering.

Tasavvur qiling, siz chiqindini qayta ishlaydigan zavod joylashgan shaharda yashaysiz. Mazkur zavod bir necha yillardan beri ishlab kelmoqda. O‘tgan davr davomida aholi o‘rtasida yurak-qontomir va o‘pka kasalliklari ko‘paydi.

Aholi salomatligini tekshirish natijasida kasallikning ko‘payib borishi atrof-muhitning iflos-lantirilishi bilan bog‘liq ekani aniqlandi. Zavod ma’muriyati tozalash inshootlarini o‘rnatish borasidagi va’dasini bajarmayapti.

Savol:

1. Jamoatchilik ushbu muammoni qanday hal qilishi mumkin?
2. Jamoatchilik nazoratiga nimalar kiradi?
3. Ushbu holatda qanday himoya mexanizmlariga murojaat qilish samarali bo‘ladi?

2-topshiriq. Quyidagi vaziyatlarda inson huquqlarini himoya qilishning qaysi mexanizm-laridan foydalanish mumkin?

№	Vaziyatlar	Yechim
1	Sizni ta’qib qilishmoqda, jazolash bilan tahdid solishmoqda, tinimsiz qo‘ng‘iroq qilib, haqoratlashmoqda.	
2	Sizni chet elda jinoyat sodir etganlikda ayblashyapti.	
3	Adolatsiz jabrlanganingizga, sizni xafa qilishganiga, haqoratlashganiga ishonch hosil qildingiz.	
4	Chet elda o‘rtog‘ingiz bilan kechki sayrdan qaytyapsiz. Sizni politsiya xodimi to‘xtatib, politsiya bo‘limiga olib ketmoqchi.	



26-DARS. NAZORAT ISHI

1. Inson shaxsiy huquq va erkinliklarga qachon ega bo‘ladi?

A) tug‘ilgan zahoti
B) 16 yoshga to‘lganda
D) 18 yoshga to‘lganda
E) maktab yoshiga yetganda

2. Xabeas korpus akti dastlab qaysi davlatda qabul qilingan?

A) AQSHda
B) Angliyada
D) Fransiyada
E) Germaniyada

3. Har kim bilim olish huquqiga ega ekani O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining nechanchi moddasida mustahkamlangan?

A) 49-modda
B) 50-modda
D) 51-modda
E) 52-modda

4. “Ombudsman” so‘zining lug‘aviy ma’nosi nima?

A) himoyachi
B) mansabdor shaxs
D) vositachi
E) ayblovchi

5. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 27-moddasiga ko‘ra, shaxs sudning qarorisiz necha soatdan ortiq ushlab turilishi mumkin emas?

A) 24 soatdan
B) 36 soatdan
D) 48 soatdan
E) 54 soatdan

6. Aybsizlik prezumpsiyasi tamoyili ilk bor qaysi davlatda amalga kiritilgan?

A) AQSHda
B) Angliyada
D) Fransiyada
E) Germaniyada

7. Ovoz berishda qatnashish uchun (saylash huquqi) fuqarolar saylov kuni necha yoshga to‘lgan bo‘lishlari lozim?

A) 16 yoshga
B) 18 yoshga
D) 24 yoshga
E) 30 yoshga

8. 15 yoshga to‘lgan bolalar qanday tartibda ishga qabul qilinadi?

A) ota-onadan birining yozma roziligi bilan
B) ota-onaning har ikkisining roziligi bilan
D) 15 yoshga to‘lgan shaxsning roziligi bilan
E) 15 yoshga to‘lgan shaxs ishga qabul qilinmaydi

9. Fuqarolar necha yoshdan umumiy tartibda ishga qabul qilinadilar?

A) 14 yoshdan
B) 15 yoshdan
D) 16 yoshdan
E) 18 yoshdan

10. Kimlar uchun inklyuziv ta’lim va tarbiya ta’minlanadi?

A) alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan bolalar uchun
B) yetim bolalar uchun
D) maktab yoshidagi barcha bolalar uchun
E) chekka hududlarda yashaydigan bolalar uchun

IV BOB.

FUQAROLIK JAMIYATI VA DAVLAT HOKIMIYATI



27-DARS. JAMIYAT VA SHAXS. FUQAROLIK JAMIYATI

Jamiyat davlat bilan kuchlidir, chunki u yetuklashgani sayin o‘z a’zolarini himoya ostiga oladi.

Abu Nasr Forobiy

Bilib olasiz

Fuqarolik jamiyati tushunchasi va uning belgilari.
Fuqarolik jamiyati institutlari.
Oila, bolalar va yoshlar hamda ularning huquqlari.
Ommaviy axborot vositalari.

Fuqarolik jamiyati tushunchasi va uning belgilari



Fuqarolik jamiyati haqida ilk tasavvurlar Aristotelning “Siyosat” asarida bayon etilgan. Unga ko‘ra, insonning erkin yashash huquqi kishilik jamiyatining adolat va qonun ustuvorligi asosida tashkil etilishi orqali ta’minlanishi lozim.

Fuqarolik jamiyati iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayot shakllarini erkin tanlash kafolatlanadigan, qonun ustuvorligi va inson huquqlari hamda erkinliklari qaror topadigan, ko‘p partiyaviylik, siyosiy institutlar, mafkura va fikrlarning xilmaxilligi ta’minlanadigan hamda o‘zini o‘zi boshqarish organlarining mavqeyi baland bo‘lgan ijtimoiy tuzum hisoblanadi. Fuqarolik jamiyatida har bir shaxs siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, ma’naviy va huquqiy jihatdan o‘z ehtiyojlarini jamoat birlashmalari va fondlari, o‘zini o‘zi boshqarish organlari, siyosiy partiyalar va nodavlat notijorat tashkilotlar ishida faol ishtirok etib qondiradilar.

Fuqarolik jamiyatining amalda yuzaga kelishida Huquqlar haqidagi bill (Angliya, 1689-y.; AQSH, 1791-y.) yoki Inson va fuqaro huquqlari deklaratsiyasi (Fransiya, 1789-y.)ning qabul qilinishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Fuqarolik jamiyati uchta asosga tayanadi: iqtisodiy asos, ijtimoiy-siyosiy asos, ma’naviy asos.


Iqtisodiy asos – mulk shakllarining xilmaxilligi, iqtisodiy plyuralizm, erkin bozor munosabatlarining mavjudligi. Bunda jamiyatda uning har bir a’zosi qandaydir mulkka, sarflash huquqiga ega bo‘ladi, mulkni o‘z xohishi bilan tasarruf etadi, xususiy mulk daxlsizligi, davlat tomonidan kafolatlangan tadbirkorlik, mehnat va iste’mol faoliyati erkinligi ta’minlanadi.

Ijtimoiy-siyosiy asos – o‘z manfaatlarini himoya qilish uchun insonlarning ma’lum tashkilotlarga birlashishi, iqtisodiy va siyosiy hokimiyatning ajratilishi. Siyosiy plyuralizm, davlat hokimiyati funksiyalarining sekin-asta fuqarolik jamiyati institutlariga berib borilishi.

Ma’naviy asos – fuqarolar o‘z qadr-qimmatini biladigan, jamiyatning asosiy qadriyatlarini himoyalay oladigan, zarurat tug‘ilganda ular uchun kurasha oladigan bo‘lishi, vijdon erkinligining ta’minlanishi, axloqiy normalarga rioya qilinishi, fuqarolar davlat boshqaruvi sohasida bevosita va bilvosita ishtirok etishi, fuqarolik pozitsiyasiga ega ekani.

Yodda tuting!

Fuqarolik jamiyatida mulkchilik shakllarining xilma-xil va teng bo‘lishi, mehnat va tadbirkorlikning erkinligiga yo‘l qo‘yilishi, mafkuraviy xilmaxillik va axborot erkinligi, inson huquq va erkinliklarining daxlsizligi, rivojlangan o‘zini o‘zi boshqarish hamda jamiyat hayotining barcha sohalarida qonun ustuvorligi ta’minlanishi muhim hisoblanadi.



Fuqarolik jamiyati institutlari

Fuqarolarning davlat va jamiyat ishlarini boshqarishda ishtirok etishini rivojlantirish, kishilarning fuqarolik, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy sohalardagi huquq hamda erkinliklarini amalga oshirish va himoya qilish maqsadida **fuqarolik jamiyati institutlari** tashkil etiladi.

Fuqarolik jamiyati institutlariga quyidagilar kiradi:

– jamoat birlashmalari;
– nodavlat notijorat tashkilotlari;
– fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari;
– ommaviy axborot vositalari.

Qiziqarli ma’lumot

Bugungi kunda O‘zbekistonda 10 mingga yaqin nodavlat notijorat tashkilotlari, 9 mingdan ortiq o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyat yuritmoqda.

Yodda tuting!

Fuqarolarning xohish irodalarini erkin bildirishlari natijasida vujudga kelgan ixtiyoriy tuzilma jamoat birlashmasi bo‘lib hisoblanadi.

Jamoat birlashmalarida ishtirok etish uchun barchaga teng imkoniyatlar yaratiladi. O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar jamoat birlashmasi a’zolari (qatnashchilari) bo‘lishi mumkin.

Jamoat birlashmasini tuzish tartibi:

jamoat birlashmasi kamida o‘n nafar fuqaroning tashabbusi bilan tuziladi. Jamoat birlashmasini tuzish tashabbuskorlari ta’sis syezdini (konferensiyasini) yoki umumiy yig‘ilishini chaqiradilar, unda ustav (nizom, o‘zga asosiy hujjat) qabul qilinadi va rahbar idoralar tuziladi. Jamoat birlashmasi belgilangan tartibda O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va viloyatlar, Toshkent shahar adliya boshqarmalari tomonidan ro‘yxatdan o‘tkaziladi.

Jamoat birlashmalarining turlari:

kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar, olimlarning jamiyatlari, xotin-qizlar tashkilotlari, faxriylar, yoshlar va nogironligi bo‘lgan shaxslar tashkilotlari, ijodiy uyushmalar, ommaviy harakatlar hamda fuqarolarning boshqa birlashmalari.

Masalan, O‘zbekiston yoshlar ittifoqi, O‘zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi.

Quyidagi jamoat birlashmalarini tuzish taqiqlanadi:

faoliyati jamiyatning axloqiy negizlarini, umumbashariy insonparvarlik qadriyatlarini buzishga qaratilgan, shuningdek, konstitutsion tuzumni g‘ayriqonuniy yo‘l bilan o‘zgartirish yoki O‘zbekiston Respublikasi hududining birligini buzish, urushni, zo‘ravonlikni va shafqatsizlikni, jamiyatni parchalashga olib boradigan ijtimoiy, shu jumladan, sinfiy, shuningdek, irqiy, milliy va diniy adovatni avj oldirish, qonunchilik bilan taqiqlangan boshqa xatti-harakatlar qilish maqsadini ko‘zlaydigan jamoat birlashmalari.

O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi bir paytning o‘zida ***faqat bitta siyosiy partiyaga a’zo bo‘lishi mumkin.*** Biroq ayrim toifadagi shaxslar siyosiy partiyaga a’zo bo‘la olmaydilar. Masalan, sudyalar, Hisob palatasining mansabdor shaxslari, prokurorlar va prokuratura tergovchilari, ichki ishlar, milliy gvardiya, davlat xavfsizlik xizmati xodimlari, harbiy xizmatchilar; xorijiy davlatlarning fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar.

Siyosiy partiyani tuzish bosqichlari	
1-bosqich	Kamida yigirma ming fuqaroning imzosi to‘planishi (kamida sakkizta hududiy subyektda (viloyatda), Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Toshkent shahrida yashayotgan hamda partiyaga birlashish istagida bo‘lgan shaxslar tomonidan);
2-bosqich	Siyosiy partiya tuzish tashabbuskorlari (kamida ellik kishidan iborat) tomonidan partiya ta’sis hujjatlarini tayyorlash, a’zolar tarkibini shakllantirish, ta’sis syezdi yoki konferensiyasini chaqirish bo‘yicha tashkiliy qo‘mitani tuzish;
3-bosqich	Tashkiliy qo‘mita tomonidan Adliya vazirligiga qo‘mita haqidagi ma’lumotlarni berish;
4-bosqich	Ta’sis syezdi yoki konferensiyada partiyaning tashkil topishi;
5-bosqich	Partiyaning ustavi va dasturini qabul qilish, saylab qo‘yiladigan organlarini tuzish;
6 bosqich	Siyosiy partiyaning Adliya vazirligi tomonidan ro‘yxatga olinishi.

Yodda tuting!

Siyosiy partiya O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining qarashlar, manfaatlar va maqsadlar mushtarakligi asosida tuzilgan, davlat hokimiyati organlarini shakllantirishda jamiyat muayyan qismining siyosiy irodasini ro‘yobga chiqarishga intiluvchi hamda o‘z vakillari orqali davlat va jamoat ishlarini idora etishda qatnashuvchi ko‘ngilli birlashmadir.

Oila, bolalar va yoshlar hamda ularning huquqlari

Oila jamiyatning birlamchi bo‘g‘ini hisoblanadi, fuqarolik jamiyatining tayanch nuqtasi, barqaror tuzilmasidir. Bu muqaddas dargohda inson nafaqat dunyoga keladi, balki ma’nan va axloqan tarbiya topadi. Oilaviy munosabatlarning mustahkamligi jamiyat va davlat taraqqiyotining kelajagini belgilab beradi.

Oilaviy munosabatlar, xususan, nikoh tuzish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, qonunlar, shu jumladan, Oila kodeksi bilan tartibga solinadi.

Barcha fuqarolar oilaviy munosabatlarda teng huquqlarga egadir. Oiladagi erkak va ayol munosabatlari er va xotinning shaxsiy hamda mulkiy huquqlari tengligi, ichki oilaviy masalalarning o‘zaro kelishuv yo‘li bilan hal qilinishi, oilada bolalar tarbiyasi, ularning farovon hayot kechirishi va kamoloti haqida g‘amxo‘rlik qilish, voyaga yetmagan va mehnatga layoqatsiz oila a’zolarining huquq va manfaatlarini himoya qilish ustuvorligi tamoyillari asosiga quriladi.

Nikoh – ikki jins vakillarining o‘zaro rozilik asosida tuzilgan ittifoqi hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasida nikoh O‘zbekiston xalqining an’anaviy oilaviy qadriyatlariga asoslanadi (mehnatsevarlik, sadoqat, samimiyat, ishonch, vatanni sevish, adolat, poklik, to‘g‘rilik).

Onalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinadi. Bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilish ularning ota-onasi zimmasiga yuklatiladi.

Ota-onalar o‘z farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majburdirlar. Xususan, ota-ona o‘z bolalarining tarbiyasi va kamoloti uchun javobgardir. Ular o‘z bolalarining sog‘lig‘i, jismoniy, ruhiy, ma’naviy va axloqiy kamoloti haqida g‘amxo‘rlik qilishlari shart. Shuningdek, ota-ona bolalarining qonun hujjatlarida belgilangan zarur darajada ta’lim olishini ta’minlashi shart. Ota-onalar yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar tomonidan voyaga yetmagan bolalarni tarbiyalash va ularga ta’lim berish borasidagi majburiyatlarni bajarmaslik javobgarlikka sabab bo‘ladi.

O‘n sakkiz yoshga to‘lgan voyaga yetgan, mehnatga layoqatli farzandlar o‘z ota-onalari haqida g‘amxo‘rlik qilishga majburdirlar.

O‘n sakkiz yoshga to‘lgunga (voyaga yetgunga) qadar bo‘lgan shaxs (shaxslar) bola hisoblanadi. Shaxs o‘n sakkiz yoshga yetsa, voyaga yetgan shaxs bo‘ladi. Har bir bolaga inson hamda fuqaro huquq va erkinliklari tegishli bo‘ladi hamda davlat tomonidan kafolatlanadi.

14 yoshga to‘lgan va 30 yoshdan oshmagan shaxslar yosh sanaladi.

	Oilaviy munosabatlar erkak va ayolning ixtiyoriy ravishda nikohlanib tuzgan ittifoqi asosida amalga oshiriladi.
	Bolaning ota-onasi bo‘lmaganda yoki ular ota-onalik huquqidan mahrum qilinganda va bola ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan boshqa hollarda uning oilada tarbiyalanish huquqi vasiylik va homiylik organi tomonidan ta’minlanadi.
	O‘zbekiston Respublikasida 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlar va bolalar aholining 60% ini tashkil qiladi (20 milliondan ortiq). Yurtimizda 14–30 yoshdagi jami doimiy aholi soni 9,5 milliondan ortiq (2024-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra). 2008-yilda “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”, 2016-yilda “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi qonun qabul qilindi, 2020-yilda Yoshlar ishlari agentligi tashkil etildi hamda 30-iyun “Yoshlar kuni” deb belgilandi.

Ommaviy axborot vositalari



Fuqarolarning axborot sohasidagi konstitutsiyaviy huquqlarini ta’minlash, jamiyatda ochiqlik va oshkoralik, qonuniylik muhitini mustahkamlashda ommaviy axborot vositalari (OAV) katta ahamiyatga ega.

OAVning axborotni izlash, olish, foydalanish va uni tarqatish huquqi kafolatlanishi jamiyatning ishonchli axborotga bo‘lgan ehtiyojlarini to‘laroq qondirishga, aholining siyosiy va huquqiy madaniyati rivojlanishiga xizmat qiladi. Shuning uchun davlat ommaviy axborot vositalari faoliyatining erkinligini, ularning axborotni izlash, olish, undan foydalanish va tarqatishga bo‘lgan huquqlari amalga oshirilishini kafolatlaydi.

Davlat OAV va jurnalistlar emin-erkin, turli ma’muriy bosimlardan qo‘rqmasdan faoliyat yuritishini ta’minlaydi hamda jamiyatda ochiqlik va oshkoralik muhitining rivojlanishiga sharoit yaratadi. Ommaviy axborot vositalarining faoliyatiga to‘sqinlik qilish yoki aralashish qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo‘ladi.

Yodda tuting!

Ommaviy axborot vositasi deganda, doimiy nomga ega bo‘lgan hamda bosma tarzda (gazetalar, jurnallar, axborotnomalar, byulletenlar va boshqalar) va elektron tarzda (tele-, radio-, video-, kinoxronikal dasturlar, internet jahon axborot tarmog‘idagi vebsaytlar) kamida olti oyda bir marta nashr etiladigan yoki efirga beriladigan ommaviy axborot shakli tushuniladi.

O‘zbekiston Respublikasida ommaviy axborot vositalarini senzura qilishga yo‘l qo‘yilmaydi. E’lon qilinayotgan xabarlar va materiallar oldindan kelishib olinishini, shuningdek, ularning matni o‘zgartirilishini yoki butunlay nashrdan olib qolinishini (efirga berilmasligini) talab qilishga hech kimning haqqi yo‘q.

Qiziqarli ma’lumot

O‘zbekistonda 2140 ta ommaviy axborot vositasi faoliyat yuritmoqda. Ularning 65 foizi nodavlat media vositalari, internet nashrlari soni esa 745 ta.





Hayotiy vaziyat

1. Telegramda 400 ming obunachiga ega “Telegram yangiliklari” kanali admini B. Xoldorov 2024-yil avgust oyida o‘tkazilgan oliy ta’lim muassasalariga kirish imtihonlarini yoritish maqsadida “Bunyodkor” stadionida tashkil etilgan pavilyon hududiga foto-, videokameralari bilan keldi.

U imtihon o‘tkaziluvchi hududga kirmoqchi bo‘lganda milliy gvardiya xodimlari tomonidan to‘xtatildi. BMBA xodimi undan nima maqsadda ushbu hududga kirmoqchiligini so‘radi.

Fuqaro B. Xoldorov o‘zini jurnalist deb tanishtirdi. Milliy gvardiya xodimlari undan xizmat guvohnomasi yoki ruxsatnoma ko‘rsatishni so‘radi. U bunday hujjat yonida yo‘qligini aytdi. Natijada milliy gvardiya va BMBA xodimlari uning imtihon hududiga kirishiga ruxsat berishmadi.

Bundan jahli chiqqan fuqaro B. Xoldorov imtihonlar halol, xolis va shaffof o‘tkazilmayotgani, masalan, o‘zining imtihon hududiga jarayonlarni yoritish uchun kiritilmaganini aytib, telegram kanalida videomurojaat va fotolarni joyladi.

Ushbu video internetda turli shov-shuvlar va noroziliklarga sabab bo‘ldi. Shundan so‘ng fuqaro B. Xoldorovni ichki ishlar bo‘limiga chaqirishdi.

Mazkur masala yuzasidan fikringizni bildiring.

2. Fuqaro Akmalov “Adolat” sotsial-demokratik partiyasi a’zosi. U universitetni tamomlab, uyiga yaqin joylashgan maktabga ishga kirish uchun murojaat qildi. Unga suhbatda siyosiy partiyaga a’zoligini to‘xtatmasa, ishga qabul qilinmasligini ma’lum qilishdi. Fuqaro Akmalov esa O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 39-moddasiga ko‘ra, siyosiy partiyalarga birlashish huquqi borligini aytdi. Natijada ishga qabul qiluvchilar hamda fuqaro Akmalov o‘rtasida nizo yuzaga keldi.

Vaziyatga huquqiy baho bering.

Maktab rahbariyatining harakati to‘g‘rimi?

Siyosiy partiyaga a’zolik ishga qabul qilmaslikka asos bo‘la oladimi?



Savol va topshiriqlar

1. Sizningcha, fuqarolik jamiyati qanday jamiyat?
2. Fuqarolik jamiyatini qurish uchun insonlar nimalarni amalga oshirishlari lozim?
3. Ommaviy axborot vositalari, shu jumladan, ijtimoiy tarmoqlar (Facebook, Telegram, Instagram, Youtube) fuqarolik jamiyatini tashkil etishda qanday ishtirok etishlari mumkin?
4. Fikringizcha, siyosiy partiya nega kerak? Siyosiy partiyaga a’zo bo‘lsangiz, nimaga erishasiz? Bu sizga qanday naf keltiradi?

28-DARS. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY MAJLISI

Siyosiy erkinlik xohlagancha ish tutish degani emas.
Agar fuqaro qonunda taqiqlangan ishga qo‘l ursa, erkinlikdan mahrum bo‘ladi.
Sharl Lui de Monteskyo

Bilib olasiz

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi oliy davlat vakillik organi.
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi.
Oliy Majlis Senati.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi oliy davlat vakillik organi

Oliy Majlis O‘zbekiston Respublikasi parlamenti bo‘lib, oliy vakillik (xalq vakillaridan iborat) va qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi.

Oliy Majlis qonunchilik organi sifatida qonunlarni qabul qiladi, ularga o‘zgartirish kiritadi va zarur hollarda amaldagi qonunlarni bekor qiladi.

O‘zbekistonda Oliy Majlis ikki palatadan iborat bo‘lib, quyi palata – Qonunchilik Palatasi xalq tomonidan bevosita saylangan deputatlardan, yuqori palata – Senat senatorlardan iborat. Quyi palata deputatlarini saylashda xalq bevosita ishtirok etsa, Senatni shakllantirishda esa vakillari orqali qatnashadi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining vakolat muddati besh yil hisoblanadi.

Ayni bir shaxs bir paytning o‘zida Qonunchilik palatasi deputati va Senat a’zosi bo‘lishi mumkin emas.

Qonunchilik palatasi deputatlari hamda Senatda doimiy asosda ishlovchi senator o‘z vakolatlari davrida ilmiy va pedagogik faoliyatdan tashqari haq to‘lanadigan boshqa turdagi faoliyat bilan shug‘ullanishlari mumkin emas.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputati va Senati a’zosi daxlsizlik huquqidan foydalanadi. Buning ma’nosi shuki, tegishincha Qonunchilik palatasi yoki Senatning roziligisiz jinoiy javobgarlikka tortilishi, ushlab turilishi, qamoqqa olinishi yoki sud tartibida ma’muriy jazo choralariga tortilishi mumkin emas.



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING OLIY MAJLISI

Oliy davlat vakillik organi bo‘lib, qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi

Palatalarning vakolat muddati **5 yilni** tashkil qiladi

Ikki palatadan iborat: **Qonunchilik palatasi** (quyi palata) va **Senat** (yuqori palata)

– 91-modda –







- Qonunchilik palatasi 150 deputatdan iborat
- 25 yoshga to‘lgan, kamida 5 yil O‘zbekiston hududida muqim yashayotgan O‘zbekiston fuqarosi

Qonunchilik palatasi deputati, shuningdek, Senat a’zosi bo‘lishi mumkin

- Senat hududiy vakillik palatasi hisoblanadi va u yerda senatorlar faoliyat yuritadi



– 92-modda –

Yodda tuting!

Xorijiy davlatlarda parlament turlicha nomlanadi: AQSHda Kongress, Rossiya Federatsiyasida Federal Majlis, Buyuk Britaniyada Parlament, Koreya Respublikasida Milliy Majlis, Hindistonda Sansad, Yaponiyada Kokkay.



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY MAJLISI TUZILISHI	
Oliy Majlis Qonunchilik Palatasi (quyi palata)	Oliy Majlis Senati (yuqori palata)
150 nafar deputat	65 nafar senator
Qonunchilik palatasi Spikeri va uning o‘rinbosarlari	Oliy Majlis Senat Raisi va uning o‘rinbosarlari
Qonunchilik palatasi kengashi (quyi palataning faoliyatini tashkillashtiradi)	**Senat kengashi** (yuqori palataning faoliyatini tashkillashtiradi)
Qonunchilik palatasining qo‘mitalari (qonun loyihalarini tayyorlash, qarorlar ijrosini nazorat qilish uchun tuziladi)	**Senatning qo‘mitalari** (muhokamaga kiritiladigan masalalarni dastlabki tarzda ko‘rib chiqish, tayyorlash hamda qonun va qarorlar ijrosini nazorat qilish)
Qonunchilik palatasi komissiyalari (muayyan vazifalarni amalga oshirish uchun tuziladi)	**Senat komissiyalari** (muayyan vazifalarni amalga oshirish uchun tuziladi)
Fraksiyalar (partiyalar manfaatlarini ifodalash uchun tuziladi)	

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi



Qonunchilik palatasi (quyi palata) ko‘ppartiyaviylik, umumiy, teng va to‘g‘ridan to‘g‘ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo‘li bilan saylanadigan bir yuz ellik nafar deputatdan iborat. Qonunchilik palatasi deputatlarning 75 nafari bevosita majoritar tizim asosida, ya’ni saylovchilar aniq shaxslarga ovoz berishi yo‘li bilan, qolgan 75 nafari esa, proporsional tizim bo‘yicha siyosiy partiyalarga berilgan ovozlar asosida aralash saylov tizimida saylanadi.Ya’ni saylovchilar Qonunchilik palatasi deputatligiga saylovda ikkita byulleten orqali ovoz beradi: birinchisida aniq nomzodga, ikkinchisida esa o‘zlari tanlagan siyosiy partiyaga ovoz beradi.

Deputat – O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga saylangan va O‘zbekiston Respublikasining Saylov kodeksiga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi tomonidan ro‘yxatga olingan O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi. Deputatlikka nomzodlar ko‘rsatish siyosiy partiyalarning yuqori organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Qonunchilik palatasi o‘zining vakolatlariga kiritilgan masalalar yuzasidan, shuningdek, palataning ichki faoliyatini tashkil etish masalalari yuzasidan qarorlar qabul qiladi. Qarorlar asosan deputatlar umumiy sonining ko‘pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi o‘z tarkibidan Qonunchilik palatasining Spikeri va uning o‘rinbosarlarini saylaydi. Qonunchilik Palatasi Spikeri umumiy rahbarlik qiladi, faoliyatni muvofiqlashtirib boradi, qonunlar va qarorlar ijrosi ustidan nazoratni tashkil etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi mutlaq vakolatlari.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 94-modda

Oliy Majlis Senati



O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati a’zolari Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, viloyatlar, tumanlar va shaharlar davlat hokimiyati vakillik organlari deputatlarining tegishli qo‘shma majlislarida mazkur deputatlar orasidan yashirin ovoz berish yo‘li bilan Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridan teng miqdorda – to‘rt kishidan saylanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining to‘qqiz nafar a’zosi fan, san’at, adabiyot, ishlab chiqarish sohasida hamda davlat va jamiyat faoliyatining boshqa tarmoqlarida katta amaliy tajribaga ega bo‘lgan hamda alohida xizmat ko‘rsatgan eng obro‘li fuqarolar orasidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlislari quyidagi hollarda o‘tkaziladi	
Prezident qasamyod qilganda	Prezident mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotining, ichki va tashqi siyosatining eng muhim masalalari yuzasidan nutq so‘zlaganda
Chet davlatlarning rahbarlari nutq so‘zlaganda	Palatalarning kelishuviga ko‘ra boshqa masalalar yuzasidan

Senat palataning ichki faoliyatini tashkil etish va o‘zining vakolatlariga kiritilgan masalalar yuzasidan qarorlar qabul qiladi, mazkur qarorlar Senat a’zolari umumiy sonining ko‘pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

Umumsiyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa masalalar yuzasidan bayonotlar va murojaatlar bilan chiqishi mumkin va bu qaror bilan rasmiylashtiriladi.

Senat tarkib topganidan keyingi birinchi majlisda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan, Senat a’zolari orasidan yashirin ovoz berish orqali senatorlar umumiy sonining ko‘pchilik ovozi bilan Senat Raisi saylanadi.

Senat Raisi umumiy rahbarlikni amalga oshiradi, qo‘mita, komissiyalar faoliyatini muvofiqlashtirib boradi, qonunlar ijrosi ustidan nazoratni tashkil etadi.

Yodda tuting!

Oliy Majlis Senati a’zolari Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridan teng miqdorda – 4 kishidan saylanadi.

9 nafar a’zosi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati mutlaq vakolatlari.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 95-modda

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati Raisi o‘rinbosarlaridan biri Qoraqalpog‘iston Respublikasining vakili bo‘ladi.

Palatalarning birgalikdagi vakolatlariga kiradigan masalalar, qoida tariqasida, avval O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasida, so‘ngra Senatida ko‘rib chiqiladi.

Oliy Majlis quyidagi hollarda tarqatib yuborilishi mumkin	
1-holat	Qonunchilik palatasi yoki Senat tarkibida ularning normal faoliyatiga tahdid soluvchi hal qilib bo‘lmaydigan ixtiloflar yuz berganda.
2-holat	Qonunchilik palatasi yoki Senat bir necha marta O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga zid qarorlar qabul qilgan taqdirda.
3-holat	Qonunchilik palatasi bilan Senat o‘rtasida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining normal faoliyatiga tahdid soluvchi hal qilib bo‘lmaydigan ixtiloflar yuz berganda.
Izoh: bunday hollarda Prezident Konstitutsiyaviy sud bilan bamaslahat qaror qabul qiladi.	
4-holat	Oliy Majlis Qonunchilik palatasi tomonidan Bosh vazir lavozimiga nomzod uch marta rad etilgan taqdirda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Bosh vazirni tayinlaydi va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasini tarqatib yuboradi.
5-holat	Qonunchilik palatasi yoki Senat o‘zini o‘zi tarqatib yuborish to‘g‘risida deputatlar yoki senatorlar umumiy sonining kamida uchdan ikki qismidan iborat ko‘pchilik ovozi bilan qaror qabul qilishi mumkin.
Izoh: Qonunchilik palatasi o‘zini o‘zi tarqatib yuborgan hollarda yangi saylov **ikki oy ichida** o‘tkaziladi, Senat o‘zini o‘zi tarqatib yuborgan taqdirda **bir oy mobaynida** uning yangi tarkibi shakllantiriladi.	





Yodda tuting!

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati hududiy vakillik palatasi bo‘lib, Senat a’zolaridan (senatorlardan) iborat.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 92-modda

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining birgalikdagi vakolatlari.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 93-modda

Hayotiy vaziyat

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasiga bo‘lib o‘tgan saylovlardan keyin O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri nomzodi Qonunchilik palatasi ko‘rib chiqishi va ma’qullashi uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan taqdim etildi. Bosh vazir nomzodi uchun ovoz berish natijasiga ko‘ra Bosh vazir nomzodi deputatlar tomonidan ma’qullanmadi.

Vaziyatga baho bering va o‘z fikringizni asoslang.

2. O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati A.ni O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining tegishli moddasi bilan aybdor deb topib, uni jinoiy javobgarlikka tortish uchun daxlsizlik huquqidan mahrum etishni so‘rab, Oliy Majlis Senatiga taqdimnoma kiritdi. Oliy Majlis Senati mazkur masala uning vakolatiga kirmasligi va Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga murojaat qilish kerakligi vaji bilan taqdimnomani rad etdi.

Vaziyatni tahlil qiling va deputat yoki senatorni daxlsizlik huquqidan mahrum qilish tartibini tushuntirib bering.

Savol va topshiriqlar

1. Davlat hokimiyatining asosiy vazifalarini tushuntirib bering.
2. Davlat hokimiyatining qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo‘linishining ahamiyati va zarurati haqida fikringizni bayon eting.
3. Xalq hokimiyatchiligi deganda nimani tushunasiz?
4. Nima uchun O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi oliy vakillik va yagona qonunchilik organi hisoblanadi? Fikringizni asoslab bering.
5. O‘zbekiston Respublikasi Senatini shakllantirish tartibini bayon eting.
6. Deputat so‘rovi va senator so‘rovining maqsadi, tartibini bayon eting.



29-DARS. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI

Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak.

Shavkat Mirziyoyev

Bilib olasiz

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti – davlat boshlig‘i.
O‘zbekiston Respublikasi Prezidentini saylash.
O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining vakolatlari.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti – davlat boshlig‘i



Hozirgi vaqtda BMTga a’zo bo‘lgan 193 ta davlatning 143 tasida prezident lavozimi mavjud. Davlatchilik tajribasida prezident lavozimi keng qo‘llanadi.

O‘zbekistonda prezident lavozimi 1990-yil 24-martda joriy qilingan. O‘zbekiston Prezidenti davlat boshlig‘i maqomiga ega bo‘lib, Konstitutsiyada uning vakolatlar belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Konstitutsiyaga va qonunlarga asoslanib hamda ularni ijro etish yuzasidan respublikaning butun hududida majburiy kuchga ega bo‘lgan farmonlar, qarorlar va farmoyishlar chiqaradi.

Prezidentning daxlsizlik va immunitet huquqi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti o‘z vazifasini bajarib turgan davrda boshqa haq to‘lanadigan lavozimni egallashi, vakillik organining deputati bo‘lishi, tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanishi mumkin emas.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining shaxsi daxlsizdir va qonun bilan muhofaza etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining daxlsizligi uning turarjoy va xizmat xonalariga, bagajiga, shaxsiy va xizmat transport vositalariga, yozishmalariga, foydalanadigan aloqa vositalariga, shuningdek, unga tegishli hujjatlarga tatbiq etiladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va uning oila a’zolariga **davlat muhofazasi** beriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga muddati *o‘ttiz olti ish kunidan iborat yillik haq to‘lanadigan ta’til* beriladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining belgisi va shtandartiga (bayrog‘iga) ega bo‘ladi.

Qiziqarli ma’lumot

Prezidentning huquqiy maqomiga uning qaysi yo‘l bilan saylanishi (xalq tomonidanmi, vakillik organlari yoki maxsus organlar tomonidanmi), faqat davlat boshlig‘i yoki davlat va ijro hokimiyati boshlig‘i ekani, davlat boshqaruvining prezidentlik, parlamentar, aralash shakllari ta’sir qiladi va bular prezidentning hokimiyat tizimidagi o‘rnini aniqlashda ham asosiy mezon bo‘ladi.

Yodda tuting!

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti davlat boshlig‘idir va davlat hokimiyati organlarining kelishilgan holda faoliyat yuritishini hamda hamkorligini ta’minlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 105-modda

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentini saylash

Barcha mamlakatlarda prezident ma’lum muddatga saylab qo‘yiladi. Saylov har xil bo‘lishi mumkin. Masalan, ayrim davlatlarda prezidentni parlament (xalq vakillari) saylaydi (Italiya, Chexiya, Polshada); ayrim mamlakatlarda faqat prezident saylash uchun maxsus anjuman chaqiriladi (Germaniyada); ayrim mamlakatlarda prezidentni saylovchilar vakillari saylaydi (AQSHda); ayrim mamlakatlarda prezidentni bevosita xalq saylaydi (Fransiya, Rossiya, Qozog‘istonda).

Bevosita xalq tomonidan to‘g‘ridan to‘g‘ri saylangan prezident kuchli vakolatlarga ega bo‘ladi. Prezident to‘g‘ridan to‘g‘ri saylanganda fuqarolarda uning saylovoldi dasturi bilan bevosita tanishish imkoniyati mavjud.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzod siyosiy partiyadan ko‘rsatiladi. Qasddan sodir etilgan jinoyati uchun ilgari sudlangan fuqarolar hamda diniy tashkilotlar va birlashmalarning professional xizmatchilari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzod sifatida ro‘yxatga olinmaydi.

Bosqichlar	**O‘zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzodning saylov jarayoni bosqichlari**
1-bosqich	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentligi saylovida ishtirok etish uchun siyosiy partiya Markaziy saylov komissiyasiga murojaat qiladi (saylovga kamida yetmish kun qolganida);
2-bosqich	Markaziy saylov komissiyasi taqdim qilingan hujjatlar asosida partiyaning saylovda ishtirok etishiga ijozat berish to‘g‘risidagi qaror, siyosiy partiya vakolatli vakiliga ro‘yxatga olinganlik guvohnomasi, imzo varaqalarining blankalarini taqdim qiladi;
3-bosqich	Saylovda ishtirok etuvchi partiyalarning ro‘yxati matbuotda e’lon qilinadi;
4-bosqich	Siyosiy partiyaning yuqori organi tomonidan prezidentlikka nomzod ko‘rsatiladi va bayonnomani rasmiylashtiriladi;
5-bosqich	Siyosiy partiyaning rahbari prezidentlikka nomzodni ro‘yxatga olish to‘g‘risida Markaziy saylov komissiyasiga ariza va tegishli hujjatlar bilan murojaat etadi;
6-bosqich	Markaziy saylov komissiyasi hujjatlar muvofiqligini o‘rganadi va xulosa taqdim qiladi;
7-bosqich	Markaziy saylov komissiyasi prezidentlikka nomzodni ro‘yxatga oladi;
8-bosqich	Saylov jarayoni;
9-bosqich	Saylangan Prezident lavozimiga kirishadi.

Yodda tuting!

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari tomonidan umumiy, teng va to‘g‘ridan to‘g‘ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo‘li bilan yetti yil muddatga saylanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga o‘ttiz besh yoshdan kichik bo‘lmagan, davlat tilini yaxshi biladigan, bevosita saylovgacha kamida 10 yil O‘zbekiston hududida muqim yashayotgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi saylanishi mumkin.

Qiziqarli ma’lumot

Prezidentni umumiy, teng, to‘g‘ridan to‘g‘ri saylov asosida yashirin ovoz berish yo‘li bilan saylash dunyoning 110 ta davlatida qabul qilingan usuldir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Markaziy saylov komissiyasi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi natijalari rasmiy ravishda e’lon qilingan kundan e’tiboran, kechi bilan ***ikki oy ichida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qo‘shma majlisida qasamyod qilgan*** paytdan e’tiboran o‘z lavozimiga kirishadi.

Amaldagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti o‘z vakolatlarini yangi saylangan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimga kirishguniga qadar bajaradi.

Prezident O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi yig‘ilishida qasamyodni qabul qilgan paytdan boshlab o‘z lavozimiga kirishgan hisoblanadi.

Ayni bir shaxs surunkasiga ikki muddatdan ortiq O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti bo‘lishi mumkin emas.

O‘zbekiston Respublikasining amaldagi Prezidenti o‘z vazifalarini bajara olmaydigan holatlarda uning vazifa va vakolatlari vaqtincha Senat Raisining zimmasiga yuklatiladi, bunda uch oy muddat ichida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi o‘tkaziladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining vakolatlari

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 109-moddasida Prezidentning vazifa va vakolatlari, Prezident hal qiladigan, bajaradigan, amalga oshiradigan ishlar belgilangan.

Konstitutsiya va qonunlarda ko‘rsatilgan Prezident vakolatlarini maqsad va mazmuniga qarab quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining fuqarolarning huquq va erkinliklariga, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya etilishini ta’minlash borasidagi vakolatlari. Bu vakolatlar eng avvalo inson manfaatlarini himoya qilish, ularning erkini, farovon yashashini ta’minlashni nazarda tutadi.

2. Prezidentning mamlakat suvereniteti, xavfsizligi va hududiy yaxlitligini muhofaza qilish, milliy davlat tuzilishi masalalariga doir vazifa va vakolatlari.

3. Prezidentning ichki va tashqi siyosat sohasidagi vakolatlari.

4. Prezidentning turli davlat organlari, muassasa va tashkilotlarni tuzish, hokimiyat tarmoqlarini tashkil qilish, ularning bahamjihat ishlashini ta’minlash sohasidagi vakolatlari.

5. Prezidentning qonunchilik sohasidagi vakolatlari.

Prezident O‘zbekiston Respublikasining suvereniteti, xavfsizligi va hududiy yaxlitligini muhofaza etish, davlat tuzilishi masalalariga doir qarorlarni amalga oshirish yuzasidan zarur chora-tadbirlar ko‘radi.

Yodda tuting!

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti fuqarolarning huquqlari va erkinliklari, konstitutsiya va qonunlarga rioya etilishining kafili hisoblanadi.

Prezident O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Oliy Bosh qo‘mondoni hisoblanadi. Qurolli Kuchlarning oliy qo‘mondonlarini tayinlaydi va vazifasidan ozod qiladi, oliy harbiy unvonlar beradi.



Prezident mamlakat ichkarisida va xalqaro munosabatlarda O‘zbekiston Respublikasi nomidan ish ko‘radi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasining chet davlatlardagi diplomatik va boshqa vakillarini tayinlash uchun nomzodlarni Oliy Majlisining Senatiga taqdim etadi hamda o‘z huzurida akkreditatsiyadan o‘tgan diplomatik hamda boshqa vakillarning ishonch va chaqiruv yorliqlarini qabul qiladi.

Prezident respublika oliy hokimiyat va boshqaruv organlarining bahamjihat ishlashini ta’minlaydi; vazirliklar, davlat qo‘mitalari hamda davlat boshqaruvining boshqa organlarini O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining taqdimiga binoan tuzadi va tugatadi, shu masalalarga doir farmonlarni keyinchalik Oliy Majlisning palatalari tasdig‘iga kiritadi.

Prezidentning muhim vakolatlaridan biri davlat hokimiyati va boshqaruv organlari rahbarlarini lavozimga tayinlash hisoblanadi. Jumladan:

– Senat Raisi lavozimiga nomzodni Oliy Majlis Senatiga taqdim etadi;

– O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirini, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi a’zolarini O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi ma’qullaganidan keyin lavozimga tayinlaydi va ularni lavozimidan ozod etadi;

– O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatiga O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi, O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi tarkiblariga nomzodlarni, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining raisi, respublika korrupsiyaga qarshi kurashish organining rahbari va respublika monopoliyaga qarshi organining rahbari lavozimlariga nomzodlarni taqdim etadi;

– O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashining taqdimiga binoan viloyatlar va Toshkent shahar sudlari raislarini va rais o‘rinbosarlarini, O‘zbekiston Respublikasi Harbiy sudi raisini tayinlaydi va lavozimidan ozod etadi;

– viloyatlar hokimlarini va Toshkent shahar hokimini tayinlaydi hamda lavozimidan ozod etadi.

– O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati bilan maslahatlashuvlardan keyin O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati raisini lavozimga tayinlaydi va uni lavozimidan ozod etadi.

Yodda tuting!

Prezident O‘zbekiston Respublikasining qonunlarini imzolaydi va e’lon qiladi.

Prezident Oliy Majlis palatalari tomonidan qabul qilingan qonunga o‘z e’tirozlarini ilova etib, uni takroran muhokama qilish va ovozga qo‘yish uchun O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga qaytarishga haqli.

Shuningdek, prezident O‘zbekiston Respublikasining ordenlari, medallari va yorlig‘i bilan mukofotlaydi, O‘zbekiston Respublikasining malakaviy va faxriy unvonlarini beradi.

Amnistiya to‘g‘risidagi hujjatlarni qabul qilish haqida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatiga taqdimnoma kiritadi va O‘zbekiston Respublikasining sudlari tomonidan hukm qilingan shaxslarni afv etadi.

O‘zbekiston Respublikasining amaldagi Prezidenti o‘z vazifalarini bajara olmaydigan holatlarda uning vazifa va vakolatlari vaqtincha O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Raisining zimmasiga yuklatiladi, bunda uch oy muddat ichida, qonunga to‘liq muvofiq holda mamlakat Prezidenti saylovi o‘tkaziladi.

Vakolati tugashi munosabati bilan iste’foga chiqqan Prezident umrbod Senat a’zosi lavozimini egallaydi.

Hayotiy vaziyat

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga imzolash uchun Senat tomonidan qonun yuborildi. Biroq davlat boshlig‘i o‘z e’tirozlari bilan qonunni imzolamasdan qaytardi. Qonunchilik palatasi deputatlari va Senati a’zolari umumiy sonining to‘rtdan uch qismidan iborat ko‘pchilik ovozi bilan qaytarilgan qonun o‘zgartirish kiritilmasdan ayni tahrirda ma’qullandi. Qonunni imzolash uchun yana Prezidentga yuborildi.

Vaziyatga huquqiy baho bering.

Ushbu holat O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi doirasida qanday hal qilinadi?

2. Ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi jarayoni Konstitutsiya va Saylov kodeksi bilan tartibga solinadi. Shu nuqtayi nazardan Prezident saylovi qachon o‘tkaziladi?

O‘zbekistonda saylovlar qaysi oyda o‘tkaziladi? Saylov qanday tashkil etiladi?

Masalani atroflicha tahlil qiling.

Savol va topshiriqlar

1. Prezidentning daxlsizlik va immunitet huquqlarini misollar orqali bayon eting.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzodni saylash tartibini bayon eting.
3. Prezident vakolatlarini misollar orqali bayon eting.
4. Prezident Oliy Majlisga mamlakat ichki va tashqi siyosatini amalga oshirishning eng muhim masalalari yuzasidan murojaat qilish huquqiga ega. Mana shu ma’lumot asosida Prezidentning Oliy Majlisga Murojaatnomasi haqida gapirib bering. Unda qaysi masalalar bayon etiladi?

30-DARS. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI

Insonlarning haqiqiy tengligi ularning barchasi
bir xilda qonunga bo‘ysunishida namoyon bo‘ladi.
Jan Le Ron Alamber

Bilib olasiz

Vazirlar Mahkamasi – ijro etuvchi hokimiyatning oliy organi.
Vazirlar Mahkamasining tarkibi va vakolatlari.

Vazirlar Mahkamasi – ijro etuvchi hokimiyatning oliy organi

Mamlakatimizda davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish sohasida olib borilayotgan islohotlar O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 11-moddasida belgilangan davlat hokimiyatining qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo‘linishi prinsipiga asoslanadi.

Siz yuqorida O‘zbekiston Respublikasining qonun chiqaruvchi hokimiyati haqida bilib oldingiz.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi ijro etuvchi hokimiyatni amalga oshiradi.

Vazirlar Mahkamasi O‘zbekiston Respublikasi Hukumati ijro etuvchi hokimiyatning oliy organi hisoblanadi va ijro etuvchi hokimiyatning yagona tizimiga rahbarlik qiladi.

Vazirlar Mahkamasi mamlakatda iqtisodiy, ijtimoiy va ma’naviy sohalarning samarali faoliyat ko‘rsatishida kollegial organ sifatida ish olib boradi.

Vazirlar Mahkamasi o‘z faoliyatida:

– O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiya va qonunlarining ustunligini ta’minlaydi va qonunchilik tashabbusi huquqiga ega;

– O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan belgilanadigan asosiy yo‘nalishlar doirasida ish olib boradi;

– O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti oldida javobgar hisoblanadi;

– inson hamda fuqaroning huquq va erkinliklarini ta’minlaydi;

– hokimiyat tarmoqlarining bo‘linishi va hamkorligini ta’minlaydi;

– kollegiallik, ochiqlik va shaffoflik prinsiplariga amal qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi



Yodda tuting!

Hukumat – davlatning oliy kollegial ijroiya organi. Hukumat turli mamlakatlarda turlicha nom bilan ataladi: Vazirlar Kengashi (Fransiya, Italiya, Polsha), Vazirlar Mahkamasi (Buyuk Britaniya, O‘zbekiston), Davlat Kengashi (XXR) va hokazo.

Vazirlar Mahkamasining tarkibi va vakolatlari



O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri:

1) Vazirlar Mahkamasi faoliyatini tashkil etadi va unga rahbarlik qiladi, uning samarali ishlashi uchun shaxsan javobgar bo‘ladi;

2) Vazirlar Mahkamasining majlislarida raislik qiladi, uning qarorlarini imzolaydi;

3) xalqaro munosabatlarda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi nomidan ish ko‘radi;

4) O‘zbekiston Respublikasi qonunlarida nazarda tutilgan boshqa vazifalarni bajaradi.

O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri nomzodi → **Qonunchilik palatasi ko‘rib chiqishi va ma’qullashi uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan taqdim etiladi**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan taqdim etilgan O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri nomzodini taqdimnoma kiritilgan kundan e’tiboran o‘n kun ichida ko‘rib chiqadi.

VAZIRLAR MAHKAMASI

114–119-moddalar

Ijro etuvchi hokimiyatni amalga oshiradi.



Bosh vazir, uning o‘rinbosarlari, vazirlar va Qoraqalpog‘iston Respublikasi hukumatining boshlig‘idan iborat.



O‘zbekistonning butun hududidagi barcha organlar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiy bo‘lgan qarorlar va farmoyishlar chiqaradi.



O‘z faoliyatida Oliy Majlis va Prezident oldida javobgardir.





Bosh vazir nomzodi

Oliy Majlisning Qonunchilik palatasida uning nomzodi ko‘rib chiqilayotganda Vazirlar Mahkamasining harakat dasturini taqdim etadi.

Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi deputatlari umumiy sonining yarmidan ko‘pi tomonidan ovoz berilgan taqdirda ma’qullangan hisoblanadi.

Yodda tuting!

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi yoshlarga oid davlat siyosatining amalga oshirilishini ta’minlaydi, oilani qo‘llab-quvvatlash, mustahkamlash va himoya qilish, an’anaviy oilaviy qadriyatlarni saqlash bo‘yicha choralar ko‘radi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining a’zolari ularning nomzodlari O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi tomonidan ma’qullanganidan keyin O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimga tayinlanadi.

Vazirlar Mahkamasining vakolatlari

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yangi tahriri asosida Vazirlar Mahkamasi vakolatlari tizimlashtirildi va aniqlashtirildi.

Vazirlar Mahkamasining vakolatlari 12 bandda aniq-ravshan etib ifodalandi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga ko‘ra, Vazirlar Mahkamasining butun faoliyatini 3 ta yo‘nalishga ajratish mumkin.

Birinchi yo‘nalish iqtisodiy va ijtimoiy sohalarga tegishli umumiy vakolatlar (115-moddaning 1-, 2-, 3-, 4-bandlari)

Ikkinchi yo‘nalish fuqarolik jamiyati institutlari va fuqarolarning huquq va erkinliklariga tegishli vakolatlar (115-moddaning 5-, 6-, 7-bandlari)

Uchinchi yo‘nalish ijroni amalga oshirishga tegishli vakolatlar (115-moddaning 8-, 9-, 10-,11-bandlari)

Savol va topshiriqlar

1. Nima uchun Vazirlar Mahkamasi ijro etuvchi hokimiyatning oliy organi deb ataladi?
2. Vazirlar Mahkamasi qanday hujjatlar chiqaradi? Misollar keltiring.
3. O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri qanday vazifalarni bajaradi?
4. Vazirlar Mahkamasining vakolatlariga nimalar kiradi?

Mustaqil ish uchun topshiriq

Quyidagi jadvalni O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi moddalari asosida to‘ldiring.

Savol	
O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri nomzodi qaysi organ ma’qullashi uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan taqdim etiladi?	
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qachon O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri nomzodini taqdim etadi?	
Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan taqdim etilgan Bosh vazir nomzodini necha kunda ko‘rib chiqadi?	
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining a’zolari lavozimga qanday tayinlanadi?	

31-DARS. MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI

Birovga ko‘rsatilgan kichik bir mehribonlik
ming martalik ibodatdan ko‘ra afzaldir.
Mahatma Gandi

Bilib olasiz

Mahalliy davlat hokimiyati tushunchasi.
Mahalliy ijro hokimiyati organlari va ularning vakolatlari.
Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari.

Mahalliy davlat hokimiyati tushunchasi

O‘zbekiston Respublikasida mahalliy davlat hokimiyati hududdagi (viloyat, Toshkent shahri, shahar va tumanlarda) davlat boshqaruv organlari hisoblanadi hamda u yagona davlat hokimiyati organlarining tarkibiy bo‘g‘ini sifatida faoliyat yuritadi.

Ular mahalliy (viloyat, Toshkent shahri, shahar va tumanlar) ahamiyatga molik masalalarni o‘z vakolatlari doirasida hal etadilar. O‘z hududlarida yashayotgan fuqarolarning manfaatlarini davlat manfaatlari bilan birga uyg‘unlashtiradilar.

Davlat hokimiyati vakillik organlari

Viloyat xalq deputatlari Kengashlari	Tuman xalq deputatlari Kengashlari	Shahar xalq deputatlari Kengashlari

Yagona davlat hokimiyati organlarining tarkibiy bo‘g‘ini sifatida yuqori davlat organlari qarorlarining amalga oshirilishini ta’minlaydilar.

Xalq deputatlari Kengashiga uning deputatlari orasidan qonunga muvofiq saylanadigan rais boshchilik qiladi. Xalq deputatlari Kengashlarining vakolat muddati – besh yil. Ayni bir shaxs surunkasiga ikki muddatdan ortiq ayni bir viloyat, tuman, shahar xalq deputatlari Kengashining raisi etib saylanishi mumkin emas.

Xalq deputatlari Kengashining vakolatlari:

1) tegishli mahalliy byudjetni ko‘rib chiqadi va qabul qiladi, ularning ijro etilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi;

2) hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantiradi va aholini ijtimoiy himoya qilish dasturlarini tasdiqlaydi;

3) hokimni lavozimga tasdiqlaydi, uning faoliyati to‘g‘risidagi hisobotlarni eshitadi;

4) O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarida nazarda tutilgan boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

Yodda tuting!

Viloyat, tuman, shahar hokimi lavozimini egallab turgan shaxs bir vaqtning o‘zida xalq deputatlari Kengashining raisi lavozimini egallashi mumkin emas.

Mahalliy ijro hokimiyati organlari va ularning vakolatlari

Yodda tuting!

Tegishli hududdagi ijro etuvchi hokimiyatga viloyat, tuman va shahar hokimi boshchilik qiladi.

Hokimlarning vakolat muddati – besh yil. Ayni bir shaxs surunkasiga ikki muddatdan ortiq ayni bir viloyat, tuman, shaharning hokimi etib tayinlanishi mumkin emas.

Viloyat, tuman, shahar hokimlarining vakolatlari:

1) O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlarini, Oliy Majlis palatalarining qarorlarini, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari hamda farmoyishlarini, Vazirlar Mahkamasining, yuqori turuvchi hokimlarning va tegishli xalq deputatlari Kengashlarining qarorlarini bajaradi;

2) hududlarni iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik jihatdan rivojlantirishni ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshiradi;

3) mahalliy byudjetni shakllantiradi va ijro etadi.


Viloyat va Toshkent shahri hokimi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qonunga muvofiq tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi. Tuman va shaharlarning hokimlari viloyat, Toshkent shahri hokimi tomonidan tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi hamda tegishli xalq deputatlari Kengashi tomonidan tasdiqlanadi. Tumanga bo‘ysunadigan shaharlarning hokimlari tuman hokimi tomonidan tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi hamda xalq deputatlari tuman Kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari

Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarishi deganda, ularning mahalliy ahamiyatga molik masalalarni o‘z manfaatlaridan kelib chiqib hal etishi, shuningdek, rivojlanishning tarixiy xususiyatlari, milliy va ma’naviy qadriyatlar, mahalliy urf-odatlar va an’analardan kelib chiqib olib boradigan mustaqil faoliyati tushuniladi. Ushbu faoliyat O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari bilan kafolatlanadi.

Fuqarolar jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyidan qat’i nazar, bevosita yoki o‘zlarining saylanadigan vakillari orqali o‘zini o‘zi boshqarishda teng huquqlarga ega.

O‘ZINI O‘ZI BOSHQARISH ORGANLARI



Yodda tuting!

Fuqarolar yig‘ini fuqarolar yig‘ini raisini saylaydi.

Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari tomonidan jamoatchilik nazorati amalga oshiriladi. Jamoatchilik nazorati ommaviy axborot vositalari, nodavlat notijorat tashkilotlari va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlikda amalga oshirilishi mumkin.

Savol va topshiriqlar

1. Mahalliy davlat hokimiyati deganda nima tushuniladi?
2. Mahalliy davlat hokimiyatining konstitutsiyaviy asoslarini izohlab bering.
3. Quyidagi jadvalni to‘ldiring. Ushbu vakolatlarning xususiyatlarini yoriting. Xalq deputatlari Kengashi va hokimlarning vakolatida bog‘liqlik bormi? Javobingizni izohlang.

Xalq deputatlari Kengashlari vakolatlari	Hokimlarning vakolatlari

Mustaqil ish uchun topshiriq

Quyidagilarni O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonuniga ko‘ra to‘ldiring:

1. Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashi O‘zbekiston Respublikasining ..... saylanadigan xalq deputatlaridan iborat bo‘ladi.

2. Viloyat, tuman, shahar ijroiya hokimiyatiga ..... boshchilik qiladi.

3. Viloyat va Toshkent shahri hokimining birinchi o‘rinbosari hamda o‘rinbosarlari hokim tomonidan ..... kelishilgan holda lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi.

4. Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashlarining O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga zid keladigan qarorlari belgilangan tartibda ..... bekor qilinadi.

5. Yuqori turuvchi davlat hokimiyati organlari o‘z vakolatlari doirasida qabul qilgan qarorlar ..... uchun majburiydir.



32-DARS. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING SUD HOKIMIYATI

Sudyaning ishi qonunni hadya etish emas,
balki uni to‘g‘ri talqin qilishdir.
Frensis Bekon

Bilib olasiz

Sud hokimiyati tushunchasi.
O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi va Oliy sudi.
Sudyalar mustaqilligi.

Sud hokimiyati tushunchasi

O‘zbekiston Respublikasida davlat hokimiyatining yana bir alohida va mustaqil organi sifatida sud hokimiyati odil sudlovni amalga oshiradi.

Sud hokimiyati faqat sudlar tomonidan amalga oshiriladi. Hech qaysi boshqa organ va shaxslar sud hokimiyati vakolatlarini o‘zlashtirib olishga haqli emas.

Bugun odamlarning odil sudlovga bo‘lgan ishonchi mustahkamlandi. Sud jazolovchi organ emas, balki adolat qo‘rg‘oni sifatida namoyon bo‘lib, xalq bilan hamnafas bo‘lib kelmoqda.



O‘zbekiston Respublikasida sud tizimi quyidagilardan iborat:

– O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi;
– O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi;
– harbiy sudlar;
– Qoraqalpog‘iston Respublikasi sudi, viloyatlar va Toshkent shahri sudlari;
– Qoraqalpog‘iston Respublikasi ma’muriy sudi, viloyatlar va Toshkent shahri ma’muriy sudlari;
– fuqarolik ishlari bo‘yicha tumanlararo, tuman, shahar sudlari;
– jinoyat ishlari bo‘yicha tuman, shahar sudlari;
– tumanlararo, tuman, shahar iqtisodiy sudlari;
– tumanlararo ma’muriy sudlar.

Yodda tuting!

Sud hokimiyatining hujjatlari barcha davlat organlari va boshqa tashkilotlar, mansabdor shaxslar hamda fuqarolar uchun majburiydir. Sud hujjatini ijro etmaslik qonunda belgilangan javobgarlikka sabab bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi va Oliy sudi



Endi O‘zbekiston Respublikasi sud tizimi tarkibidagi sudlar haqida ma’lumotlarni ko‘rib chiqamiz. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi davlatimiz mustaqillikni qo‘lga kiritgan davrdan boshlab faoliyat yuritib kelmoqda. Konstitutsiyaviy sud qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyat hujjatlarining konstitutsiyaga muvofiqligi to‘g‘risidagi ishlarni ko‘radi. Konstitutsiyaviy sud doimiy faoliyat yurituvchi sud organi hisoblanadi. Konstitutsiyaviy sud qonunchilik tashabbusi huquqiga ega. Konstitutsiyaviy sudning qonunchilik tashabbusi huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga kiritish orqali amalga oshiriladi.

Konstitutsiyaviy sud O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi tavsiya etgan siyosat va huquq sohasidagi mutaxassislar orasidan, Qoraqalpog‘iston Respublikasi vakilini qo‘shgan holda saylanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi o‘z tarkibidan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining raisini va uning o‘rinbosarini besh yillik muddatga saylaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi quyidagi hujjatlarning O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiqligini aniqlaydi:

- O‘zbekiston Respublikasi qonunlari
- O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qarorlari
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari, farmoyishlari
- Hukumat, mahalliy davlat hokimiyati organlari qarorlari
- O‘zbekiston Respublikasining davlatlararo shartnomaviy va boshqa majburiyatlari

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi:

– O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti tomonidan imzolanguniga qadar O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy qonunlarining, ratifikatsiya qilish to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi qonunlari va O‘zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomalarining O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiqligini aniqlaydi.

– Referendumga chiqarilayotgan masalalarning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiqligi to‘g‘risida xulosa beradi.

Yodda tuting!

Konstitutsiyaviy sudning faoliyatini tartibga solish maqsadida Konstitutsiyaviy sud to‘g‘risida qonun qabul qilingan.

Konstitutsiyaviy sudning qarori rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi. Konstitutsiyaviy sudning qarori qat’i va uning ustidan shikoyat qilinishi mumkin emas.

– Qoraqalpog‘iston Respublikasi Konstitutsiyasining O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, Qoraqalpog‘iston Respublikasi qonunlarining O‘zbekiston Respublikasining qonunlariga muvofiqligi to‘g‘risida xulosa beradi.

– O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari normalariga sharh beradi.

– O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining muayyan ishda qo‘llanishi lozim bo‘lgan normativ-huquqiy hujjatlarning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiqligi to‘g‘risida sudlar tashabbusi bilan kiritilgan murojaatini ko‘rib chiqadi. Har yili O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalariga va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga mamlakatdagi konstitutsiyaviy qonuniylikning holati to‘g‘risida axborot taqdim etadi.

Fuqarolar va yuridik shaxslar sud tomonidan o‘ziga nisbatan qo‘llangan qonunning konstitutsiyaga muvofiqligi to‘g‘risidagi shikoyat bilan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudiga murojaat qilishga haqli.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi:


– Fuqarolik, jinoiy, iqtisodiy, ma’muriy sud ishlarini yuritadi.

– Qabul qilgan hujjatlari qat’iy hisoblanadi va O‘zbekiston Respublikasining butun hududida majburiy bajariladi.

– Quyi sudlarning sudlov faoliyati ustidan nazorat olib borish huquqiga ega.

– Raisi va uning o‘rinbosarlari besh yillik muddatga saylanadi. Ayni bir shaxs surunkasiga ikki muddatdan ortiq O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining raisi, rais o‘rinbosari etib saylanishi mumkin emas.

O‘zbekiston Respublikasining harbiy sudlari sud tizimida alohida o‘rin egallaydi.



Sudyalar mustaqilligi

O‘zbekiston Respublikasida sud hokimiyati qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatdan, siyosiy partiyalardan, fuqarolik jamiyatining boshqa institutlaridan mustaqil holda ish yuritadi. Sud hokimiyati mustaqilligi jismoniy va yuridik shaxslar huquqlari va qonuniy manfaatlarini muhofaza etishga va jamiyat rivojlanishiga xizmat qiladi.



Yodda tuting!

Sudyalar senator, davlat hokimiyati vakillik organlarining deputati bo‘lishi mumkin emas.

Sudlar tomonidan qonuniylikning ta’minlanishi “Kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyati sari” tamoyilining amalda qaror topishini ta’minlaydi.

O‘z navbatida sudyalar ham mustaqildirlar, ular faqat konstitutsiya va qonunga bo‘ysunadilar. Qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyat organlari sudyalarga tazyiq o‘tkazishga haqli emas.

Sudyalar daxlsizdir. Ya’ni sudyaning sha’ni, qadr-qimmati daxlsiz qadriyat sifatida ulug‘lanadi. Shunga ko‘ra, sudyalarning huquq va erkinliklari qonuniy muhofaza qilinadi. Davlat sudyaning va uning oila a’zolarining xavfsizligini ta’minlaydi.

Sudyalar siyosiy partiyalarning a’zosi bo‘lishi, siyosiy harakatlarda ishtirok etishi, shuningdek, ilmiy, ijodiy va pedagogik faoliyatdan tashqari haq to‘lanadigan boshqa faoliyat turlari bilan shug‘ullanishi mumkin emas.

O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi sudyalar hamjamiyatining mustaqil organi bo‘lib, u sudyalar korpusining shakllantirilishini, sud hokimiyati mustaqilligining konstitutsiyaviy prinsipiga rioya etilishini ta’minlaydi.

Savol va topshiriqlar

1. Sud hokimiyati va sud tizimini tushuntiring.
2. Odil sudlovning ma’nosi nima?
3. Sudyalarning daxlsizligini asoslab bering.
4. O‘zbekiston Respublikasi sud tizimi asosida sudlarning vazifalarini bayon eting.

Mustaqil ish uchun topshiriq

	O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi	O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi	Qoraqalpog‘iston sudlari	O‘rta va quyi sudlar
Vakolat berish tartibi				
Vakolat muddati				
Vakolatlari				



33-DARS. IJODIY FAOLIYAT

1-topshiriq. Quyidagilarga izoh bering.

Vazifalar	Jamiyat	Fuqarolik jamiyati	Shaxs
Nazariy tushuncha bering.			
Asosiy omillarini yoriting.			
Konstitutsiyaviy asosini keltiring.			

2-topshiriq. Davlat hokimiyatiga doir qonunchilikni bilasizmi?


Vazifalar	Qonun chiqaruvchi hokimiyat	Ijro etuvchi hokimiyat	Sud hokimiyati
Qonunchilikdan huquqiy asosini toping. (Qanday qonunlar qabul qilingan?)			
Qonunlarning maqsadi nima?			
Ularga tegishli 10 tadan huquqiy atama keltiring.			

3-topshiriq. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi qonun asosida quyidagi huquqiy me’yorlarni to‘ldiring.

Davlat yoshlarning intellektual, ijodiy, jismoniy va axloqiy jihatdan shakllanishi hamda rivojlanishi uchun, ularning ta’lim olishga, sog‘lig‘ini saqlashga, uy-joyga, ishga joylashishga, bandlik va dam olishga bo‘lgan huquqlarini amalga oshirish uchun .....

Jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeyidan qat’i nazar, yoshlarning huquqlari va erkinliklarini biror-bir tarzda bevosita yoki bilvosita cheklashga yo‘l qo‘yilmaydi hamda bunday cheklash .....

“Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi qonunning maqsadi ..... tartibga solishdan iborat.





34-DARS. NAZORAT ISHI

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi asosida quyida berilgan me’yorlardagi xatolikni toping va to‘g‘rilang.

1. Qonun Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilinib, Senat tomonidan ma’qullangach, yuridik kuchga ega bo‘ladi.
2. O‘zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi oliy davlat vakillik organi bo‘lib, qonun chiqaruvchi organ vazifasini bajaradi.
3. O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti konstitutsiya va qonunlarga asoslanib hamda ularni ijro etish yuzasidan Respublikaning butun hududida majburiy kuchga ega bo‘lgan farmonlar chiqaradi.
4. Vakolati tugashi munosabati bilan iste’foga chiqqan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti umrbod O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi a’zosi lavozimini egallaydi.
5. Vazirlar Mahkamasi o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Oliy sud oldida javobgardir.
6. Viloyat, tuman, shahar hokimi lavozimini egallab turgan shaxs bir vaqtning o‘zida xalq deputatlari Kengashining raisi lavozimini egallashi mumkin.
7. Viloyat va Toshkent shahri hokimi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qonunga muvofiq tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi. Tuman va shaharlarning hokimlari viloyat, Toshkent shahri hokimi tomonidan tasdiqlanadi.
8. Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari davlat hokimiyati organlari tizimiga kiradi.
9. O‘zbekiston Respublikasida sud tizimi va sudlar faoliyatining tartibi qonun bilan belgilanadi. Favqulodda sudlar tuzishga yo‘l qo‘yiladi.
10. Konstitutsiyaviy sudning sudyalari qayta saylanish huquqisiz o‘n besh yillik muddatga tayinlanadi.

Hayotiy vaziyat

Fuqaro o‘z huquqini himoya qilish maqsadida Konstitutsiyaviy sudga murojaat qilmoqchi bo‘lgan, lekin fuqaroga rad javobi berilgan. Fuqaro Konstitutsiyaviy sudga murojaat qilishga haqlimi?

Ushbu vaziyatni huquqiy tahlil qiling.

Savol:

1. Qanday hollarda fuqarolar Konstitutsiyaviy sudga murojaat qilishi mumkin?
2. Fuqaro Konstitutsiyaviy sudga nima to‘g‘risida murojaat qilishga haqli?
3. Konstitutsiyaviy sudning qarori qachon kuchga kiradi?
4. Konstitutsiyaviy sud qanday huquqiy hujjat qabul qiladi?



AYRIM YURIDIK ATAMALARNING IZOHLI LUG‘ATI

Ariza – fuqarolarning o‘z huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini amalga oshirish uchun ko‘mak so‘rab qilgan murojaatlari.

Atrof-muhitni muhofaza qilish – inson faoliyatining atrof-muhitga salbiy ta’sirini cheklash va uning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuyi.

Aybsizlik prezumpsiyasi – jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan shaxs uning aybi qonunda nazarda tutilgan tartibda oshkora sud muhokamasi yo‘li bilan isbotlanmaguncha va sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi bilan aniqlanmaguncha aybsiz deb hisoblanishi.

Burch – kishining biror shaxs, oila, jamoa, el-yurt, vatan oldidagi majburiyatini anglatuvchi axloqiy tushuncha. Huquqiy holatda esa jamiyat va davlat tomonidan belgilangan va huquqiy normalarda o‘z aksini topgan talablarni bajarish.

Davlat suvereniteti – hokimiyatni amalga oshirishda mamlakat ichkarisi va tashqarisida to‘la-to‘kis mustaqillik.

Demokratiya – fuqarolarning davlatni boshqarishda ishtirok etish usullari orqali davlatni boshqarish. Bu tushuncha ilk marotaba Qadimgi Yunonistonda vujudga kelgan.

Deputat – Davlat vakillik organining saylab qo‘yilgan a’zosi. O‘zbekiston Respublikasida – xalqning O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar kengashlaridagi vakolatli vakili.

Dunyoviy davlat – diniy tashkilotlar va birlashmalar davlatdan hamda davlat hokimiyati dindan ajratilgan, davlat boshqaruvi Konstitutsiya va qonun hujjatlari bilan tartibga solinadigan davlat.

Erkinlik – inson uchun oliy ne’mat bo‘lib, uning qonunda taqiqlanmagan har qanday ishni qila olishi.

Fraksiya – biror-bir siyosiy partiyaning siyosatini parlamentda ifoda etuvchi, mahalliy o‘zini o‘zi boshqaruvda, jamoat tashkilotlarida o‘z organlariga ega bo‘lgan ayni partiya vakillaridan iborat tashkiliy guruh.

Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari – shaharchalar, qishloqlar va ovullar, shuningdek, shaharlardagi, shaharchalardagi, qishloqlardagi hamda ovullardagi mahallalar fuqarolar yig‘inlaridir.

Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarishi – fuqarolarning mahalliy ahamiyatga molik masalalarni o‘z manfaatlaridan, rivojlanishning tarixiy xususiyatlaridan, shuningdek, milliy va ma’naviy qadriyatlardan, mahalliy urf-odatlar va an’analardan kelib chiqqan holda hal qilish borasidagi O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari bilan kafolatlanadigan mustaqil faoliyati.

Fuqarolik jamiyati – uzviy bog‘liqlikda bo‘lgan hamda axloqiy madaniyatga tayanadigan huquqiy va siyosiy madaniyatga ega odamlardan iborat jamiyat.

Hokim – O‘zbekiston Respublikasida viloyat, tuman, shaharda oliy mansabdor shaxs. Mahalliy vakillik va ijro etuvchi hokimiyat boshlig‘i.

Hokimiyatlar bo‘linishi prinsipi – davlat hokimiyati tizimi faoliyatining asosiy prinsipi bo‘lib, unga ko‘ra, davlat hokimiyati qonunchilik, ijro etuvchi va sud hokimiyati organlariga bo‘linadi.

Huquq – davlat tomonidan o‘rnatilgan va u tomonidan himoya qilinadigan barcha uchun majburiy bo‘lgan xulq-atvor qoidalari tizimi.

Huquqiy davlat – huquq ustuvorligi ta’minlangan, inson va fuqarolarning huquq va erkinliklari kafolatlangan, qonunlar oldida barcha teng bo‘lgan, hech kim qonundan ustun turmaydigan davlat.

Huquqiy madaniyat – kishilarning huquqiy bilim darajasi, huquqni hurmat qilishi va unga rioya qilishi.

Huquqiy nigilizm – huquqqa, qonunlarga salbiy, ularni inkor qiluvchi, hurmatsiz munosabatda bo‘lish.

Huquqiy tartibot – jamiyatdagi munosabatlarning ma’lum bir holati, unga davlatning huquqiy me’yorlarida mavjud bo‘lgan barcha qonun-qoidalarga majburiy ravishda rioya qilinishi natijasida erishiladi.

Imtiyoz – turli xil afzalliklar, yengilliklar berish.

Inson huquqlari – insonning ijtimoiy hayotdagi, qonunlarda belgilab qo‘yilgan vakolatlari va imkoniyatlari.

Intellektual mulk – ixtirolar, ilmiy kashfiyotlar, adabiy, musiqiy asarlarni yaratish kabi ijodiy faoliyat natijalari.

Jamoat birlashmasi – o‘z huquqlari, erkinliklarini hamda siyosat, iqtisodiyot, ijtimoiy rivojlanish, fan, madaniyat, ekologiya va hayotning boshqa sohalaridagi qonuniy manfaatlarini birgalikda ro‘yobga chiqarish uchun birlashgan fuqarolarning xohish-irodalarini erkin bildirishlari natijasida vujudga kelgan ixtiyoriy tuzilma.

Konstitutsiya – yuridik kuchga ega bo‘lgan rasmiy hujjat bo‘lib, unda inson va fuqaroning huquq va erkinliklari belgilanadi, davlat boshqaruvi va hududiy tuzilishi, davlat organlarining vakolatlari belgilab qo‘yiladi.

Konstitutsiya muqaddimasi – Konstitutsiyada qabul qilinayotgan maqsadlar va prinsiplarni xalq nomidan tantanali e’lon qilish. Muqaddimada Konstitutsiya mamlakat xalqi nomidan e’lon qilinayotgani va uning orzu-umidlari, niyatlari va majburiyatlarini o‘zida mujassamlashtirishi ko‘rsatiladi.

Konstitutsiyaviy huquq – huquqning mustaqil tarmog‘i sifatida mamlakatning konstitutsiyaviy tuzilishi asoslarini, jamiyat tuzilishini, davlat hokimiyati va boshqaruv tuzilishini, davlat organlari vakolatlarini, shu davlat hududida yashab turgan fuqarolarning asosiy huquq va erkinliklarini belgilovchi yuridik me’yorlardan iborat.

Madaniy huquqlar – shaxsning madaniy boyliklardan foydalanish va yaratish, madaniy hayotda ishtirok etish erkinligini ta’minlaydigan huquqlar.

Miting – ma’lum bir shaxslar va tashkilotlarning xatti-harakatlari, ijtimoiy-siyosiy voqealarga nisbatan munosabatini oshkora ifodalash maqsadidagi fuqarolarning tinch yig‘ini.

Mulkdor bo‘lish huquqi – mulkka qanday egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etishni belgilovchi, shuningdek, ushbu vakolatlarni himoya qilishni ta’minlaydigan huquqiy normalar yig‘indisi.

Nodavlat notijorat tashkiloti – jismoniy va (yoki) yuridik shaxslar tomonidan ixtiyoriylik asosida tashkil etilgan, daromad (foyda) olishni o‘z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olmagan hamda olingan daromadlarni (foydani) o‘z qatnashchilari (a’zolari) o‘rtasida taqsimlamaydigan o‘zini o‘zi boshqarish tashkiloti.

Normativ-huquqiy hujjat – vakolatli davlat organlari tomonidan qabul qilingan huquqiy normalarni belgilashga, o‘zgartirishga yoki bekor qilishga qaratilgan rasmiy hujjat.

Odil sudlov – haqiqiy holatni aniqlab, odamlar orasidagi, ular bilan jamiyat va davlat o‘rtasidagi kelishmovchilik va nizolarni faqat sud tomonidan hal etilishi.

Ombudsman – mansabdor shaxs bo‘lib, davlat organlari, korxonalar, tashkilotlar va muassasalar, mansabdor shaxslar tomonidan inson huquqlari hamda erkinliklari to‘g‘risidagi qonunchilikka rioya etilishi ustidan parlament nazoratini olib boradi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi – O‘zbekiston Respublikasi hukumati. Ijro etuvchi hokimiyatning markaziy organi.

Prezident – respublika boshqaruv shaklidagi ko‘plab mamlakatlarda ma’lum muddatga saylab qo‘yiladigan davlat boshlig‘i.

Qonun ustuvorligi – barcha davlat hokimiyati organlari faoliyatida qonunlar oliy yuridik kuchga ega bo‘lishi.

Referendum – umumxalq ovoz berish yo‘li bilan qonunlar qabul qilish va davlat ahamiyatiga molik eng muhim masalalarni hal qilish shakli. Referendumning saylovdan farqi shundaki, unda muayyan shaxslarning nomzodlari emas, davlat va jamiyat ahamiyatiga oid ishlar, qonun, qonun loyihasi, Konstitutsiyaga o‘zgartirish va qo‘shimcha kiritish kabi masalalar muhokamaga qo‘yiladi. Fuqarolar ushbu masalalar yuzasidan o‘z ovozlarini beradilar.

Reglament – muayyan davlat organi yoki bo‘linmasining ichki tashkiliy hamda faoliyat tartibini belgilovchi normativ-huquqiy hujjat, ya’ni vakillik organlari majlis, yig‘ilish, sessiya va syezdlarini olib borish tartibi.

Respublika – bunday boshqaruv shaklida saylab qo‘yiladigan organlar saylovchilar oldida javobgar bo‘ladi, ular muayyan muddatga saylanadi va davlat hokimiyatini xalq nomidan amalga oshiradi.

Senat – davlat hokimiyatining yuqori organi bo‘lib, ko‘pincha qonunchilik kengashlari (parlament)ning yuqori palatasi shunday nomlanadi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining yuqori palatasi.

Siyosiy huquqlar – fuqarolarning jamiyat va davlat boshqaruvida, siyosiy hayotida ishtirok etish imkoniyatini ta’minlovchi huquqlar.

Siyosiy partiya – O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining qarashlar, manfaatlar va maqsadlar mushtarakligi asosida tuzilgan, davlat hokimiyati organlarini shakllantirishda jamiyat muayyan qismining siyosiy irodasini ro‘yobga chiqarishga intiluvchi hamda o‘z vakillari orqali davlat va jamoat ishlarini idora etishda qatnashuvchi ko‘ngilli birlashmasi.

Sud hokimiyati – hokimiyatlar bo‘linishi qoidasiga ko‘ra, davlat hokimiyatining alohida va mustaqil tarmog‘i.

Taklif – fuqarolarning davlat va jamoatchilik faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalarini ifodalovchi murojaatlar.

Tashqi siyosat – xalqaro hayotda ishtirok etgan holda o‘z chegarasidan tashqarisida davlatning boshqa davlatlar, xalqaro tashkilotlar bilan munosabatini, davlatning xalqaro munosabatlardagi umumiy yo‘nalishini amalga oshirishdan iborat.

Unitar davlat – yagona davlat bo‘lib, uning alohida ma’muriy-hududiy birliklari bir xildagi huquqlarga ega, butun davlat hududida yagona konstitutsiya, yagona hukumat va yagona qonun hujjatlari amal qiladi.

Vasiyatnoma – vasiyat qiluvchi o‘z merosxo‘rlarini va ularga merosni berish tartibini belgilaydigan hujjat.

Vazir – O‘zbekiston Respublikasida hukumat a’zosi hamda ma’lum bir vazirlikni boshqaruvchi yuqori mansabdor shaxs.

Vijdon erkinligi – har kimning xohlagan dinga e’tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e’tiqod qilmaslik huquqi.

Xalqaro huquq – xalqaro muloqot jarayonida davlatlararo munosabatlarni tartibga solib turuvchi yuridik qoidalar majmuyi.

Yig‘ilish – biror-bir muhim jamoatchilik masalasini jamoa bo‘lib birgalikda muhokama qilish uchun fuqarolar ishtiroki.

YUNEP – atrof-muhit muhofazasi bo‘yicha BMT dasturi.

Shaxs daxlsizligi (O‘zbekiston Respublikasida) – har bir kimsaning tug‘ilganidan boshlab tan olinadigan uzviy huquqi. Shaxs daxlsizligi jismoniy, axloqiy va ma’naviy jihatlarga ega.

Shaxsiy huquq va erkinliklar – inson tug‘ilgan zahoti ega bo‘ladigan, uning asosiy hayotiy ehtiyojlarini ta’minlaydigan, tabiiy, ajralmas huquqlari.

Shikoyat – fuqarolarning buzilgan huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini tiklashni talab qiluvchi murojaatlari.

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

Ijaraga beriladigan darslik holatini ko‘rsatuvchi jadval

№	O‘quvchining ismi va familiyasi	O‘quv yili	Darslikning olingandagi holati	Sinf rahbarining imzosi	Darslikning topshirilgandagi holati	Sinf rahbarining imzosi
1						
2						
3						
4						
5						
6						
7						

Darslik ijaraga berilib, o‘quv yili yakunida qaytarib olinganda yuqoridagi jadval sinf rahbarlari tomonidan quyidagi baholash mezonlariga asosan to‘ldiriladi:

Yangi	Darslikning birinchi marta foydalanishga berilgandagi holati.
Yaxshi	Muqova butun, darslikning asosiy qismidan ajralmagan. Barcha varaqlari bor, yirtilmagan, ko‘chmagan, betlarida yozuv va chiziqlar yo‘q.
Qoniqarli	Muqova ezilgan, birmuncha chizilib, chetlari yedirilgan, darslikning asosiy qismidan ajralish holati bor, lekin qoniqarli ta’mirlangan. Ko‘chgan varaqlari qayta joylangan, ayrim betlariga chizilgan.
Qoniqarsiz	Muqova yirtilgan, ustiga chizilgan, asosiy qismidan ajralgan yoki butunlay yo‘q, qoniqarsiz ta’mirlangan. Betlari yirtilgan, varaqlari yetishmaydi, chizib, bo‘yab tashlangan. Darslikni tiklab bo‘lmaydi.